O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy, o’rta maxsus va professional ta’lim yo’nalishlari bo’yicha o’quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil 18-noyabrdagi 8-son yig’ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2021-yil 23-noyabrdagi 500-son buyrug’i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.



Tuzuvchilar:

“ Xirurgiya va reanimatsiyada xamshiralik ishi”
kafedra mudiri SH.T. Mirzayeva
“Xirurgiya va reanimatsiyada xamshiralik ishi”
kafedra yetakchi o‘qituvchisi G.K. Razzokova

Taqrizchilar:

Toshkent tibbiyot akademiyasi normal
Patologik fiziologiya kafedrasi assistenti
t.f.n.Mirzayev D.A.

1. O‘quv dasturi umumiy talablari

Dastur nomi	Reanimatsiyada hamshiralik ishi
Ajratilgan soat	72
Mavzular soni	**9**
Dasturning maqsadi	Reanimatsiya asoslari fanini nazariy va amaliy mavzularga oid kasalliklarni xar tomonlama o‘rganish va taxlil qilish bilim va ko‘nikmalarini egallash.
O‘zlashtirish(o‘qitish) natijalari	1.Reanimatsiya asoslari fanidan nazariy va amaliy bilim va ko`nikmalarni shakllantirish; 2.Reanimatsion kasalliklarni xususiyatlarini, etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari va davolash xususiyatlarini o‘rganadi. 3.Reanimatsiya va intensiv terapiyani o‘tkazish chora tadbirlarini amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish
Bilimlar-	Anesteziologiya - reanimatologiya bo‘limida sanitar- gigiyenik tartib, aseptika va antiseptika – Ingalatsion narkoz apparatlarini, respiratorlarni, jihozlar va moslamalarni zararsizlantirish – Narkoz va nafas apparatlarini ishlatish qoidalari – Apparatlar bilan ishlaganda texnika xafsizligi qoidalari – Narkoz nazariyasi – Bemorlarni anesteziya va operatsiyaga tayyorlash – Bemorni anesteziyaga bevosita tayyorlash – Operatsiya va anesteziya vaqtida monitoring o‘tkazish – O‘tkir nafas yetishmovchiligida reanimatsiya O‘tkir yurak-qon tomir yetishmovchilligida reanimatsiya – SHok holatlarida reanimatsiya – Koma holatlarida reanimatsiya - O‘tkir zaharlanish, suvda cho`kish, bo‘g‘ilish va boshqa shoshilinch holatlarda reanimatsiya
Ko‘nikmalar	Traxeostomiya – Konikotomiya – Traxeya intubatsiyasi – Laringial niqobni qo‘llash – Giperbarik oksigenoterapiya – Qo‘ziqorindan zaharlanish – Psixotrop dorilardan zaharlanish – Ishqorlar bilan zaharlanish – Elektrdan jarohatlanish – CHo‘kishda shoshilinch yordam – Endotraxeal va endobronxial umumiy anesteziya - Laparoskopik operatsiyalarda og‘riqsizlantirish
O‘quv rejasiga muvofiq o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fanning nomi	**“**Hamshiralik ishi ”, «Farmakologiya va retseptura» “Yuqumli kasalliklar ”
O‘qitishning tashkiliy shakli	N-nazariy ta’lim; A-amaliy ta’lim; NA-birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar; MX-maxsus xonalarda mashg‘ulot.

Dasturga qo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash	YOzma, og‘zaki, savol-javob, munozara, test, amaliy topshiriq

2. O‘quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O‘qitishni tashkiliy shakli	Mustaqil ta’lim
1	Reanimatsiya va intensiv terapiya haqida tushuncha. Reanimatsiya va intensiv terapiya bo‘limlarini tarkibi va vazifalari. Terminal holatlar.	Reanimatsiya va intensiv terapiya haqida tushuncha. Reanimatsiya va intensiv terapiya bo‘limlarini tarkibi va vazifalari bilan tanishish. Intensiv terapiyani o‘tayotgan bemorlarni jismoniy va ruxiy holati. Intensiv kuzatuv apparatlaridan foydalanish holda bemorlarni nazorat qilish. Terminal holat sabablarii, bosqichlari, klinik belgilari. Bemorlarni kon bosimi, pulsi, nafas olish soni, tana haroratini o‘lchash va ko‘z qorachig`ining yorug`likga reaktsiyasini aniqlash Havo o‘tkazgichlardan foydalanish .Xujjatlarni yuritish. Ishlatilgan jixozlarni dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish hamda utilizatsiya qilish SANpin 03.42.17. buyrug`i asosida.	12	NA 6/6	4
2	Elementar o`pka – yurak reanimatsiyasini o`tkazish	Bemorni elementar o‘pka –yurak reanimatsiyasiga tayyorlash. Elementar o‘pka –yurak reanimatsiyasi o‘tkazishni o‘zlashtirish.YUqori nafas yo‘llari o‘tkazuvchanligini ta`minlash. O‘pkaga sun`iy nafas berish usullari. YUrakni massaj **q**ilishdagi xatoliklar va ularni oldini olish. Elementar o‘pka –yurak reanimatsiyasi samoradorligini aniqlash. Ishlatilgan jixozlarni dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish hamda utilizatsiya qilish SANpin 03.42.17. buyrug`i asosida.	8	A8	4
3	**O‘**tkir nafas yetishmovchiligida	**O‘**tkir nafas yetishmovchligi haqida tushuncha.	10	NA 4/6	4

	reaniamatsiya va intensiv terapiya	**O‘**tkir nafas yetishmovchligi sabablari klinikasi .Patologik nafas turlari.Gipoksiya giperkapniya bradipnoe taxipnoe holatlarida intensiv terapiya. Traxeostomiya, konikotomiya. Oksigenoterapiya. O‘pkaga sun’iy nafas berish apparatlari. Mazkur mashg‘ulot klinika oldi amaliyot xonasida o‘tkazilishi maqsadga muvofiq. Sun’iy nafas oldiruvchi meditsina ashyolari va ularni tayyorlab, mulyajda qo‘llash. Kekirdak intubatsiyasiga ko‘rsatma va intubatsiya uchun asboblar to‘plamini tayyorlash. Sun’iy nafas berish apparatlarini ishchi holatiga keltirish, germetikligini tekshirish. Ishlatilgan asboblarni yuvish va sterillashga tayyorlash. Ishlatilgan jixozlarni dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish hamda utilizatsiya qilish SANpin 03.42.17. buyrug`i asosida.			
4	O‘tkir yurak-tomir yetishmovchiligi	O‘tkir yurak yetishmovchligi sabablar, klinik formalari va belgilari. Aritmiyalar. O‘tkir yurak yetishmovchligida qo‘llaniladigan reanimatsiya va intensiv terapiya. Defibrillyatsiya haqida tushuncha Mavzu bo‘yicha bemorlarni namoyish qilish va tahlil etish. EKG o‘tkazishda ishtirok etish. Bemorlar holatini kardiomonitorda kuzatish. O‘tkir yurak-tomir yetishmovchiligida reanimatsiya va intensiv terapiya choralari. Defibrillyatorni ishga tayyorlash. YUrak to‘xtaganda reanimatsiya. Ishlatilgan jixozlarni dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish hamda utilizatsiya qilish SANpin 03.42.17. buyrug`i asosida.	12	NA 6/6	4
5	SHok holatlarida reanimatsiya va intensiv terapiya	SHok haqida tushuncha. SHok turlari. SHok sabablariga ko‘ra klinik manzarasi. Turli etiologiyali shoklarda (anafilaktik shok, kardiogen shok ,travmatik shok,gipovolemik,septik va infeksion – toksik shoklar) kechiktirib bo‘lmaydigan yordam, reanimatsiya va intensiv terapiya xususiyatlari. SHok holatidagi bemorlarni parvarish qilish xususiyatlari. qon bosimi, puls, nafas olish tezligini o‘lchashni; SHokda kechiktirib bo‘lmaydigan yordam tadbirlarini o‘tkazishni; Gemodinamik varaqani to‘ldirishni.	10	NA 4/6	4

6	Koma holatlarida reanimatsiya va intensiv terapiya	Koma haqida tushuncha. Turlari koma holatlarida (giperglikemik koma ,gipogligemik koma, jigar komasi va uremik komalar). sabablariga ko‘ra klinik manzarasi. Turli komalarni laborator diagnostikasi. Ularda kechiktirib bo‘lmaydigan yordam, reanimatsiya va intensiv terapiya xususiyatlari. Koma holatiga tushgan bemorlarni parvarish qilish xususiyatlari. Komada kechiktirib bo‘lmaydigan yordam tadbirlarini o‘tkazishni; Koma holatidagi bemorlarni namoyish etish. Gemodinamik kuzatuv o‘tkazish va qayd etish. Koma holatlarida intensiv terapiya o‘tkazishda qatnashish. Bemorlarni parvarishlash.	4	NA 2/2	4
7	O‘tkir zaharlanish, cho‘kish, bo‘g‘ilish va boshqa shoshilinch holatlar.	Zaharlanish haqida tushuncha. O‘tkir ekzogen zaharlanish sabablari va turlari. Zaharlanish natijasida organizmda kelib chiqadigan patologik holatlar. CHo‘kish, bo‘g‘ilish va zaharlanishlarda kechiktirib bo‘lmaydigan yordam va reanimatsiya tadbirlari. Intensiv davolash xususiyatlari, infuzion terapiya, detoksikatsiya. Zaharni organizmdan zudlik bilan chiqarish usullarini o‘rganish va mashq qilish. Me’dani yuvish. Me’daga og‘iz va burun orqali zond kiritishni; Oshqozonni yuvishni; YUqori nafas yo‘llarini tozalashni; Tozalovchi va sifonli huqnalarni o‘tkazishni. Antidotlarni yuborish. Gemodinamik varaqani to‘ldirish. Bemorni parvarishlash. Ishlatilgan jixozlarni zararsizlantirish SANpin 03.42.17. buyrug`i asosida.	6	NA 2/4	4
8	Eklampsiyada reanimatsiya va intensiv terapiya	Eklampsiya oldi holati va eklampsiya haqida tushuncha.Eklampsiya sabablari , belgilari va diagnostikasi .Eklampsiya asoratlari ; O‘pka shishi va miyaga qon quyilishida	4	NA 2/2	2

		reanimatsiya va intensiv terapiya o‘tkazish. . Gemodinamik varaqasini to‘ldirish. Bemorni parvarishlash.			
9	O‘ta xavfli yuqumli kasalliklarda reanimatsiya va intensiv terapiya	O‘ta xavfli yuqumlikasalliklarni turlari,yuqish yo‘llari, belgilari, diagnostika va davolash.Epidemiya va pandemiya tushunchalari. Vaksinatsiyalar. O‘ta xavfli yuqumli kasalliklarni profilaktikasi. Bakterialogik tekshiruvlarga material yig‘ish. Regidratatsiya o‘tkazish.Burundan surtma olish algoritmi. Pulsoksimetr ishlash prinsipi.Saturatsiyani aniqlash. O`lat, vabo va koronavirus (COVID-19)kasalliklarida reanimatsiya va intensiv terapiya o‘tkazish. 058 formani to`ldirish. Ishlatilgan jixozlarni zararsizlantirish SANpin 03.42.17. va 03.72.20. buyrug`i asosida gemodinamik varaqani to‘ldirish. Bemorni parvarishlash	4	NA 2/2	2
Jami:			72	72	36

3.O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash

O‘quv dasturi davomida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga hamohang bo‘lishi lozim.

4.Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Prezident asarlari

1.SHavkat Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent – “O‘zbekiston”-2018.

2.SHavkat Mirziyoyev “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan engoliy baxodir” Toshkent – “O‘zbekiston”-2018.

3. SHavkat Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”Toshkent – “O‘zbekiston”-2016.

4. SHavkat Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”Toshkent – “O‘zbekiston”2017

Asosiy adabiyotlar:

1. Hamraev A.J., Alimov A.V., A’zamxo‘jaev T.S. “Xirurgiya va reanimatsiya asoslari”. Toshkent, “Zar qalam” nashriyoti, 2005 yil.

2. Ziyayeva M.F.,Hamedova M.A., Mirrahimova G., Murodova R.T. “Jarrohlikda hamshiralik ishi» O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, Toshkent, 2005 yil.

3. Muxtorov M.X., Qaxxorov I.K. “Reanimatsiya asoslari” Toshkent, “Ilm-ziyo” nashriyoti, 2005 yil.

Internet manbalari:

1.www.medlook.ru
4. www.medbok.ru
5. www.medicum.ru
6. www.medtext.ru
7. www.medkniga.ru
8. www.cardioline.ru
9. www:http://buks.ru/book;
10.www.ziyonet.uz;
11.www.lex.uz;
12.www. cardiosite.ru;
13.www. cardiologia.ru;
14.www.bilim.uz;
15.www.gov.uz;

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

O‘RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA’LIMNING

0.71.01.00- Davolash ishi

5.71.01.01-“Umumiy amaliyot feldsher – akusher ” mutaxassisligining

Akusherlik fanidan

O‘QUV DASTURI

Kvalifikatsiyalar nomi:	Umumiy amaliyot feldsher akusheri
O‘quv rejadagi tartib raqami:	3.12
Ajratilgan soat:	108

Toshkent -2021

O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy, o’rta maxsus va professional ta’lim yo’nalishlari bo’yicha o’quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil 18-noyabrdagi 8-son yig’ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2021-yil 23-noyabrdagi 500-son buyrug’i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.



Tuzuvchilar:

Usmonova Xolida Anvarovna. YUnusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi yetakchi o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

N.A.Nurmatova

YUnusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi direktori

1. O‘quv dasturiga qo‘yiladigan talablar

O‘quv dasturining nomi	**Akusherlik**
Ajratilgan soat	108
Mavzular soni	14
Dasturning maqsadi	**-“**Akusherlik” fani akusherlik va ginekologik yordam ko‘rsatish muassasalari, qishloq vrachlik punktlari, oilaviy poliklinikalar, xotin-qizlar maslahatxonalarida ishlay oladigan yuqori malakali mutaxassislar feldsher - akusherini tayyorlashni; – -Homilador, tug‘uvchi va tukkan ayollarning fiziologik xususiyatlari haqida bilimlarini shakllantirish; -Homiladorlik bilan bog‘liq kasalliklarda shoshilinch yordam ko‘rsatish.; -Homilador, tug‘uvchi va tuqqan ayollarning patologik holatlarida yordam ko‘rsatish; - Ekstragenital kasalliklar va homiladorlik, homiladorlarni parvarish qilishda feldsher - akusherning vazifalari. -Bola tashlash, chala tug‘ish, muddatidan o‘tgan homiladorlikda feldsher - akusherning vazifalari va shoshilinch yordami. - Homiladorlikning ikkinchi yarmida qon ketishida feldsher - akusherning vazifalari va shoshilinch yordami – Tug‘ruq. Tug‘ruqning kechishi, klinikasi va uni boshqarishda feldsher - akusherning vazifalari – Homilaning noto‘g‘ri vaziyatlari. Tor chanoqlar haqida bilimlarini shakllantirish; – Akusherlik shikastlarida feldsher - akusherning vazifalari va shoshilinch yordami. – Yo‘ldosh tug‘ilishi va kichik chilla davri patologiyasi va terminal holatlarda shoshilinch yordam ko‘rsatish. – Chilla davri fiziologiyasi va patologiyasida feldsher - akusherning vazifalari. – Yangi tug‘ilgan chaqaloq fiziologiyasi va patologiyasida feldsher - akusherning vazifalari.
O‘zlashtirish (o‘qitish) natijalari	**-“**Akusherlik” fani homilador, tug‘uvchi va tuqqan ayollarning fiziologik xususiyatlari va muammolarini o‘z vaqtida aniqlashni o‘rgatish; - Homilador, tug‘uvchi va tukkan ayollarning fiziologik xususiyatlari haqida bilimlarini shakllantirish; -Ekstragenital kasalliklar va homiladorlik, homiladorlarni parvarish qilishda feldsher - akusherning vazifalari. - Akusherlik shikastlarida feldsher - akusherning vazifalari va shoshilinch yordamni -YAngi pedagogik texnologiyalar asosida mavzular bo‘yicha bilim, malaka, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlarni shakllantirish; -Fanni boshqa tibbiyot fanlari bilan uzviy bog‘liklikka o‘rgatish.
Bilim	O‘zbekiston Respublikasida akusherlik va ginekologik yordam ko‘rsatish muassasalari ishining tashkil qilinishi. Tug‘ruq majmualarida septik kasalliklarning oldini olish – Ayollar jinsiy a’zolarining anatomiyasi va fiziologiyasi. Xayz sikli – Homiladorlik fiziologiyasi va diagnostikasi. Homiladorlarni parvarish

	qilish. – Homiladorlik bilan bog‘liq kasalliklarda shoshilinch yordam ko‘rsatish. – Ekstragenital kasalliklar va homiladorlik. Homiladorlarni parvarish qilishda feldsherning vazifalari. – Bola tashlash, chala tug‘ish, muddatidan o‘tgan homiladorlik. – Homiladorlikning ikkinchi yarmida qon ketishida feldsherning vazifalari va shoshilinch yordami. – Tug‘ruq. Tug‘ruqning kechishi, klinikasi va uni boshqarishda feldsherning vazifalari. – Homilaning noto‘g‘ri vaziyatlari. Tor chanoqlar. – Akusherlik shikastlari. – Yo‘ldosh tug‘ilishi va kichik chilla davri patologiyasi. Terminal holatlarda shoshilinch yordam ko‘rsatish. – Chilla davri fiziologiyasi va patologiyasi. – Yangi tug‘ilgan chaqaloq fiziologiyasi va patologiyasi.
Ko‘nikma	Katta chanoqning tashqi o‘lchamlarini o‘lchash (diagonal konyugata, chin konyugata). Solovev indeksini o‘lchash.Homilador ayolni antropometrik va instrumental tekshirish. - Homiladorlik muddatlarini aniqlash. Homilaning bachadondagi holati va homila yurak urishini eshitish va baholash. - Normal tug‘ruqni qabul qilish. Yo‘ldoshni ko‘zdan kechirish. - Yo‘qotilgan qon miqdorini hisoblash; - Hamkorlik tug‘riqlari. - YAngi tug‘ilgan chaqaloqni parvarish qilish. Yangi tug‘ilgan chaqaloq antropometriyasi. Yangi tug‘ilgan chaqaloqni ko‘krak suti bilan ovqatlantirish. - Apgar shkalasi bo‘yicha yangi tug‘ilgan chaqaloqning holatini baholash. Tuqqan ayolni parvarish qilish. **Quyidagi holatlarda shoshilinch yordam ko‘rsatish:** - homiladorlik va tug‘ruq vaqtida qon ketishida; - preeklampsiyada; - eklampsiya xurujida.
O‘quv rejaga muvofiq o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fan nomi	Lotin tili va tibbiy terminologiya Anatomiya, fiziologiya va patologiya Farmakologiya va retseptura asoslari Hamshiralik ishi Pediatriya Terapiya Jarrohlik Reanimatsiya Ginekologiya va reproduktiv salomatlik
O‘qitishni tashkiliy shakli	N-nazariy ta’lim; A-amaliy ta’lim; NA- birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar MX maxsus xonalardagi mashg‘ulot

Dasturga Aqo‘yilgan talab	Majburiy
O‘qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash	Yozma, og‘zaki, savol-javob,munozara,test, vaziyatli masalalar yechish, amaliy topshiriqni bajarish, ko‘nikma va muolajalar bajarilish algoritmini namoyish etish

2.O‘quv dasturi mazmuni

№	Mavzular nomi	Mavzuning qiskacha mazmuni	Jami	O‘qitishning tashkiliy	Mustakil ta’lim
1	**O‘zbekiston Respublikasida akusherlik va ginekologik yordam ko‘rsatish muassasalari ishining tashkil qilinishi. Tug‘ruqxona majmualarida kasalxona ichki infeksiyalarni oldini olish.**	Akusherlik fani haqida tushuncha. Onalik va bolalikni muhofaza qilishga oid davlat qonunlari va qarorlari haqida malumot oladilar. Akusherlik va ginekologik yordam ko‘rsatish muassasalarida feldsher - akusherning tutgan o‘rni, vazifalari, ma’naviy qiyofasi. Akusherlik va ginekologik yordam ko‘rsatish muassasalari ishining tashkil qilinishi tarkibi, xususiyatlari. Aseptika va antiseptika haqida tushuncha. Epidemiyaga qarshi sanitar-gigienik tartiblar haqida ma`lumot oladilar. Qo‘lni yuvish (zararsizlantirish). Ishlatiladigan asbob-anjomlarni zararsizlantirishni amalga oshiradilar. Bog‘lov materiallarini tayyorlashni o‘rganadilar. Dezinfeksiyalovchi eritmalarni tayyorlash va qo‘llash. Biksga asbob-anjomlarni joylash va sterillashni amalga oshiradilar.	4	N.A 2/4	2
2	**Ayollar jinsiy a’zolarining anatomiya va fiziologiyasi.**	Ayolning tashqi va ichki jinsiy a’zolari tuzilishi va vazifalari haqida ma`lumot oladilar. Qinning tozalik darajalari. Tashqi jinsiy a’zolarni ko‘zdan kechirishni o`rganadilar. Qin ko‘zgulari yordamida va bimanual tekshiruvga bemorni tayyorlashni o`rganadilar.	6	N.A 2/4	2
2.1	**Ayollar jinsiy a’zolarining anatomiya va fiziologiyasi. Mo‘tadil (normal)**	Mo‘tadil (normal) hayz ko‘rish davri. Ayol hayoti davrlari va ayol gigienasining xususiyatlari haqida malumot oladilar. O‘quvchilar bemorlardan anamnez	6	N.A 2/4	2

	hayz ko‘rish davri.	yig‘adilar, o‘qituvchi nazoratida bemorlarni umumiy tekshirishda ishtirok etadilar, ko‘rikka kelgan ayollarni tekshirish jarayoni o‘tkazilayotgan vaqtda kuzatib turadilar. Ishlatilgan asbob anjomlarni zararsizlantirishda yordam beradilar. Chanoqning tashqi o‘lchamlarini o‘lchaydilar.			
3	**Homiladorlik fiziologiya va diagnostikasi. Homiladorlikni erta muddatlarda aniqlashda feldsher - akusherning vazifalari.**	Urug‘lanish va payvandlanish. Ayol organizmida homiladorlik tufayli ro‘y beradigan fiziologik o‘zgarishlar. Tashqi muhit zararli omillarining embrion va homilaga ta’siri, homila rivojlanishidagi kritik davrlari haqida malumot oladilar. Homilador va tuqqan ayol shaxsiy varaqasining pasport qismini to‘ldirish. Almashuv varaqasining pasport qismini to‘ldirish. Patronaj varaqasini to‘ldirish. Homiladorlarni erta dispanser kuzatuviga olishni (homiladorlikning 12chi haftasigacha) va uyda patronaj nazoratini muntazamligini ta’minlash. Homilador ayollarni tana vaznini va bo‘yini o‘lchashni o‘rganadilar. Tashqi akusherlik amallarini o‘tkazish. Vaziyatli masala yordamida hamshiralik jarayonini amalga oshiradilar.	6	N.A 2/4	2
3.1	**Homiladorlik fiziologiya va diagnostikasi. Homiladorlikni kechki muddatlarda aniqlashda feldsher - akusherning vazifalari**	Xomiladorlik belgilarini va muddatini aniqlash. Balog‘atga yetmaganlarda homiladorlik muammolarini o`rganadalar. BTSYO muassasalarida homiladorlarga antenatal parvarishni ta’minlash haqida malumot oladilar. “Onalar maktabi”da homiladorlar bilan shug‘ullanish dasturini(BTSYO muassasalarida homiladorlar antenatal parvarishi va tibbiy yordam ko‘rsatish standart (YUNISEF))ni o‘rganadalar Homilaning yurak urishini tekshirish va uni baholashni o‘rganadilar. Qorin aylanasini o‘lchash. Bachadon tubi balandligini o‘lchashni o‘rganadalar. Gravidogrammani rasmiylashtirishni amalga oshiradilar. Homilador ayollarda Solovev indeksini aniqlash. Homiladorlik va tug‘ruq muddatini aniqlash. Sut bezlarini emizishga tayyorlashni amalga oshiradilar.	6	N.A 2/4	2
4	**Tug‘ruq. Tug‘ruqning kechishi, klinikasi va uni boshqarishda**	Tug‘ruq, tug‘ruq xabarchilari, tug‘ruq davrlari vatug‘ruqning haydovchi kuchlarihaqida tushunchaga zga bo‘ladilar. Tug‘ruqning I davrini klinik kechishi va uni boshqarish, tug‘ruqni og‘riqsizlantirish,	6	N.A 2/4	2

	feldsher - akusherning vazifalari.	SSVning amaldagi buyruqlarning qo‘llanilishi, hamkorlikdagi tug‘ruqning afzalligini o‘rganadilar. Tug‘ruqning II davri kechishini va III davrini faol olib borishni ahamiyatini o‘rganadilar Tug‘ruq majmuasida o‘quvchilar homilador va tug‘uvchi ayolni qabul qilishni, tug‘ruq tarixining pasport qismini to‘ldirish va qabul qilinganligi haqida daftarga qayd etishni o‘rganadilar. O‘quvchilar tug‘ruqning birinchi davrida arterial qon bosimini o‘lchashadi, pulsni sanashadi, homilaning yurak urishi eshitib ko‘rishadi va tug‘ruq faoliyatiga baho beradilar. Tug‘ruqda yo‘qotilgan qon miqdorini aniqlashda qatnashadilar.			
4.1	**Tug‘ruq biomexanizmi haqida tushuncha. Normal tug‘ruq biomexanizmi.**	Tug‘ruq biomexanizmi haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. Tug‘ruqning kechishida feldsher - akusherning vazifalari,chaqaloqni birlamchi artib-tozalashni o‘tkazish, Apgar shkalasi bo‘yicha baholash, issiqlik zanjirini qo‘llashning mohiyatini o‘rganadilar. Tug‘ruqning ikkinchi davrida tug‘ruqni boshqarish va qabul qilishda akusherkalarga yordam berishadi. Issiqlik zanjirini saqlashda va bolani birlamchi artib-tozalashda ishtirok etishadi. Tug‘ruq biomexanizmini fantomda bajarib o‘rganishadi. Yangi tug‘ilgan chaqaloqning umumiy holati Apgar shkalasi bo‘yicha baholashni o‘rganadilar. O‘quvchilar tug‘ruqning uchinchi davrida AQB o‘lchash, pulsni sanash, platsenta ajralganligi belgilarini aniqlashdava tug‘ruqning III davrini faol olib borishda, tug‘ilgan plansentaning butunligini tekshirishda, tug‘ruqda yo‘qotilgan qon miqdorini aniqlashda qatnashadilar.	4	N.A 2/4	4
5	**CHilla davri fiziologiyasi va patologiyasi. Ayollarni parvarish qilishda feldsher - akusherning vazifalari.**	Chilla davri haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. Chilla davrida jinsiy a’zolardagi o‘zgarishlar, bachadon involyusiyasi, loxiya va uning turlarini, tuqqan ayolni kuzatish va parvarishlashni o‘rganadilar. Kasalxona ichidagi septik kasalliklarning tarqalishi va ularning oldini olish,mastit bilan kasallangan ayollarni parvarishlash, xonalarni joriy tozalash va uning ahamiyati. Kasallangan ayollarni davolash va parvarishlashni o‘rganadilar. Mashg‘ulot tug‘ruqdan keyingi bo‘limda o‘tkaziladi: O‘quvchilar chilla davri bo‘limi, palatalarning tartib-qoidalari	4	N.A 2/4	4

		bilan tanishadilar. Tuqqan ayolarni parvarishlashda qatnashadilar. Ko‘krakni ketma ket tutishni ahamiyati to‘g‘risida suhbatlar o‘tkazishadi. Shifokor tomonidan o‘tkaziladigan tekshiruvda ishtirok etishadi, ko‘rsatmalarni yozib borishadi, tuqqan ayollarni ko‘rikdan o‘tkazishadi, shifokor ko‘rsatmasini bo‘lim akusheri bilan birgalikda bajarishadi. Sut bezlarini parvarish qilish, sutni sog‘ib olishni o‘rganishadi. Ko‘krak uchi yoriqlarini va mastitni davolashda hamda chilla davri gimnastikasini o‘tkazishda ishtirok etishadi			
6	**YAngi tug‘ilgan chaqaloq fiziologiyasi va patologiyasi. CHaqaloqlarni parvarish qilishda feldsher - akusherning vazifalari.**	Chaqaloqlik davri to‘g‘risidagi tushuncha, tug‘ruqdan so‘ng dastlabki ikki soat ichida ko‘krak bilan boqish va uning ahamiyati, YUNISEF tomonidan berilgan tavsiyalarni o‘rganadilar. Chaqaloqlarni emlash va uning ahamiyati, “Xavfsiz immunizatsiya” (YUNISEF). Faqat ona suti bilan boqish, chaqaloqning rivojlanishi va o‘sishidagi o‘rnini o‘rganadilar. Chaqaloqlik davri kasalliklari to‘g‘risidagi tushuncha, turlari, klinik kechishi, davolash va profilaktikasi haqidagi tushunchaga ega bo‘ladilar. Amaliy mashg‘ulot ona va bola birga yotadigan palatalarda, ularni parvarishlash, oziqlantirish, emlash jarayonlarida qatnashish, hamshiraga yordamlashish, tug‘ruq blokida esa chaqaloqlarni birlamchi artib tozalash, onadan ajratish, qindikni ikkilamchi kesib bog‘lash, ko‘zga, qiz bolalarda jinsiy a’zolarga gonoblennoriyaning oldini olish maqsadida 1% li tetratsiklin (eritromitsin) mazini surtish jarayonlarida hamda ularning vazni, tana o‘lchamlarini o‘lchash, hujjatlashtirishda qatnashadilar. Turli xil shikastlar bilan tug‘ilgan chaqaloqlarni parvarish qilishda qatnashadilar.	4	N.A 2/4	2
7	**Homiladorlik bilan bog‘liq kasalliklar va ularda shoshilinch yordam ko‘rsatish.**	Homiladorlik patologiyasining asosiy turlari. Homiladorlarni qusishini darajalari haqida ma`lumot oladilar. Homiladorlarni qusishi kelib chiqish sabablari, klinikasi va darajalari. Homiladorligi patologik kechishi bo‘yicha xavfi yuqori guruhlarnianiqlashni urganadilar. Homiladorlik patologiyalarida hamshiralik tashhisini o‘z vaqtida aniqlashni amalga oshiradilar. Homiladorlik bilan bog‘liq kasalliklar rivojlanishi havfi bo‘lgan homiladorlarni aniqlashni urganadilar.	8	N.A 2/4	2

		Dispanser nazoratida bo‘lgan homiladorlar hujjatlarini olib borish. Xomilador ayolga xavfli belgilar paydo bo‘lganda shifokorga murojjat etishni o‘rgatishni o`rgatadilar. Homiladorlar qusishining og‘ir turida yordam berish. Gemodinamik varaqani to‘lg‘azish. Yashirin shish belgilarini aniqlashni urganadilar. Xomilador ayollarni tana vaznini o‘lchash. Homilador ayollarni arterial bosimini o‘lchashni o`rganadilar.			
7.1	**Homiladorlik bilan bog‘liq kasalliklar va ularda shoshilinch yordam ko‘rsatish**	Gipertenziv sindromining tasnifi, klinik belgilari, davolash xususiyatlari va profilaktik chora-tadbirlari, gipertenziv sindrom rivojlanishiga xavfi yuqori bo‘lgan guruhlarni aniqlash, yengil eklampsiya va og‘ir eklampsiya belgilari, ularni aniqlash tushunchasiga ega bo‘ladilar. O‘quvchilar bo‘limlarda mustaqil ishlayotganlarida xamshiralar nazorati ostida siydikdagi oqsilni aniqlaydilar, ayolni qon bosimini o‘lchashada, homila yuragini eshitishadi. Eklampsiya hurujida shifokorgacha 1 yordam berish. Preeklampsiya va eklampsiyada shoshilinch yordam ko‘rsatishni o‘zlashtiradilar. Yashirin shish belgilarini aniqlashadi; Homilador ayollarni tana vaznini o‘lchashadi; sutkalik diurezni aniqlashni; homiladorlik gipertenziyasi aniqlangan ayollarni saralashda ishtirok etadilar. Siydik qopini katetarizatsiya qilishni o‘rganadillar. Teri orasiga, mushak orasiga va vena ichiga dori moddalarini yuborishni o‘rganadilar.	8	N.A 2/4	2
8	**Ekstragenital kasalliklar va homiladorlik. Homiladorlar-ni parvarish qilishda feldsher - akusherning vazifalari.**	Turli xil ekstragenital kasalliklari bor ayollarda homiladorlik va tug‘ruqning o‘tishi xususiyatlari haqida malumot oladilar. Yurak-qon tomir va buyrak kasalliklarida homiladorlik va tug‘ruqning kechishi. Endokrin kasalliklarda homiladorlik va tug‘ruqning kechishi. Ekstragenital kasalliklari bor homiladorlarni patronaj qilish. BTSYO muassasalarida homiladorlar antenatal parvarishi va tibbiy yordam ko‘rsatish((YUNISEF). O‘qituvchi o‘quvchilarga bemorlarni parvarish qilish xususiyatlarini va ahamiyatini uqtiradi. SSVning amaldagi buyruqlarning qo‘llanilishi bilan tanishtiradi. Ekstragenital kasalliklarda	4	N.A 2/4	4

		oqilona ovqatlanish bo‘yicha tavsiyanomalar berishni o‘rganadilar. Infeksion va havo-tomchi yo‘li orqali yuqadigan kasalliklarni oldini olish. Siydikni turli xil sinamalarga yig‘ishni o‘rganadilar. Ekstragenital kasalliklari bor homiladorlarni patronaj qilishni; tomchilab dori yuborish uchun sistemani tayyorlashni; qondagi qand miqdorini aniqlash uchun qon olishni o‘rganadilar;			
8.1	**Ekstragenital kasalliklar va homiladorlik. Homiladorlarni parvarish qilishda feldsher - akusherning vazifalari**	Anemiya kasalligida homiladorlik va tug‘ruqning kechishi. Havo-tomchi yo‘li orqali yuqadigan kasalliklarda homiladorlikning va tug‘ruqning kechishi. Rezus-kelishmovchilik va gemolitik kasallik tushuncha xosil qiladilar. Dori vositalarini parenteral yo‘l bilan yuborish. Homila gipoksiyasi profilaktikasini o‘tkazishni o‘rganadilar. Homilador ayollarga namlangan kislorod berish. Ekstragenital kasalliklari bor homiladorlar ayollarni kuzatish, davolash va reabilitatsiya davrida parvarish yo‘l-yo‘rig‘i bilan tanishadilar va bu ishlarda faol qatnashadilar, vaziyatli-jumboqli masalalar yechadilar.	4	N.A 2/4	4
9	**Bola tashlash, chala tug‘ish va muddatidan o‘tgan homiladorlik haqida tushuncha, ushbu xolatlarda feldsher - akusherning taktikasi.**	Bola tashlash (abort), bosqichlari, shoshilinch yordam ko‘rsatishda feldsher - akusherning taktikasi. Chala tug‘ish. Perinatal o‘limning oldini olish. Muddatidan o‘tgan homiladorlik va kechikkan tug‘ruq haqidagi tushunchaga ega bo‘ladilar. Bola tashlashda shoshilinch yordam ko‘rsatishni, bola tashlashda yordam ko‘rsatish uchun asbob-anjomlarni tayyorlashni, chala va kechikib tug‘ilgan bolalarni parvarishlashni, muddatidan o‘tgan homiladorlikni olib borish taktikasini o‘zlashtiradilar. Kyuvezni ishlatish qoidalarini o‘rganadilar	4	N.A 2/4	4
10	**Homiladorlikning ikqinchi yarmida qon ketishida feldsher - akusherning vazifalari va shoshilinch yordami ko‘rsatish.**	Normal joylashgan platsentaning barvaqt ko‘chishi, yo‘ldoshning oldinda joylashuvi haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. Tug‘ruqni boshqarish, kuzatiladigan asoratlarda olib boriladigan taktikasi, homiladorlik va tug‘ruqni boshqarishda shoshilinch yordam ko‘rsatishda feldsher - akusherning vazifalarini o‘zlashtiradilar. O‘quvchilar homilador va tug‘uvchi ayollarni tekshirishda qatnashadilar. Normal joylashgan platsentaning barvaqt ko‘chishida qo‘llaniladigan taktikasi va feldsher - akusherning vazifalari.	4	N.A 2/2	4

		Yo‘ldoshning oldinda joylashganligini va barvaqt ko‘chishi asorati bilan kechgan tug‘ruq tarixlarini klinik taxlil qiladilar. Homilador ayollardan qon ketganda shoshilinch yordam berishda va ularni parvarishlashda ishtirok etadilar. Pulsni sanaydilar va baholaydilar. Arterial bosimni o‘lchashni, yo‘qotilgan qon miqdorini aniqlashni, qon to‘xtatuvchi va qon o‘rnini bosuvchi dori moddalarini yuborishni o‘zlashtiradilar.			
11	**Akusherlik shikastlari.**	-Akusherlik shikastlari (oraliq, qin, bachadon bo‘yni jarohatlari) haqida tushunchasiga ega bo‘ladilar. -Bachadon yorilishi, tasnifini, klinikasini, oldini olishni,akusherlik operatsiyalari haqida tushunchani. -Chot va qinning yirtilishi. Chotdagi choklarni parvarishlash. Bachadon bo‘ynining tug‘ruq paytida jarohatlanishi. Bachadon yorilishi. Tez tibbiy yordam ko‘rsatish, tug‘ruq paytidagi profilaktik chora-tadbirlar. O‘quvchilar tug‘ruq yo‘llarining turli xil shikastlanishlariga sabab bo‘lgan tug‘ruq tarixi bilan tanishadilar va muammoli vaziyatdan masalalarni yechadilar. -O‘quvchilar tug‘ruq bo‘limida tuqqan ayollarning bachadon bo‘ynini va qin devorlarini asbob-anjomlar yordamida ko‘zdan kechirishda, chot sohasiga chok qo‘yishda katnashadilar. -Shoshilinch operatsiyalarga bemorlarni tayyorlashni va operatsiyadan keyin bemorlarni parvarishlashni. o‘zlashtiradilar.	4	N.A 2/2	4
12	**Yo‘ldosh tug‘ilishi va kichik chilla davri patologiyasida feldsher - akusherning vazifalari va shoshilinch yordami ko‘rsatish.**	Tug‘ruqning III davri va chilla davri patologiyasi, ilk chilla davri patologiyasi va uni oldini olishda feldsher - akusherning taktikasi. Qon ketishiga qarshi kurash, qon ketishini to‘htagandan so‘ng o‘tkir qonsizlikka qarshi kurashish choralari haqida tushunchasiga ega bo‘ladilar. Bachadonni ichki-tashqi uqalash, qorin aortasini bosish, yo‘qotilgan qon miqdorini aniqlash, qovuqni kateterizatsiya qilish kabi muolaja texnikasini o‘zlashtiradilar. O‘quvchilar mavzu bo‘yicha tug‘ruq tarixini tahlil qiladilar. Xotin-qizlar maslahatxonalarida qon ketishga xavfi yuqori bo‘lgan guruhlar bilan ishlab, profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va patronaj ishlari bilan shug‘ullanishadi.	4	N.A 2/2	4

13	**Homilaning noto‘g‘ri vaziyati va unda feldsher - akusherning vazifalari.**	Homilaning noto‘g‘ri holatida joylashuvi. Homiladorlik va tug‘ruqni boshqarish. O‘tib ketgan ko‘ndalang holati. Homiladorlikning o‘tish xususiyatlari. Tug‘ruqni boshqarish rejasini tuzish. Homila chanog‘ining oldinda yotishi tushunchasiga ega bo‘ladilar. Homila chanog‘ining oldinda yotishida kelib chiqadigan asoratlar va ularni oldini olishni o‘zlashtiradilar. Dastlab o‘quvchilar homila holatini to‘g‘rilash uchun maxsus jismoniy mashqlar qoidalarini o‘rganadilar. Keyinchalik tug‘ruq majmuaida homilasi ko‘ndalang yoki qiyshiq joylashgan ayollarni ko‘zdan kechirishadi. O‘quvchilar tashqi akusherlik tekshiruvlarini o‘tkazib, homilani noto‘g‘ri vaziyatini aniqlaydilar.	4	N.A 2/2	4
13.1	**Tor chanoqlar va unda feldsher - akusherning vazifalari. .**	Chanoq nuqsonlari tushunchasi. Tor chanoqning kelib chiqish sabablari. Tor chanoqlarning tasnifi tushunchasiga ega bo‘ladilar. Tor chanoqli homiladorlarda homiladorlik va tug‘ruqni o‘tishini o‘zlashtiradilar. Akusherlik majmuasida tug‘uvchi ayollarning va homiladorlarning chanoqlarini o‘lchab, ularni baholaydilar. Vasten va Sangemeyster belgilarini aniqlashni o‘rganadilar.	4	N.A 2/2	4
14	**Terminal holatlarda shoshilinch yordam ko‘rsatish feldsher - akusherning taktikasi.**	Qon ketishiga qarshi tadbirlarni qo‘llashning ketma ketligi, gemorragik shok holati sabablari, unda yordam berish yo‘l – yo‘rig‘i, gipo- va atonik qon ketishiga qarshi chora tadbirlar, gemorragik shok (terminal) holati tushunchasiga ega bo‘ladilar. Qon ketishiga qarshi kurash, qon ketishini to‘htagandan so‘ng o‘tkir qonsizlikka qarshi kurashish choralarini o‘zlashtiradilar. O‘quvchilar bachadonni ichki-tashqi uqalash, qorin aortasini bosish bachadonni qisqartiruvchi dori vositalarni yuborish kabi muolaja texnikasini o‘zlashtiradilar. Xotin-qizlar maslahatxonalarida qon ketishga xavfi yuqori bo‘lgan guruhlar bilan ishlab, profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va patronaj ishlari bilan shug‘ullanishadi.	8	N.A 2/2	2
		Jami:	**108**	**108**	**60**

3.O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash

O‘kuv dasturi asosida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baxolanadi.

Baxolash usullari yozma, og‘zaki, savol javob, test hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga muofiq bulishi lozim.

4. Tavsiya etiladigan adabiyotlar va internet saytlari

Prezident asarlari

1.SHavkat Mirziyoev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent – “O‘zbekiston”-2018.

2.SHavkat Mirziyoev “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy baxodir” Toshkent – “O‘zbekiston”-2018.

3. SHavkat Mirziyoev “Erqin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”Toshkent – “O‘zbekiston”-2016.

4. SHavkat Mirziyoev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”Toshkent – “O‘zbekiston”-2017.

Asosiy adabiyotlar:

1. YA.N. Allayorov “Akusherlik” Toshkent, 2008.
2. M.F. Ziyaeva, G.Mavlonova “Ginekologiya” Toshkent, 2007.
3. V.I.Bodyajina “Akusherlik” Meditsina, 2000.
4. V.A.Zagrebina,A.M.Torchinov "Ginekologiya" Moskva 1991.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. A.A. Qodirova, M.X.Kattaxo‘jaeva “Akusherlik amaliyoti”,Toshkent, 2001
2. YA.N.Allayorov “Reproduktiv salomatlik va kontratseptiv texnologiya” Toshkent , “Istiqlol” nashriyoti 2005 yil.
3. YA.N.Allayorov, D.O‘. YUsupova, F.Q. Asqarova “Akusherlikdan amaliy ko‘nikma va muolajalar” Samarqand-2007 yil.
4. “Ko‘krak suti bilan boqish” (o‘quv qo‘llanma) Toshkent-2007 yil.(YUNISEF)
5. “Xavfsiz immunizatsiya” dasturi bo‘yicha pedagoglar va tibbiyot xodimlari uchun qo‘llanma. 2014 (YUNISEF)
6. “Sovershenstvovanie uslug oxranы materinstva i detstva v Uzbekistane” (YUNISEF)
7. “Effektivnqy perinatalnыy uxod. Akusherstvo(Integrirovannoe vedenie beremennosti i rodov)” 2014 (YUNISEF)
8. “Pomogaya materyam vыjit” Poslerodavые krovotecheniya. Rukovodstvo dlya medrabotnika. (YUNISEF)
9. “DOTS. Hamshira va feldsherlar uchun qo‘llanma” tibbiyot kollejlari talabalari uchun “Sil” mavzusi bo‘yicha metodik qo‘llanma. Toshkent-2005
10. “Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish” Abu Ali Ibn Sino nashriyoti, Toshkent-2003 yil.
11. “Qiz bolalarni o‘sishini baholash va kuzatish hamda ko‘rsatkichlarni bolaning rivojlanish tarixiga kiritish”. O‘quv kursi. Toshkent-2009
12. “Hammabop tibbiyot qo‘llanmasi” Toshkent-2006 yil.

16.Internet saytlari ro‘yxati:

- ziyonet.uz
- med.uz
- minzdrav.uz
- tma.uz
- tashpmi.uz

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG`LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

O`RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIMNING
5.71.01.01 - FELDSHER - AKUSHERLIK ISHI kasbi bo`yicha

GINEKOLOGIYA VA REPRODUKTIV SALOMATLIK

NAMUNAVIY O`QUV DASTURI

Kvalifikatsiya raqami va nomi:	5.71.01.01. Umumiy amaliyot feldsher – akusheri.
O`quv rejadagi tartib raqami:	3.13
Ajratilgan auditoriya soat:	54

Toshkent 2021 yil

O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy, o’rta maxsus va professional ta’lim yo’nalishlari bo’yicha o’quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil 18-noyabrdagi 8-son yig’ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2021-yil 23-noyabrdagi 500-son buyrug’i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.



Tuzuvchilar:

X. A. Usmonova	YUnusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi etakchi o`qituvchisi
A. K. To`xtaeva	YUnusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi etakchi o`qituvchisi

Taqrizchi:

N. A. Nurmatova	YUnusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi direktori, t.f.n.

1. O`quv dasturi umumiy talablari

O`quv dasturining nomi	Ginekologiya va reproduktiv salomatlik
Ajratilgan soat	**54**
Mavzular soni	**9**
Dasturning maqsadi	– Ginekologik yordam ko`rsatish muassasalari, kishloq vrachlik punktlari, oilaviy poliklinikalar, xotin-qizlar maslahatxonalarida ishlay oladigan yuqori malakali feldsher - akusher mutaxassislarni tayyorlash; – o`quvchilarning ginekologiya va reproduktiv salomatlikka oid bilimlarini tizimli umumlashtirish orqali sog`lom turmush tarzi kechirib, reproduktiv salomatlikni yaxshilash, jinsiy a'zolarda uchraydigan kasalliklar profilaktikasi to`g`risidagi nazariy bilimlarini takomillashtirish; – bilim va ko`nikmalarni mustahkamlash orqali ginekologiyadagi turli shoshilinch holatlarda tibbiy yordam ko`rsata olish malakalarini hosil qilish; – ginekologiyada kechiktirib bo`lmaydigan holatlarda shifokorgacha tez tibbiy yordam ko`rsatishni, mustaqil tashhis qo`yib, bemorga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko`rsatish ko`nikmalarini shakllantirish; – reproduktiv yoshdagi ayollar salomatligini muhofaza qilish va zamonaviy kontratseptiv vositalarni qo`llanishi bo`yicha tavsiyalar berishni va kasbi bo`yicha zarur bo`lgan malakaga erishish.
O`zlashtirish (o`qitish) natijalari	O`quvchilar: – ginekologik yordam ko`rsatish muassasalari, kishloq vrachlik punktlari, oilaviy poliklinikalar, xotin-qizlar maslahatxonalarida malakali feldsher – akusher sifatida ishlay oladilar; – ginekologiya va reproduktiv salomatlikka oid bilimlarini tizimli umumlashtirish orqali sog`lom turmush tarzi kechirib, reproduktiv salomatlikni yaxshilash, jinsiy a'zolarda uchraydigan kasalliklarni oldini olishdagi feldsherning vazifalari haqida bilib oladilar; – ginekologiyada kechiktirib bo`lmaydigan holatlarda shifokorgacha tez tibbiy yordam ko`rsatishn mustaqil tashhis qo`yib, bemorga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko`rsatish ko`nikmalarini mustaqil bajarv oladilar; – fanni boshqa tibbiyot fanlari bilan uzviy bog`lay oladilar.
Bilim	– Ginekologiya va reproduktiv salomatlik haqida tushuncha; – ginekologiyada etika va deontologiyaning o`ziga xosligi; – reproduktiv davrning o`ziga xos jismoniy, ruhiy va ijtimoiy xususiyatlari; – ginekologik patologiyalarning xususiyatlari va ularda ko`p kuzatiladigan kasalliklarda feldsherning vazifalari; – tekshiruvdan o`tayotgan va davolanayotgan ginekologik bemorlarni parvarish qilish xususiyatlari; – zamonaviy kontratseptiv vositalar va ularni qo`llanishi bo`yicha tavsiyalar berish; – o`tkir qorin sindromi vaqtida shoshilinch yordam ko`rsatish; – ginekologik patologiyalarda shoshilinch yordam ko`rsatish; – mustaqil tashhis qo`yib, bemorga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam

	ko`rsatish ko`nikmalariga ega bo`lish; – ginekologik kechiktirib bo`lmaydigan holatlarda tez tibbiy yordam ko`rsatish malakalariga ega bo`lish.
Ko`nikma	– Ishlatiladigan asbob-anjomlarni zararsizlantirish; – dezinfektsiyalovchi eritmalarni tayyorlash va qo`llash; – biksga asbob-anjomlarni joylash va sterillash; – tashqi jinsiy a'zolarni ko`zdan kechirish; – qin ko`zgulari yordamida va bimanual tekshiruvga bemorni tayyorlash; – reproduktiv yoshdagi ayollar bilan muloqot o`rnatish; – ginekologik bemorlarga buyurilgan muoljalarni o`tkazish; – ginekologik kasalliklarda ayollarni parvarish qilish; – ginekologik patologiyalarda shoshilinch yordam ko`rsatish; – reproduktiv yoshdagi ayollarni tekshirish va parvarish qilishda qatnashish; – tug`ish yoshidagi ayollarni sog`lomlashtirishda faol qatnashish; – zamonaviy kontratseptsiya usullari va ulardan foydalanish bo`yicha ayollarga tavsiyalar va maslahat berish.
O`quv rejaga muvofiq o`zaro bog`liq bo`lgan fan nomi	Lotin tili va tibbiy terminologiya, Anatomiya, Fiziologiya, Patologiya, Farmakologiya va retseptura asoslari, Hamshiralik ishi, Pediatriya, Terapiya, Jarrohlik, Reanimatsiya, Akusherlik
O`qitishning tashkiliy shakli	N – nazariy ta'lim; A – amaliy ta'lim; NA – birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg`ulotlar MX – maxsus xonalardagi mashg`ulot
Dasturga qo`yilgan talab	Majburiy
O`qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini baxolash	YOzma, og`zaki, savol-javob,munozara,test, vaziyatli masalalar echish, amaliy topshiriqni bajarish, ko`nikma va muolajalar bajarilish algoritmini namoyish etish

2. O`quv dasturi mazmuni

№	Mavzular nomi	Mavzuning qiskacha mazmuni	Jami	O`qitishning tashkiliy shakli	Mustakil ta'lim
1	**Ginekologiya faniga kirish va uning rivojlanish tarixi. Reproduktiv yoshdagi ayollar salomatligini muhofaza qilish**	Ginekologiya va reproduktiv salomatlik haqida tushuncha va ginekologiyaning rivojlanish tarixi. Ginekologiya va reproduktiv salomatlikka oid O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Vazirlar Maxkamasi Qarorlari va Sog`liqni saqlash vazirligining amaldagi buyruq va	2	N-2	

		uslubiy tavsiyanomalari. Ayol hayoti davrlari, reproduktiv davrining o`ziga xos xususiyatlari. Ginekologiyada talab etiladigan etika va deontologiya. Reproduktiv davr va reproduktiv salomatlik tamoyillari haqida tushuncha. Onalik yoshi, tug`ish oralig`ining mohiyati haqida tushuncha.			
2	**Ginekologik bemorlarni tekshirish usullari**	Ginekologik bemorlarni tekshirish usullari. Ginekologik bemorlarni tekshirishlarga tayyorlash. Qo`shimcha tekshirish usullarining turlari. Qiz bolalar ginekologik yordamning tashkil qilinishi. Amaliy mashg`ulot OSHning mahalla akusher-ginekologi xonasida, ginekologik klinikalarda, klinika oldi amaliyot xonasida o`tkazilishi mumkin. O`qituvchi o`quvchilarni bemorlarni tekshirish usullari bilan tanishtirib, qin ko`zgularidan foydalanib, bachadon bo`ynini tekshirishni, maxsus mulyajlar yordamida bimanul tekshirishni o`rgatadi.O`quvchilar bo`limlarda bemorlardan anamnez yig`ib, tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirishda hamshiralarga ko`maklashadilar.	6	N.A 2/4	4
3	**Hayz ko`rish faoliyatining buzilishi**	Hayz faoliyati buzilishi tasnifi. Hayz faoliyati buzilishining sabablari,klinik kechishi va davolash taktikasini. Funktsional-diagnostika testlari haqida tushuncha. Amaliy mashg`ulot QVP, QOP, OPlarning mahalla akusher-ginekologi xonasida, ginekologik klinikalarda, klinika oldi amaliyot xonasida o`tkazilishi mumkin. O`quvchilar vrach qabuliga kelgan ayollarni va ginekologiya bo`limida hayz ko`rish faoliyatining buzilishi tufayli davolanayotgan ayollarning kasallik tarixini klinik tahlil qiladilar, jumboqli masalalar echadilar. Bo`limlarda hamshiralarga bemorlarda funktsional-diagnostik testlarni o`tkazishga va davolashga yordam beradilar.	6	N.A 2/4	2
4	**Ayol jinsiy a’zolarining yallig`lanishkasalliklari.**	Ayol jinsiy a’zolarining yallig`lanish kasalliklari tasnifi. Kasallik qo`zg`atuvchilari, ularning jinsiy a’zolarga kirish (yuqish) yo`llari, hayotda uchrashi, sabablari, belgilari. Ekzogen va endogen infektsiya haqida tushuncha. YAllig`lanish kasalliklarini oldini olish. Amaliy mashg`ulot QVP, QOP, OPlarning mahalla akusher-ginekologi xonasida, ginekologik klinikalarda, klinika oldi amaliyot xonasida o`tkazilishi mumkin.	6	N.A 2/4	4

		O`qituvchi o`quvchilarga nospetsefik yallig`lanish kasalliklariga chalingan bemorlarni parvarishlash qilishda feldsher-akusherning vazifalari bilan tanishtiradi. O`quvchilar ginekologiya bo`limida navbatchi hamshiralarga bemorlarni parvarish qilishda, surtma olish, qin muolajalarini o`tkazishda ko`maklashadilar.			
5	**Jinsiy yo`l bilan yuqadigan kasalliklar**	Jinsiy yo`l bilan yuqadigan kasalliklar haqida tushuncha. JSSTni tasnifi bo`yicha asosiy turlarini. JYBYUK: OITS, xlamidioz, TSMV, o`tkir uchli kondiloma, so`zak, V gepatit, jinsiy uchuq, zahm, trixomoniaz va boshqalarning yuqish yo`llari, klinik belgilari, diagnostikasi va davosining zamonaviy usullari va profilaktik chora-tadbirlari. Amaliy mashg`ulot QVP, QOP, OPlarning mahalla akusher-ginekologi xonasida, ginekologik klinikalarda, klinika oldi amaliyot xonasida o`tkazilishi mumkin. O`qituvchi o`quvchilarga JYBYU kasalliklariga chalingan bemorlarni parvarishlash qilishda feldsher-akusherning vazifalari bilan tanishtiradi. Tanosil kasalligi aniqlangan bemorlarda feldsher-akusherning taktikasini qo`llashni o`rgatadi	6	N.A 2/4	2
6	**Ayol jinsiy a'zolarining o`sma kasalliklar**	Ayol jinsiy a'zolarining o`smasimon xosilalari va rak oldi kasalliklari haqida tushuncha va tasnifi. Xavfsiz va xavfli o`smalar haqida tushuncha. Bachadon miomalari, uning turlari, endometrioz. Bachadon bo`yni va tanasi raki haqida tushuncha, ularni oldini olish. Ko`krak bezi saratoni haqida tushuncha va uni oldini olish. Tuxumdon raki haqida tushuncha. Amaliy mashg`ulot QVP, QOP, OPlarning mahalla akusher-ginekologi xonasida, ginekologik klinikalarda, klinika oldi amaliyot xonasida o`tkazilishi mumkin. O`quvchilar xavfsiz va xavfli o`smalarga chalingan ayollarning kasallik tarixini klinik tahlil qilishadi. Bemorlarni parvarishlashda navbatchi hamshiralarga ko`maklashadilar	6	N.A 2/4	2
7	**Ginekologiyada o`tkir qorin sindromi**	Ginekologiyada o`tkir qorin sindromi sabablari, aniqlash va shifokorgacha tibbiy yordam ko`rsatish. Tuxumdon apopleksiyasida shifokorgacha tez tibbiy yordam ko`rsatish. O`tkir qorin sindromida ginekologik bemorni transportda jo`natishga doir ko`rsatmalar va moneliklar haqida tushuncha berish. Amaliy mashg`ulot QVP, QOP, OPlarning	6	N.A 2/4	4

		mahalla akusher-ginekologi xonasida, ginekologik klinikalarda, klinika oldi amaliyot xonasida o`tkazilishi mumkin. Bo`limlarda o`quvchilar bemor ko`rigida, bemorlarniparvarish qilishda ishtirok etishadi.			
8	**Bepushtlik.. Bepusht ayollarni tekshirish va davolashda feldsher-akusherning vazifalari.**	Bepushtlik va bepusht nikoh xaqida tushuncha, ayollar va erkaklar bepushtligining sabablarini, ayollarni tekshirish usullarini, davolashni va oldini olishda feldsher-akusherning vazifalari. Bepushtlikni zamonaviy davolash usullari: sun'iy urug`lantirish( EKO) insemenatsiya haqida tushuncha berish. Amaliy mashg`ulot QVP, QOP, OPlarning mahalla akusher-ginekologi xonasida, ginekologik klinikalarda, klinika oldi amaliyot xonasida o`tkazilishi mumkin. O`quvchilar ginekologiya bo`limida bepushtlik bo`yicha davolanayotgan bemorlardan anamnez yig`ishda qatnashadilar, bemorlarni tekshiruvga tayyorlashda, muolojalar o`tkazishda ko`maklashadilar**.** O`qituvchi o`quvchilarga bachadon naylarini o`tkazuvchanligini tekshirish uchun asbob-anjomlarni va bemorni tayerlashni o`rgatadi: pertubatsiya, gidrotubatsiya va gisterosalpingografiya.	6	N.A 4/4	4
9	**Klimakterik davr. Klimakterik sindromda feldsherning vazifalari.**	Klimakterik davr va uning bosqichlari. Klimakterik davrda ayol organizmida ro`y beradigan fiziologik o`zgarishlar. Klimakterik sindromda feldsher-akusherning vazifalari. Amaliy mashg`ulot QVP, QOP, OPlarning mahalla akusher-ginekologi xonasida, ginekologik klinikalarda, klinika oldi amaliyot xonasida o`tkazilishi mumkin. O`quvchilar klimakterik yoshdagi ayollarning ko`rigida ishtirok etib, klimakterik davrda shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilishning ahamiyatini tushuntirishni, klimakterik davrda ovqatlanish ratsionini tuzishni o`rganadilar. Sog`lom turmush tarzini kechirish bo`yicha tavsiyalar beradilar.	6	N.A 4/4	2
10	**Kontratseptsiya-ning zamonaviy usullari.**	Kontratseptiv vositalarhaqidaumumiytushunchaberish. Homiladorlikdan saqlanishning barcha usullarini ta'sir mexanizmi, samaradorlik va kamchiliklari. Amaliy mashg`ulot QVP, QOP, OPlarning mahalla akusher-ginekologi xonasida, ginekologik klinikalarda, klinika oldi	10	A-6	3

		amaliyot xonasida o`tkazilishi mumkin. O`quvchilao tug`ish yoshidagi ayollarni sog`lomlashtirish tadbirlarida faol katnashadilar: abortning zararli oqibatlari va bo`yida bo`lishning zamonaviy usullari haqida suhbatlar uyushtiradilar.			
		Jami:	**54**	**54**	**27**

3. O`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini baholash

O`quv dasturi asosida o`quvchilar tomonidan o`zlashtirilgan bilim va ko`nikmalar ichki nazorat bo`yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og`zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo`lib, ular o`quv elementini o`zlashtirish natijalarini aniqlashgaimkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo`yilgan maqsadga hamohang bo`lishi lozim.

4. Tavsiya etiladigan adabiyotlar va internet saytlari ro`yxati

Prezident asarlari

1.SHavkat Mirziyoev “Milliy taraqqiyot yo`limizni qat’iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko`taramiz” Toshkent – “O`zbekiston”-2018.

2.SHavkat Mirziyoev “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy baxodir” Toshkent – “O`zbekiston”-2018.

3. SHavkat Mirziyoev “Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”Toshkent – “O`zbekiston”-2016.

4. SHavkat Mirziyoev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak”Toshkent – “O`zbekiston”-201

Asosiy adabiyotlar:

5. M.A.Fozilbekova. X.S.Zaynitdinova. N.A.Nurmatova “Akusherlik va ginekologiyada hamshiralik ishi” Toshkent, 2007

6. M.F. Ziyaeva, G.Mavlonova “Ginekologiya” Toshkent, 2007.

7. YA.N.Allayorov “Reproduktiv salomatlik va kontratseptiv texnologiya” Toshkent , “Istiqlol” nashriyoti 2005 yil

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. YA.N. Allayorov.”Onalikda hamshiralik parvarishi” Toshkent 2012
2. Tursunov S.T., Nodirov T.S. “Sog`lom turmush tarzi”, Toshkent, 2006 yil.
3. Verner F.P. ”Hammabop tibbiyot qo`llanmasi” Toshkent, G`afur G`ulom nashriyoti, 2006 yil.

Internet manbalari:

www.medlook.ru
www.medbok.ru
www.medicum.ru
www.medtext.ru
www.medkniga.ru
www.cardioline.ru
www:http://buks.ru/book;
www.ziyonet.uz;
www.lex.uz;
www. cardiosite.ru;
www. cardiologia.ru;
www.bilim.uz;
www.gov.uz

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG`LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

O`RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIMNING
5.71.01.01 - FELDSHER - AKUSHERLIK ISHI kasbi bo`yicha

ASAB VA RUHIY KASALLIKLAR

NAMUNAVIY O`QUV DASTURI

Kvalifikatsiya raqami va nomi:	5.71.01.01. Umumiy amaliyot feldsher – akusheri.
O`quv rejadagi tartib raqami:	3.14
Ajratilgan auditoriya soat:	60

Toshkent 2021yil

O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy, o’rta maxsus va professional ta’lim yo’nalishlari bo’yicha o’quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil 18-noyabrdagi 8-son yig’ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2021-yil 23-noyabrdagi 500-son buyrug’i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.



Tuzuvchilar:

G. Sattieva — Andijon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi etakchi o`qituvchisi

Taqrizchi:

M. M. Buvabekov — Andijon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi direktori

1. O`quv dasturi umumiy talablari

Dastur nomi	**Asab va ruhiy kasalliklar**
Ajratilgan soat	**60**
Mavzular soni	**14**
Dasturning maqsadi	- Asab va ruhiy kasalliklari fanini o`qitishdan maqsad bo`lajak umumiy amaliyot feldsher-akusherda fanga oid nazariy bilimlar, amaliy ko`nikma va muolajalarni (kompetentsiyalar) shakllantirish; - olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo`llab bemorlarni tekshirish,kasalliklarni aniqlash, bemorlarni parvarish qilishda qo`llashni o`rgatish; - jahon talablariga mos keladigan etuk xodimlarni tayyorlash uchun mustakam zamin yaratish.
O`zlashtirish natijalari	Asab va ruhiy kasalliklarda kechiktirib bo`lmaydigan holatlarda tez tibbiy yordam ko`rsata oladigan, mustaqil tashxis qo`yib, bemor ahvolini to`g`ri baholaydigan, ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko`rsatish, shifokorgacha bo`lgan shoshilinch yordam tadbirlarini yuqori malakada ko`rsata oladigan, muolaja va ko`nikmalarni bajara oladigan har tomonlama etuk umumiy amaliyot feldsher-akusherini tayyorlash.
Bilimlar	***O`quvchi:*** – asab va ruhiy kasallikka chalingan bemorning extiyojlarini aniqlash, parvarish modellarini rejalash, zamonaviy parvarish modellarini yaratishni; – eng ko`p uchraydigan asab va ruhiy kasalliklar shakllariningoldini olish, hamda sog`lom turmush tarzining asoslarini; – asab va ruhiy kasalliklarda bemorning ahvolini baholash; – asab va ruhiy kasallik bilan kasallangan bemorni tekshiruvlarga tayyorlashni; – asab va ruhiy kasalliklarda uchraydigan kechiktirib bo`lmaydigan holatlarda tez tibbiy yordam ko`rsatishni; – kasallikning asorati qolgan bemorlarning ish qobiliyatini tiklashni – asab va ruhiy kasalliklar bilan kasallangan bemorlarning salomatligini baholash, bemorlarning mavjud muammosi, dolzarb muammosi, potentsial muammosi, bemorlarning extiyojlarini aniqlash tadbirlarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi lozim.***
Ko`nikmalar	– nevrologik bemorlarni qabul qilish; – nevrologik statusni tekshirish va baholash; – nevralgiyada o`tkaziladigan novokainli blokadaga kerakli jihozlarni va bemorlarni tayyorlash; – bemor umurtqasining bel-dumg`aza sohasini asbob uskunalar bilan tekshiruvga tayyorlash; – epidural anesteziya o`tkazish uchun kerakli bo`lgan asbob - anjomlarni tayyorlash va operatsiyadan keyingi parvarish qilish; – meningial belgilarni aniqlash (ensa rigidligi, Kernig simptomi, yuqori, o`rta va pastki Brudzinskiy simptomlari);

	– orqa miya suyuqligini olish uchun zarur bo`lgan ashyolarni va bemorlarni tayyorlash; – bolalarda talvasa sindromini oldini olish usullari; – komatoz holatda ko`rsatiladigan shoshilinch yordam; – bemorlarni qo`shimcha tekshirish usullariga tayyorlash; – bosh va orqa miya jarohatlarida bemorlarga birinchi yordam ko`rsatish; – chaqaloqlarda asab sistemasining holatini baholash; – Kvinke shishi, anafilaktik shokda shoshilinch yordam ko`rsatishni; – migren, simpato-adrenal va vago-insulyar hurujlarida yordam ko`rsatish; – zaharlanishda shoshilinch yordam ko`rsatishni va dezintoksikatsion davo o`tkazish; – ruhiy kasallik bilan og`rigan bemorlarni kuzatish va parvarishlash; – bemorlarni psixomotor qo`zg`alish paytida o`rindiqqa bog`lab qo`yish usullari; – ovqatni rad etgan bemorlarni ovqatlantirish; – insulin bilan davo o`tkazish uchun zarur ash'yolarni yig`ish va o`tkazish; – psixozlarda birinchi yordam ko`rsatish; – epilepsiya hurujlarida shoshilinch yordam ko`rsatish va parvarish qilishga doir ***amaliy ko`nikmalariga ega bo`lishi kerak.***
O`quv rejasiga muvofiq o`zaro bog`liq bo`lgan fan nomi	Anatomiya, Fiziologiya, Patologiya, Farmakologiya va retseptura asoslari, Tibbiy biologiya. Umumiy genetika, barcha klinik modullar
O`qitishning tashkiliy shakli	N – Nazariy ta'lim A – Amaliy ta'lim NA – birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg`ulotlar. MX – maxsus xonalarda mashg`ulot
Dasturga qo`yilgan talab	Majburiy
O`qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini baholash	YOzma, og`zaki, savol-javob, munozara, test, amaliy topshiriq.

2. O`quv dasturi mazmuni

№	Mavzular nomi	Mavzular qisqacha mazmuni	Jami	O`qitishning tashkiliy shakli	Mustaqil ta'lim
1.	Nevropatologiya va psixiatriyaning rivojlanish tarixi.	Nevropatologiya va psixiatriyaning rivojlanish tarixi. Bemorlarni bevosita va asbob-uskunalar yordamida tekshirish usullari	2	N-2	-
1.2	Asab kasalliklarini tekshirish, davolash va parvarish kilish printsiplari.	Asab kasalliklarini tekshirish, davolash va parvarish kilish printsiplari.	4	A-4	2
2.	Periferik nerv sistemasi kasalliklari.	Periferik nerv sistemasi kasalliklari.	5	N/A 1/4	2
3.	Markaziy nerv sistemasining yuqumli kasalliklari.	Markaziy nerv sistemasining yuqumli kasalliklari.	5	N/A 1/4	2
4.	Bosh va orka miyada kon aylanishining buzilishi.	Bosh va orka miyada kon aylanishining buzilishi.	6	N/A 2/4	2
5.	Markaziy nerv sistemasining o`smalari. Bosh miya abstsessi. Miyaning parazitar kasalliklari. Markaziy nerv sistemasining shikastlari.	Markaziy nerv sistemasining o`smalari. Bosh miya abstsessi. Miyaning parazitar kasalliklari. Markaziy nerv sistemasining shikastlari.	6	N/A 2/4	2
6.	Nerv sistemasining irsiy degenerativ va zo`rayib boradigan surunkali kasalliklari. CHaqaloqlar nerv sistemasi kasalliklari.	Nerv sistemasining irsiy degenerativ va zo`rayib boradigan surunkali kasalliklari. CHaqaloqlar nerv sistemasi kasalliklari.	6	N/A 2/4	2
7	Vegetativ nerv sistemasi kasalliklari. Nerv sistemasining kasbga aloqador ba'zi kasalliklari va zaharlanish hollari.	Vegetativ nerv sistemasi kasalliklari. Nerv sistemasining kasbga aloqador ba'zi kasalliklari va zaharlanish hollari.	4	N/A 2/2	4
8.	Umumiy psixopatologiya va ruxiy kasalliklarni tekshirish usullari.	Umumiy psixopatologiya va ruxiy kasalliklarni tekshirish usullari.	2	A-2	2
9.	Psixonevrologik	Psixonevrologik yordamni tashkil etishning	2	A-2	-

	yordamni tashkil etishning asosiy masalalari. Kasalxona va psixonevrologik dispanserda ruhiy kasalliklarni tekshirish usullari. Ichki va yuqumli kasalliklarda uchraydigan ruhiy o`zgarishlar. Tug`ruqdan keyingi psixozlar.	asosiy masalalari. Kasalxona va psixonevrologik dispanserda ruhiy kasalliklarni tekshirish usullari. Ichki va yuqumli kasalliklarda uchraydigan ruhiy o`zgarishlar. Tug`ruqdan keyingi psixozlar.			
10.	SHizofreniya. Maniakal – depressiv psixoz.	SHizofreniya. Maniakal – depressiv psixoz.	6	N/A 2/4	2
11.	Alkogolizm, alkogol psixozlari. Dori-darmonlar psixozlari. Tamaki chekish.	Alkogolizm, alkogol psixozlari. Dori-darmonlar psixozlari. Tamaki chekish.	6	N/A 2/4	2
12.	Bosh miya qon tomirlari aterosklerozi. Qarilik oldi va qarilik psixozlari.	Bosh miya qon tomirlari aterosklerozi. Qarilik oldi va qarilik psixozlari.	5	N/A 1/4	2
13.	Epilepsiya. Bosh miya jarohatlarida uchraydigan ruhiy o`zgarishlar.	Epilepsiya. Bosh miya jarohatlarida uchraydigan ruhiy o`zgarishlar.	3	N/A 1/2	2
14.	Psixogeniyalar. Nevrozlar.Reaktiv psixozlar. Psixopatiya. YAtrogeniyalar.	Psixogeniyalar. Nevrozlar.Reaktiv psixozlar. Psixopatiya. YAtrogeniyalar.	2	A-2	2
	Jami		**60**	**20/40**	**30**

3. O`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini baholash

O`quv dasturi asosida o`quvchilar tomonidan o`zlashtirilgan bilim va ko`nikmalar ichki nazorat bo`yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og`zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo`lib, ular o`quv elementini o`zlashtirish natijalarini aniqlashgaimkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo`yilgan maqsadga hamohang bo`lishi lozim.

4. Tavsiya etiladigan adabiyotlar va internet saytlari ro`yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Ergasheva V.SH. “Ovqatlanish gigienasi” o`quv uslubiy qo`llanma. Toshkent. “Top Image Media” bosmaxonasi 2017 il

2. M.A.Azizov “Umumiy gigiena va ekologiya” Toshkent “CHo`lpon” nashriyoti 2014 yil

3. M.R.Tilovov, S.O.Turdiev, A.M.Bozorov “Ovqatlanish gigienasi” Toshkent, “Ilm Ziyo” nashriyoti, 2007 yil

4. S.S.Esonturdiev, M.E.Qarshiboeva “Gigiena va sanitariya tekshirishlar texnikasi” “Ilm-ziyo” nashriyoti, 2007 yil

5. A.Nikbaev “Jamiyat sog`liqni saqlash va tibbiyot statistikasi” Toshkent “Ilm -Ziyo” nashriyoti 2005 yil.
6. G.I.SHayxova “Ovqatlanish gigienasi” Toshkent . “YAngi asr avlodi” nashriyoti 2011 yil
7. M.A.Azizov, S.S.Solixo`jaev, SH.Q. Qambarova “Gigiena“ Toshkent, “O`qituvchi” nashriyoti 2003 y
8. 8.S.T.Tursunov, T.S.Nodirov “Sog`lom turmush tarzi”. Toshkent, “Ijod dunyosi” nashriyoti, 2003 yil
9. F.YOrmatov va boshqalar “Mehnatni muhofaza qilish” Toshkent, 2002 yil.
10. YA.L.Marxotskiy “Gigiena pitaniya” Moskva 2009 yil
11. A.N. Bolshakov “Obshaya gigiena” Ukraina 1996 yil

Qo`shimcha adabiyotlar

10. Duschanov B., YUsupova O., Nuralieva S., Aminov U. “Radiatsion va harbiy gigiena”. Darslik. – Toshkent., YAngi asr avlodi. - 2008.
11. Ponomareva L.A., Inogamova V.V., Salomova F.I. “Radiatsionnaya gigiena” o`quv qo`llanma. Toshkent. RIO –TMA. 2014.
12. Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to`g`risida Qonuni, T. 2015y.
13. Melnichenko P.I., Arxangelskiy V.I., Kozlova T.A. va b. “Gigiena s osnovami ekologii cheloveka”, Uchebnik. Moskva. GEOTAR –Media. 2010g., 752 s.
14. Rumyantsev G.I., Proxorov N.I., Novikov S.M. va b. “Gigiena” Uchebnik dlya vuzov, Moskva. GEOTAR-Media. 2009g. 608s.
15. Bolshakov A.M.“Общaya gigiena” Moskva. GEOTAR-Media. 2009g.
16. Kicha D. I., Drojjina N. A., Fomina A. V. “Общaya gigiena rukovodstvo k laboratornыm zanyatiyam”. Moskva. GEOTAR-Media, 2010. - 288 s.
17. Kamilova R.T. Bolalar va o`smirlarning jismoniy rivojlanishini baholash uchun regressiya shkalasi. Toshkent., 1998y.
18. Kamilova R.T. Bolalar va o`smirlarning jismoniy rivojlanishini baholash uchun tsentil shkalasi. Toshkent., 1998y.

Internet saytlari:

20. https://www.gov.uz/uz
21. https://lex.uz/
22. https://www.minzdrav.uz/
23. http://www.ziyonet.uz/
24. www.tma.uz
25. http://medlib.ru

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG`LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

O`RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIMNING
5.71.01.01 - FELDSHER - AKUSHERLIK ISHI kasbi bo`yicha

NARKOLOGIYA

NAMUNAVIY O`QUV DASTURI

Kvalifikatsiya raqami va nomi:	5.71.01.01. Umumiy amaliyot feldsher – akusheri.
O`quv rejadagi tartib raqami:	3.15
Ajratilgan auditoriya soat:	36

Toshkent 2021 yil

O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy, o’rta maxsus va professional ta’lim yo’nalishlari bo’yicha o’quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil 18-noyabrdagi 8-son yig’ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2021-yil 23-noyabrdagi 500-son buyrug’i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.



Tuzuvchilar:
G. Sattieva — Andijon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi etakchi o`qituvchisi

Taqrizchi:
M. M. Buvabekov — Andijon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi direktori

Fan mavzulari bo`yicha o`qitish rejasi tarkibi

№	Fanning bo`limlari va mavzular nomi	Hammasi	Jami	Umumiy yuklama, soat		
				Darslar turi buyicha soatlar taqsimoti (auditoriya yuklamasi)		Mustaqil ish
				Nazariy	Amaliy	
1	Narkologiya fanining rivojlanish tarixi. Narkologiya predmeti va vazifalari	6	6	2	4	4
2	Axoliga narkologik yordamni tashkil kilishning asosiy tamoyillari	6	6	2	4	2
3	Giyohvandlik va uning turlari	6	6	2	4	4
4	Toksikomaniya va uni keltirib chiqaruvchi moddalar	6	6	2	4	4
5	KVP/OP sharoitida narkologik kasalliklar buyicha profilaktik chora-tadbirlari	6	6	2	4	2
6	Psixoaktiv moddalarni qabul qilish natijasidagi psixik va hulq-atvor buzilishlar.	6	6	2	4	2
	Jami:	**36**	**36**	**12**	**24**	**18**

5. Asosiy va qo`shimcha o`quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Prezident asarlari

1.SHavkat Mirziyoev “Milliy taraqqiyot yo`limizni qat’iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko`taramiz” Toshkent – “O`zbekiston”-2018.

2.SHavkat Mirziyoev “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy baxodir” Toshkent – “O`zbekiston”-2018.

3. SHavkat Mirziyoev “Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”Toshkent – “O`zbekiston”-2016.

4. SHavkat Mirziyoev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak”Toshkent – “O`zbekiston”-201

Asosiy adabiyotlar

1. Abdullaeva V.K., SHaripova F.K., Babaraximova S.B., Iskandarova J.M. Xususiy psixiatriya. O`quv qo`llanma. – Toshkent. Navro`z. 2015 y.

2. Xodjaeva N.I., SHoyusupova A.U. Psixiatriya: tibbiyot institutlari talabalari uchun. Darslik. – Toshkent. Mehridaryo. 2011 y.

3. Agranovskiy M.L. Общaya psixologiya i psixopatologiya. Uchebnoe posobie. – Andijan. OAO ANDIJON NASHRIYOTI. 2010 y.

Qo`shimcha adabiyotlar

1. Ashurov Z.SH., Teshabaeva G.D. Psixotrop dori vositalarning psixiatriya va narkologiyada qo`llanilishi. O`quv qo`llanma. – Toshkent. Fan va texnologiya. 2015 y.

2. Donald W. Black, Nancy C. Andreasen. Introductory textbook of psychiatry. — Sixth edition.American Psychiatric Publishing. 2014 g.

3. Neznanov N.G. Psixiatriya. Uchebnik. – Moskva. GEOTAR-Media.2010 g.

4. Agranovskiy M.L. CHastnaya psixologiya i psixopatologiya. Uchebnoe posobie. – Andijan. OAO ANDIJON NASHRIYOT– MATBAA. 2007 y.
5. Samoxvalov B.N. Psixiatriya. Uchebnik. – Moskva. Praktika.2007 g.
6. Korkina M.V., Lakosina N.D., Lichko A.E., Sergeev I.I. Psixiatriya. Uchebnik. – Moskva. MEDpress–inform.2006 g.
7. Jarikov N.M., Tyulpin YU.G. Psixiatriya. Uchebnik. – Moskva. Meditsina. 2002 g.
8. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik– har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak. 2017 y, 104 bet, O`zbekiston matbuot va axborot agentligining "O'zbekiston" nashriyot matbaa ijodiy uyi.
9. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizning mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 y, 488 bet, O`zbekiston matbuot va axborot agentligining "O'zbekiston" nashriyot matbaa ijodiy uyi.
10. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. 2016 y, 56 bet, O`zbekiston matbuot va axborot agentligining "O'zbekiston" nashriyot matbaa ijodiy uyi.

Internet saytlari

1.www. ziyonet.uz;
2.www. lex.uz;
3.www.bilim.uz.
4.www. s–psy.ru
5.www. psychiatry.ru,
6.www. medlibrary. ru
7.www. medline. ru
8.www. med.ru

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG`LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

O`RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIMNING
5.71.01.01 - FELDSHER - AKUSHERLIK ISHI kasbi bo`yicha

TERI VA TANOSIL KASALLIKLARI

NAMUNAVIY O`QUV DASTURI

Kvalifikatsiya raqami va nomi:	5.71.01.01. Umumiy amaliyot feldsher – akusheri.
O`quv rejadagi tartib raqami:	3.16
Ajratilgan auditoriya soat:	54

Toshkent 2021 yil

O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy, o’rta maxsus va professional ta’lim yo’nalishlari bo’yicha o’quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil 18-noyabrdagi 8-son yig’ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2021-yil 23-noyabrdagi 500-son buyrug’i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.



.

Tuzuvchilar:

A. Sh. Ashirova — Yunusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi etakchi o`qituvchisi

S. B. Bairova — Yunusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi etakchi o`qituvchisi

Taqrizchi:

N. A. Nurmatova — Yunusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi direkori

1. O`quv dasturi umumiy talablari

Dastur nomi	**Teri va tanosil kasalliklari**
Ajratilgan soat	**54**
Mavzular soni	**7**
Dasturning maqsadi	Teri va tanosil kasalliklari fanini nazariy va amaliy mavzularga oid kasalliklarni har tomonlama o`rganish va tahlil qilish bilim va ko`nikmalarini egallash.
O`zlashtirish (o`qitish) natijalari	1. Teri va tanosil kasalliklari fanidan nazariy va amaliy bilim va ko`nikmalarni shakllantirish 2. Teri va tanosil kasalliklarning xususiyatlarini, etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari va davolash xususiyatlarini o`rganadi. 3. Aholi o`rtasida teri va tanosil kasalliklarning patronaji va profilaktikasini o`rganadi.
Bilimlar	– Teri va tanosil kasalliklari haqida tushuncha. – Teri va tanosil kasalliklarini sabablari, klinik belgilari, davosi va oldini olish. – Teri kasalliklari bilan og`rigan bemorlarda parvarishi xususiyatlari. – Terining parazitar kasalliklari. – Terining allergik kasalliklari. – Etiologiyasi etarli aniqlanmagan teri kasalliklari. – Terining yiringli kasalliklari. – Terining zamburug`li kasalliklari. – Terining virusli kasalliklari. – Tanosil kasalliklari.
Ko`nikmalar	– Teri kasalliklari bilan og`rigan bemorlardan anamnez yig`ish va kasallik sababini aniqlash – Teriga baho berish – Terida dermografizm o`tkazish – Qo`tir kasalligida malxam so`rtish texnikasi – Allergiyada terining sezuvchanligini aniqlash – Psoriaz uchlik belgisini aniqlashni – Uekxim to`ri belgisini aniqlashni – Streptodermiya va stafilodermiya toshmalarini ajratishni – Baltsir sinamasini o`tkazishni – Zararlangan, teri va tirnoq, sochdan tekshirish uchun material olish – Mollyusk tanachalarini ajratib olishni – So`zak kasalligida ikki stakanli sinama o`tkazishni
O`quv rejasiga muvofiq o`zaro bog`lik bo`lgan fanning nomi	Lotin tili va tibbiy terminologiya, Anatomiya, fiziologiya va patologiya, Hamshiralik ishi, Terapiya, Farmakologiya va retseptura, YUqumli kasalliklar, Pediatriya
O`qitishning tashkiliy shakli	N – nazariy ta’lim; A – amaliy ta’lim; NA – birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg`ulotlar MX – maxsus xonalardagi mashg`ulot
Dasturga qo`yilgan talab	Majburiy

O`qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini baholash	YOzma, og`zaki, savol-javob,munozara,test, vaziyatli masalalar echish, amaliy topshiriqni bajarish, ko`nikma va muolajalar bajarilish algoritmini namoyish etish

2. O`quv dasturi mazmuni

№	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	jami	O`qitishning tashkiliy shakli	Mustaqil ta'lim
1	**Teri va tanosil kasalliklari fani haqida tushuncha. Teri va tanosil kasalliklari xususiyatlari.**	Teri va tanosil kasalliklari fani haqida tushuncha. Fanning maqsadi va asosiy vazifalari. Klinik fanlar bilan bog`lanishi. Terining tuzilishi va uning vazifalari. Teri kasalliklarini kelib chiqish sabablari.Terining morfologik elementlari va ularning turlari. Umumiy va mahalliy davolash usullari haqida tushuncha. Teri gigienasi va parvarishi. Bolalar va keksalar terisining o`ziga xos xususiyatlari.	2	2 N	
2	**Terining parazitar va allergik kasalliklari.**	Qo`tir va pedikulyoz kasalliklarini sabablari, epidemiologiyasi, yuqish yo`llari, klinikasi, davolash usullari va kasallikni oldini olish chora-tadbirlarini o`tkazish. Qo`tir va pedikulyoz kasalliklarini keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish, kasallikni davolash usullari, oldini olish. Allergik dermatitlarni keltirib chiqaruvchi sabablar va ularning turlari. Allergik toshma turlarini aniqlash va ularni bir-biridan ajratish. Teri allergik kasalliklarini umumiy va mahalliy davolash usullari, allergik dermatit va ekzemada qondagi o`zgarishlarni aniqlash. Tahlil natijalarini o`qish. Dermatit, toksikodermiya, ekzema kasalliklari tekshirish usullri, klinikasi, davosi, asoratlari va ularni oldini olish. Kechiktirib bo`lmaydigan allergik holatlar haqida tushuncha.	4	2/2 NA	4

3	**Etiologiyasi etarli aniqlanmagan teri kasalliklari.**	Etiologiyasi etarli aniqlanmagan teri kasalliklarini kelib chiqish sabablari, turlari, klinik belgilari, mavsumiyligi va asoratlari. Qiyosiy tashhis o`tkazish, laborator tekshiruv usullari natijasini tahlil qilish. Kasallikni davolash va asoratlarni oldini olish. Psariaz uchlik belgisini aniqlashni. Qizil yassi temiratki kasalligida Uikxem to`ri belgisini aniqlash, zararlangan o`choqlarga anestetiklar yuborish. YAdasson sinamasini qo`yish. Pes (vitiligo) kasalligida yangi zamonaviy davolash usullarini qo`llash.	8	4/4 NA	3
5	**Terining yiringli kasalliklari.**	- Terining yiringli kasalliklarini keltirib chiqaruvchi omillar, klassifikatsiyasi, klinik belgilari, laborator tekshiruv natijalarini tahlil qilish.Terining yiringli kasalliklari asosiy morfologik elementlarini ajratish va davolash usullari. Streptodermiya va stafilodermiya toshmalarini ajratishni Terining yiringli kasalliklarida qiyosiy tashhis o`tkazish. Kasallikni asoratlarini va ularni oldini olish chora–tadbirlari. Terining yiringli kasalliklarini umumiy, mahalliy va spetsifik davolash usullari. Vaktsinalarni yuborish.	10	6/4 NA	3
6	**Terining zamburug`li kasalliklari.**	Zamburug`li kasalliklarni keltirib chiqaruvchi omillar va ularni qo`zg`atuvchi zamburug` turlari. Kasalliklarni yuqish yo`llari va tarqalishi. Kasalliklarni qiyosiy tashxisi. Zamburug`li kasalliklar diagnostikasida zamonaviy laboratoriya usullari, Baltsir sinamasini o`tkazishni,zararlangan teri va tirnoq, sochdan tekshirish uchun material olish kasalliklarni davolash usullari. Zamburug`li kasalliklar profilaktikasi. Keratomikozvadermatomikoz turlari klinik belgilari, kechishi, asoratlari va ularni oldini olish. Zamburug`li kasalliklar diagnostikasida zamonaviy laboratoriya usullarini qo`llash. Umumiy davo usullari. Zamburug`li kasalliklarni davolashda fungitsid va mikoseptik vositalaridan foydalanish. Kasallik aniqlangandan so`ng tibbiy xabarnoma to`ldirish.	10	6/4 NA	3

7	**Terining virusli kasalliklari.**	Terini virusli kasalliklarini keltirib chiqaruvchi sabablar, ularni qo`zg`atuvchisi va turlari. So`gal turlarini ajratish. Bog`cha va maktab yoshidagi bolalarda mollyusklarni tarqalishni oldini olish. Virusli kasalliklarni mexanik usulda va kreoterapiya yo`li bilan davolash va profilaktik chora-tadbirlarni o`tkazish.	10	6/4 NA	3
8	**Tanosil kasalliklari. OIV infektsiyasida teri kasallik-larining kechishi.**	Zaxmning kelib chiqish sabablari va uning qo`zg`atuvchisi haqida ma'lumot. Zaxmning davrlari va undagi klinik belgilari, toshma turlari. Kasallikni qiyosiy tashxisi. Homila zaxmi va uning asoratlari. Laborator tekshiruv usullari. Kasallikka moyil guruhlarni aniqlash.So`zak kasalligini kelib chiqish sabablari, qo`zg`atuvchisi, yuqish yo`llari, turlari. Erkaklar, ayollar, qiz bolalar va chaqaloqlarning so`zagi, klinik belgilari, tashhisotida ikki stakanli sinama o`tkazish va asoratlari. Kasallikning umumiy, mahalliy va spetsifik davosi**.** Tanosil kasalliklarining xususiyatlari. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 23 avgustdagi "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko`rikdan o`tkazish to`g`risida" 365 – sonli Qarori mazmuni bilan tanishtirish. OIV va OITS ha qida tushuncha.OIV infektsiyasini yuqish yo`llari va klinik belgilari. O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni Saqlash Vazirligining 2015 yil 25 martdagi "O`zbekiston Respublikasida OITS kasalligi bilan kurashish va uning oldini olish choralari to`g`risida" 123 – sonli buyrug`i mazmuni bilan tanishtirish. OITS markazlari, laboratoriyalari va ularning ish faoliyati hakida ma'lumot. Zaxm kasalligida birlamchi va ikkilamchi davrdagi toshmalar xarakterini aniqlash. Uchlamchi zaxm klinik belgilari va asoratlari. Erta va kech tug`ma zaxmda bolalar organizmdagi o`zgarishlar va klinik belgilar. So`zakning inkubatsion davri, klinik belgilari va asoratlari. Erkaklar so`zagida ikki stakanli sinama o`tkazish. Laborator tekshiruvi uchun jinsiy a'zolardan surtma olish va material tayyorlash. Laborator tekshiruviga asoslanib tashxis qo`yish. Kasallikni davolashni zamonaviy usullaridan foydalanish. Immunologik va serologik (IFA) tekshiruvga qon olish. Tibbiy asboblarni sterilizatsiya qilish.	10	6/4 NA	4

		Bir marotaba ishlatiladigan tibbiy asboblardan foydalanish va ularni yo`q qilish. YUNISEF “Oila va mahallada salomatlik amaliyotini takomillashtirish bo`yicha qo`llanma” 29-maslahat bilan tanishish. Tanosil kasalliklari bilan og`rigan bemorni ijtimoiy qo`llab quvvatlash va sanitar-targ`ibot ishlarini olib borish.			
		Jami	**54**	**26/28**	**27**

3. O`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini baholash

O`quv dasturi asosida o`quvchilar tomonidan o`zlashtirilgan bilim va ko`nikmalar ichki nazorat bo`yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og`zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo`lib, ular o`quv elementini o`zlashtirish natijalarini aniqlashgaimkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo`yilgan maqsadga hamohang bo`lishi lozim.

4. Tavsiya etiladigan adabiyotlar va internet saytlari ro`yxati

Prezident asarlari:

1. SHavkat Mirziyoev «Milliy taraqqiyot yo`limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz” Toshkent – “O`zbekiston” 2018.
2. SHavkat Mirziyoev «Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir” Toshkent – “O`zbekiston” 2018.
3. SHavkat Mirziyoev «Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” Toshkent – “O`zbekiston” 2016.
4. SHavkat Mirziyoev «Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak” Toshkent – “O`zbekiston” 2017.

Asosiy adabiyotlar

1. L.YU. YUsupova, H.S. Burixodjaeva “Kattalarda hamshiralik parvarishi” III qism, Toshkent “Fan va texnologiya” nashriyoti-2014 yil
2. E.H.Eshboev, YA.M.Fayziev. «Teri va tanosil kasalliklari» Toshkent, 2007yil.
3. M.R.Tilavov, S.T.Tursunov. «Teri va tanosil kasalliklari» Toshkent, 2004 yil.

Qo`shimcha adabiyotlar

1. L.A.Хмыз. «Kojnые i venericheskie bolezni» Praktikum. Rostov-na-Donu «Feniks» 2007 yil.
2. A.Voisov. «Teri va tanosil kasalliklari.» Toshkent, 2004 yil.
3. «Bemorlarni uyda va shifoxonada parvarish qilish» Toshkent, Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003 yil.
4. N.S.Ismoilova, F.Z.Alimova. «Teri-tanosil kasalliklari» fanidan atlas. Toshkent, «SHarq» nashriyoti, 2004 yil.
5. N.N.Vladimirov.A.V.Vyazmitina. «Sestirinskoe delo v dermatovenerologii» Rostov-na-Donu «Feniks» 2002 god.
6. YUNISEF “Oila va mahallada salomatlik amaliyotini takomillashtirish bo`yicha qo`llanma” 2012 yil.

Internet saytlari:

- www.med.uz,
- www.google.uz,
- www.lex.uz,
- www.wikipedia.uz

- www.medicum.ru
- www.medtext.ru
- www.medkniga.ru
- www.ziyonet.uz;
- www.bilim.uz;

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG`LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

O`RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIMNING
5.71.01.01 - FELDSHER - AKUSHERLIK ISHI kasbi bo`yicha

YUQUMLI KASALLIKLAR VA INFEKTSION NAZORAT

NAMUNAVIY O`QUV DASTURI

Kvalifikatsiya raqami va nomi:	5.71.01.01. Umumiy amaliyot feldsher – akusheri.
O`quv rejadagi tartib raqami:	3.17
Ajratilgan auditoriya soat:	108

Toshkent 2021 yil

O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy, o’rta maxsus va professional ta’lim yo’nalishlari bo’yicha o’quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil 18-noyabrdagi 8-son yig’ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2021-yil 23-noyabrdagi 500-son buyrug’i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.



Tuzuvchilar:

G. Sattieva — Andijon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumining o`qituvchisi

Z. X. Zakirova — YUnusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi bosh o`qituvchisi

Taqrizchi:

M. M. Buvabekov — Andijon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi direkori

1. O`quv dasturi umumiy talablari

Dastur nomi	**Yuqumli kasalliklar va infektsion nazorat**
Ajratilgan soat	**108**
Mavzular soni	**18**
Dasturning maqsadi	YUqumli kasalliklar va infektsion nazorat fanini nazariy va amaliy mavzularga oid kasalliklarni har tomonlama o`rganish va tahlil qilish bilim va ko`nikmalarini egallash.
O`zlashtirish (o`qitish) natijalari	1. YUqumli kasalliklar va infektsion nazorat fanidan nazariy va amaliy bilim va ko`nikmalarni shakllantirish 2. YUqumli kasalliklarni kelib chiqish sabablari va aholi o`rtasida tarqalishini oldini olish 3. YUqumli kasalliklarini etiologiyasi va epidemiologiyasi, asosiy klinik belgilari , davolash usullari va asoratlari, laborator tekshirish usullari, kasallikni oldini olish, o`choqlarda o`tkaziladigan chora-tadbirlarni o`rganadi. 4. Kasalliklarni boshqa davlatlardan kelishini oldini olish va infektsiya o`chog`ida epidemiyaga qarshi o`tkaziladigan chora-tadbirlarni o`rganadi 5. Sanitariya Nazorat Punktining (SNP) ishini o`rganadi.
Bilimlar	– YUqumli kasalliklar tashxisoti. YUqumli kasalliklarning tasnifi, tashxislash, qiyosiy tashxislash, davolash va profilaktika tadbirlari. – YUqumli kasalliklar shifoxonasining tuzilishi va ish tartibi. – YUqumli kasalliklar bilan og`rigan bemorlarni parvarishlash, davolash asoslari. – Ich terlama. Paratif A va V. – Salmonellyoz. Esherixioz. Botulizm. – Vabo. Dizenteriya. – Virusli gepatitlar. – Amyobiaz. Lyamblioz. Toksoplazmoz. – Askaridoz. Gimenolepidoz. Teniorinxoz. Exinokokkoz. – Gripp. Adenovirusli infektsiya. koronaverus. – Meningokokkli infektsiya. – Gemorragik isitmalar. – Bezgak. Leyshmanioz. – OIV infektsiya. – Qoqshol. Quturish. – Brutsellyoz. Leptospiroz. – O`lat. Tulyaremiya – Kuydirgi – Profilaktika tushunchasi. Bexatar immunizatsiya. – Profilaktik emlash jadvali bilan ishlash, emlashni tashkil etish, emlashdan keyingi bemor nazorati – Parenteral yo`llar bilan tarqaladigan kasalliklar, hamda shifoxona ichi infektsiyalarining epidemik jarayoni xususiyatlari, ekologik halokatlar va ekstremal vaziyatlarda organizmdagi patologik holatlarni o`ziga xosligi.
Ko`nikmalar	– Epidemiologik anamnez yig`ish, tahlil qilish. – Qabul bo`limida bemorlarni qabul qilish. – Bemorlarni qisman va to`liq sanitariya tozalovidan

	o`tkazish. – SHoshilinch xabarnomani to`ldirish. – Bemordan qon, peshob, najas, qusuq massalarini, o`t suyuqligini laboratoriya tekshiruvlariga olish va yo`llanmalarni rasmiylashtirish. – Bemor va asboblarni laborator tekshiruvlarga tayyorlash. – O`ta xavfli infektsiyalarda materiallar yig`ish, yo`llanma yozish va ularni laboratoriyaga yuborish. – Tekshirish natijalarini tahlil etish. – Bemorning buyum va ajratmalarini dezinfektsiya qilish. – Infektsiya o`chog`ida epidemiyaga qarshi chora tadbirlar olib borish. – Aholi o`rtasida yuqumli kasalliklarning profilaktikasi bo`yicha tushuntirish ishlarini olib borish Sog`liqni saqlash vazirligining buyruqlari asosida – Profilaktik emlashlar o`tkazish – Gospitalizatsiya uchun ko`rsatmalarni aniqlash va uni bemor ahvoliga binoan tashkil etish – Profilaktik va joriy dezinfektsiya o`tkazish; – Sterilizatsiya tartibi; – Dezinfektsiya va sterilizatsiyada qo`llaniladigan vositalardan foydalanish; – Immunoprofilaktika vositalarini qo`llanilishini, ularning yaroqliligini aniqlash; – YUqumli kasalliklar profilaktikasi bo`yicha sanitariya targ`ibot ishlarini olib borish.
O`quv rejasiga muvofiq o`zaro bog`lik bo`lgan fanning nomi	YUqumli kasalliklar, Terapiya, Hamshiralik Ishi, Teri va tanosil kasalliklari, Anatomiya, Mikrobiologiya, Farmakologiya va retseptura, Pediatriya
O`qitishning tashkiliy shakli	N – nazariy ta’lim; A – amaliy ta’lim; NA – birgalikda tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg`ulotlar MX – maxsus xonalardagi mashg`ulot
Dasturga qo`yilgan talab	Majburiy
O`qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini baholash	YOzma, og`zaki, savol-javob,munozara,test, vaziyatli masalalar echish, amaliy topshiriqni bajarish, ko`nikma va muolajalar bajarilish algoritmini namoyish etish

2. O`quv dasturi mazmuni

№	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O`qitishning tashkiliy shakli	Mustaqil ta'lim
1.	YUqumli kasalliklar haqida tushuncha va ularning kelib chiqish tarixi. Infektsion jarayon haqida tushuncha. YUqumli kasalliklar tasnifi va tashxisot usullari	YUqumli kasalliklar fanining hozirgi davridagi tutgan o`rni. YUqumli kasalliklarni kelib chiqish sabablari. YUqumli kasalliklar fanining maqsad va vazifalari. O`rta Osiyoda yuqumli kasalliklarni o`rgangan olimlar. Aholi o`rtasida yuqumli kasalliklarni oldini olish chora-tadbirlari. Infektsion jarayonning rivojlanishi. YUqumli kasalliklarning o`ziga xosxususiyatlari, bosqichlari. YUqumli kasalliklarning tasnifi. "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasining qonuni	2	N 2	
2	YUqumli kasalliklar shifoxonasi va poliklinikadagi yuqumli kasalliklar xonasining tuzilishi va ularning ish tartibi.	YUqumli kasalliklar shifoxonasi bilan tanishish. Bokslar bilan tanishish. Bemorlarni sanitariya tozalovidan o`tkazish. SHifoxonaning ish tartibi. Bemorlarni bo`limlarga transportirovka qilish. Bemorning kiyimlari va tagliklarini almashtirish va parvarishlash usullari.Parxez stollarining turlari, bemorlarni turli usullarda ovqatlantirish. "SHoshilinch xabarnoma" 058-shaklni to`ldirish. Tibbiy xodimlarning kun tartibi. YUqumli bo`limlarning epidemiyaga qarshi sanitariya tartibi. Poliklinikadagi yuqumli kasalliklar xonasining maqsad va vazifalari, tuzilishi. Bemorlarni qabul qilish va tibbiy xujjatlarni rasmiylashtirish. Laborator tekshirish usullari. YUqumli kasalliklar va emlash xonalaridagi emlash uchun ishlatiladigan preparatlarning yaroqligini aniqlash Tibbiy xujjatlarni rasmiylashtirish va to`ldirish. 63 va 112-shakllar bilan ishlash. Profilaktik emlash. Emlash uchun qo`llaniladigan vaktsinalar, ularni saklashda va tashishda "uzluksiz sovuqlik zanjirining" ahamiyati. Emlash kalendari. Emlash xonalaridagi emlash uchun ishlatiladigan preparatlarning yaroqligini aniqlash, ularni qo`llash, "brokeraj" kilish.	4	A 4	2

		Maxsus profilaktika ishlarini rejalashtirish va o`tkazish qoidalari. Tibbiy xujjatlarni rasmiylashtirish va to`ldirish.			
3	**Ichak infektsiyalari.** Dizenteriya. Salmonellyoz.	Kasallik haqida tushuncha. Ichak infektsiyalari kasalliklarining qo`zg`atuvchilari, rivojlanish mexanizmi. YUqish yo`li. Tasnifi. Asosiy klinik ko`rinishi, asoratlari. Toksikoz va eksikoz haqida tushuncha. Bemorlarni ko`zdan kechirish. Parhez ovqatlantirish. Bakteriologik va serologik tekshirish usullarining ahamiyati. Kasallikni oldini olish. Profilaktik chora-tadbirlar o`tkazish. Kasalliklarni oldini olishda sanitariya-maorif ishlarining ahamiyati.O`zbekistonRespublikasi hududida salmonellyoz va o`tkir ichak infektsiya kasalliklarini oldini olish to`g`risida amaldagi buyruqlari. Epidemiologik anamnez yig`ish. Kasallikning asosiy klinik belgilarini o`rganish. Bemor holatiga baho berish.Bemorni ko`zdan kechirish. Bakteriologik ekmaga va umumiy tahlilga najas olish. Qonni serologik tekshirishga olish. Olingan materiallarni laboratoriyaga jo`natish. Tahlil natijalarini o`qish. Og`iz orqali suyuqlik ichirish. Bemorni ovkatlantirish, parxez stolini qo`llash va parvarish qilish. SHoshilinch xabarnoma to`ldirish. Infektsiya o`chog`ida joriy va yakuniy dezinfektsiya ishlarini olib borish. Sanitariya–maorif ishlarini olib borish.	10	NA 6/4	2
4	**Ichak infektsiyalari**. Botulizm, ovqat toksikoinfektsiyasi.	Kasallik haqida tushuncha. Ichak infektsiyalari kasalliklarining qo`zg`atuvchilari, rivojlanish mexanizmi. YUqish yo`li. Tasnifi. Asosiy klinik ko`rinishi, asoratlari. Toksikoz va eksikoz haqida tushuncha. Bemorlarni ko`zdan kechirish. Parhez ovqatlantirish. Bakteriologik va serologik tekshirish usullarining ahamiyati. Kasallikni oldini olish. Profilaktik chora-tadbirlar o`tkazish. Kasalliklarni oldini olishda sanitariya-maorif ishlarining ahamiyati.O`zbekiston Respublikasi hududida salmonellyoz va o`tkir ichak infektsiya kasalliklarini oldini olish to`g`risida amaldagi buyruqlari. Epidemiologik anamnez yig`ish. Kasallikning asosiy klinik belgilarini o`rganish. Bemor holatiga baho berish.Bemorni ko`zdan kechirish. Bakteriologik ekmaga va umumiy tahlilga najas olish. Qonni serologik tekshirishga olish. Olingan materiallarni laboratoriyaga jo`natish. Tahlil natijalarini o`qish. Bemorni ovkatlantirish, parxez stolini qo`llash va parvarish qilish. Tozalovchi, sifonli va	10	N A 6/4	4

		davolovchi huqnalar qo`yish. Bemorlarni davolash. Bezredko usulida zardob yuborish texnikasi. SHoshilinch xabarnoma to`ldirish. Infektsiya o`chog`ida joriy va yakuniy dezinfektsiya ishlarini olib borish. Sanitariya–maorif ishlarini olib borish.			
5	**Ichak infektsiyalari**. Vabo kasalligi	Vaboning epidemiya va pandemiya holati. Etiologiyasi, epidemiologik jarayoni. Vaboning klinik ko`rinishlari. Laborator tekshirish uchun materiallar olish. Sog`ayganlarni shifoxonadan chiqarish. Kasallikni oldini olish. Sanitariya-maorif ishlari. CHet davlatlardan infektsiya kirishini oldini olish. Himoya kiyimlarini qo`llash shartligi.Infektsiya o`chog`ida joriy va yakuniy zararsizlantirish o`tkazish. Sog`ayganlarni shifoxonadan chiqarish qoidalari. Aholi o`rtasida sanitariya–maorif ishlarini o`tkazish. O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni saqlash vazirliginingamaldagi buyruqlari. Bemorlarning shikoyati va epidemiologik anamnez yig`ish. Bemorlarni ko`zdan kechirish. Venaga tomchi usulida dori vositalarini yuborish. Laboratoriya tekshiruviga analiz materiallarini olish. Najasni 30-shaklga tekshirish. Himoya kiyimlarini kiyish va echish qoidalari. Kasallik o`chog`ida joriy va yakuniy dezinfektsiya ishlarini o`tkazish.	6	NA 2/4	2
6	**Ichak infektsiyalari.** Ichterlama. Paratif A va V kasalliklari	Kasallik haqida tushuncha. Epidemiologik anamnez yig`ish. YUqish mexanizmi. Klinik xususiyatlari, asoratlari. Bakteriologik va serologik tekshirish usullarining ahamiyati. Ich terlama va paratif A va V kasalliklarini farqlash. Kasallikni oldini olish, infektsiya o`chog`ida o`tkaziladigan tadbirlarni rejalashtirish. O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni saqlash vazirligining amaldagi buyruqlari. Klinik va epidemiologik anamnez yig`ish. Bemorlardan bakteriologik va serologik tekshirishlar uchun material yig`ish. Ich terlama o`chog`ida kasallikka qarshi tadbirlar rejasini tuzish. Aholi o`rtasida sanitariya–maorif ishlarini tashkil qilish.	6	NA 2/4	4
3	**Hind-Tibet tabobati tabiblarining nazariy bilimlari va falsafiy fikrlari.**	Hind-Tibet tabobatida "CHjud-SHi" ta'limoti va tabiiy fanlar. Bemorlarni shaxsiy xususiyatlari va tashxislashda "Xayvonlar astrologik kalendari"ni o`rni to`g`risida ma'lumot berish Hind-Tibet tabobatidagi nazariy bilimlar, davolash yo`llari va falsafiy kontseptsiyalarni yoritib berish "CHjud-SHi", "Ayur-Veda" va boshqa qadimiy tibbiy kitoblarda keltirilgan 1000 dan oshiq dorivor o`simliklar, xamda davolash vosita va usullari xaqida talabalarga ma'lumot etkazish.	4	N A	2
4	**Qadimgi SHarq tibbiyoti tizimini shakllanishida Qadimgi Misr va Old Osiyo falsafiy ta'limoti o`rni.**	Qadimgi Misr, SHumer, Bobil va Assiriya davlatlari tabobat bilimlarini va Oldosiyoliklar tabobati xaqida talabalarda tassavur shakllantirish, Uruk va Borsippa shaxridagi qadimiy Eduba va boshqa maktab tabiblari merosini o`rganib chiqish Avesto kitobi unda keltirilgan unsurlar ta'rifi, inson organizmidagi ko`rinmas energiya oqimlari va boshqa tibbiy tushunchalar va ularni o`rgangan tabiblar xaqida ma'lumotlar to`plash, Dorivor o`simliklar, xashorot va xayvon maxsulotlaridan tayyorlangan dorivor vositalar vositalar bilan talabalarni tanishtirish	4	N A	3
5	**Ibn Sino xayoti, tibbiyotga bo`lgan falsafiy yondashuvi.**	IbnSinoxayoti, uningfalsafavatibbiyotgabag`ishlanganboymerosibilantalabalarnitanishtirish Atom nazariyasi, bo`shliq xaqidagi nazariyasi. Salomatlik holati, salomatlikni saqlash yo`llari, kasallik xaqida. Kasalliklar infektsion tabatga ekanligi va yuqumliligi xaqida. Mizoj xaqida.	6	NA	2
6	**Koreys ana'naviy tabobatining falsafiy ta'limoti.**	"Ibanyuchi" (Tibbiy retseptlar to`plami), "Xyanyakchipsongbang" " (Qishloq joylaridagi dori vositalari to`plami), "Donguybogam" (SHarq tabobatining mo`jizaviy ko`zgusi) nomli qadimiy Koreys xalqi kitoblarida keltirilgan falsafiy va tibbiy bilimlarni o`ranib chiqish.	6	N A	3
7	**Qadimgi SHarq tabobatining yozma manba'lari O`rta Osiyo allomalari va ularning tabobat**	SHarq mamlakatlaridagi insonni bir butunlik va uni a'zo va tizimlarga ajratmaslik o`ziga xos tashxislash usullarini kelib chiqishiga sabab bo`ldi. Inson kayfiyati va ruxiyati ma'lum bir kasalliklarga moillikka olib keladi. Pulsga qrab tashxislash. Pulsni soni, to`liqligi, zarbi, kuchi,	6	A	4

	soxasidagi falsafiy asarlari	ritmi va boshqa xususiyatlariga ko`ra turlarga bo`linishi. Organizmdagi energiya oqimi va energetik kanallardagi o`zgarishlarning tashxis qo`yishda ahamiyati Qadimgi SHarq mamlakatlarida kasalliklarni davolashda diniy qarashlarning ahamiyati. Inson tabiat bilan uzviy bog`liqligini anglashi va tabiiy usullarni kasalliklarni davolashda keng qo`llanilishi. Uqalash, jismoniy mashqlar, o`simliklardan tayyorlangan surtmalar surtish. SHifobaxsh o`simliklarni turli shakllarda qo`llash(ichga, tindirma, qaynatma, surtma, malham, ingalyatsiya, tutunini xidlash va b.qalar). Tanadagi og`riqli nuqtalarga bosish, akupunktura va akupressuraning paydo bo`lishi. Farobiy xayoti va falsafa ilmiga qo`shgan xissasi. Farobiy tibbiyotga qo`shgan xissasi. Beruniy xayoti va falsafa ilmiga qo`shgan xissasi. «Qobusnoma» asari. Farmakognoziya asoslarini o`rgatishga qo`shgan xissasi. YAxshi tabib bo`lish o`simliklarni yaxshi bilishdan, ularni xususiyatlarini eslab qolishdan boshlanadi			
8	**In-YAn va Besh unsur ta'limoti xaqida–bilimlarni zamonaviy sharxi.**	Qadimgi sharq falsafasiga ko`ra In-YAn qarama qarshilik va uyg`unlikni bildiruvchi xamda u-sin kontseptsiyasiga muvofiq, dunyodagi barcha hodisalarning besh asosiy elementi (daraxt, olov, er, metall, suv) haqida – butun moddiy dunyoning dastlabki asosi degan tasavvurni talabalarga tushintirib berish. Qadimgi SHarq mamlakatlarida paydo bo`lgan In-YAn va besh element nazariyasi boshlang`ich qarashlari. Xozirgi paytda ushbu nazariyani tashxislash va davolashda qo`llanilishi va o`rni. Zamonaviy sharq tibbiyotida energiyalar balansi va a'zolarning bog`liqligini anglatuvchi besh element nazariyasiga asoslangan tashxislash usullarining dolzarbligi. Energetik tashxislash, meredian tashxislash.	4	A	2
Jami			**36**	**N A**	**18**

3. O`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini baholash

O`quv dasturi asosida o`quvchilar tomonidan o`zlashtirilgan bilim va ko`nikmalar ichki nazorat bo`yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og`zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo`lib, ular o`quv elementini o`zlashtirish natijalarini aniqlashgaimkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo`yilgan maqsadga hamohang bo`lishi lozim.

4. Tavsiya etiladigan adabiyotlar va internet saytlari ro`yxati

Prezident asarlari

1.SHavkat Mirziyoev "Milliy taraqqiyot yo`limizni qat'iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko`taramiz" Toshkent – "O`zbekiston"-2018.

2.SHavkat Mirziyoev “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy baxodir” Toshkent – “O`zbekiston”-2018.

3. SHavkat Mirziyoev “Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”Toshkent – “O`zbekiston”-2016.

4. SHavkat Mirziyoev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak”Toshkent – “O`zbekiston”-201

Asosiy adabiyotlar

1. Abu Ali Ibn Sino, “Tib qonunlari”, 1-,2-,3- jildlar, Toshkent 1993.

2. Ibn Sino. Kanon vrachebnoy nauki: v 10t.-T., 1996-2013.

3. Klaus K. SHnorrenberger Uchebnik kitayskoy meditsinы dlya zapadnых vrachey, Moskva, 2007g.

4. Ibn Sino, izbrannые filosofskie proizvedeniya. Moskva,1980.

5. K.Selchonok. “Taynы Vostochnoy meditsinы”.Moskva 1994.

Qo`shimcha adabiyotlar

1. X.N. Qayumov., YOng Il Song.,Z.I.Tuksanova. Ignaterapiya, Buxoro-2019

2. I.I. Sokolov, V.V. Stepanov Narodnaya meditsina- nauka i traditsionnые znaniya., Sank Peterburg 2001

3. Markova A.V. Polnaya entsiklopediya narodnoy meditsinы.

4. SHi Sin In. Dragotsennые jemchujinы Kitayskogo TSigun. Neoglori,2006

5. S.YA. Sokolov. Fitoterapiya, fitofarmokologiya.

6. Saveliy Kashnitskiy. Jemchujinы Vostochnoy meditsinы.izdatelstvo AST-2018

7. Sa’dullox Kamollidin ug`li “Tibbi Nabaviy” Toshkent, ToshIUV, 2014.

8. SHukur Irgashev “Tabiatning o`zi tabib” Toshkent, “Ibn Sino”, 2013.

9. Abdulaziz Saidnuriddin “Uzbek xalq tabobati ugitlari”, Toshkent, “Fan”, 2007.

10. SHtefan Palosh «Kitayskoe iskusstvo tselitelstva. Istoriya i praktika vrachevaniya ot drevnosti do nashix dney». Izd-vo: TSentrpoligraf, 2003g.

11. Jaklin YAng «Sekretы vostochnoy meditsinы». Izd-vo: Kontent, 2007g., 177s.

12. Ping-Chung Leung (Editor), Charlie Chang-li Xue (Editor) Chinese Medicine: Modern Practice (Annals of Traditional Chinese Medicine) World Scientific Pub Co Inc (February 28, 2005), 236 pages

13. Liang Liu Essentials of Chinese Medicine Springer, 2011, 1546 pages

14. Li B.N.Folk medicine Tashkent 2012

15. Lewis W.H. Medical Plants Affecting man’s healts. New York 2007. 16. Brian W.U. Watson A.S. «Acupucture» Canada 2011.

17. Yo.Sang «Acu Pro» Wonju City. Republic of Korea 2013.

18. Moraes R.M., Briitti O.R. «Herbal medicine» London 2012.

Internet saytlari

1. www.minzdrav.uz;

2. www.tma. uz

3. www.kunpendeler.ru

4. www.acpunctur.ru

5. www.igli.ru

6. www.doktor.ru

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG`LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

O`RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIMNING
5.71.01.01 - FELDSHER - AKUSHERLIK ISHI kasbi bo`yicha

BITIRUV OLDI AMALIYOTI

NAMUNAVIY O`QUV DASTURI

Kvalifikatsiya raqami va nomi:	5.71.01.01. Umumiy amaliyot feldsher – akusheri.
O`quv rejadagi tartib raqami:	3.28
Ajratilgan auditoriya soat:	288

Toshkent 2021 yil

O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy, o’rta maxsus va professional ta’lim yo’nalishlari bo’yicha o’quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil 18-noyabrdagi 8-son yig’ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2021-yil 23-noyabrdagi 500-son buyrug’i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.



Tuzuvchilar:

N. A. Nurmatova — YUnusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi direktori

Z. X. Zakirova — YUnusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi bosh o`qituvchisi

Taqrizchilar:

M. M. Buvabekov — Andijon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi direktori

**O. A. Ro`ziboev** — Samarqand Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi o`quv ishlari bo`yicha direktor o`rinbosari

D. T. Mamadjanova — Andijon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi o`quv ishlari bo`yicha direktor o`rinbosari

1. O`quv dasturi umumiy talablari

Dastur nomi	**Bitiruv oldi amaliyoti**
Ajratilgan soat	**288**
Mavzular soni	**4**
Dasturning maqsadi	O`quv jarayoni davrida nazariy va amaliy darslardan olingan bilimlarni amaliyot negizidagi davolash profilaktika muassasalarida o`tkaziladigan malakaviy va bitiruv oldi amaliyotida mustaxkamlash va qo`llash ko`zda tutilgan. Amaliyot natijasida o`quvchilar mutaxassis sifatida ishlash ko`nikmasiga ega bo`ladilar. .
O`zlashtirish (o`qitish) natijalari	1. Professional ta'lim o`qitish bosqichlarida o`zlashtirgan amaliy ko`nikmalarini: bemor parvarishi, tashxisoti, davolash va yordam ko`rsatishni takomillashtiradi va viloyat, shahar, tuman miqyosidagi shifoxona, ambulatoriya – poliklinika, tug`ruq kompleksi shifokorlari xizmatining tashkiliy ishlari va sharoitlari bilan tanishadi 2. Amaliyot natijasida o`quvchilar mutaxassis sifatida ishlash ko`nikmasiga ega bo`lishadi.
Bilimlar	– Sog`likni saqlash tizimini xususiyati va vazifalarini poliklinikada, mahallada (qishloq shifokorlik punkti, shahar shifokorlik punkti), oilaviy shifoxonada, mahallada (qishloq vrachlik punkti)ida faoliyat mazmunini va feldsherning o`rnini o`rganish; – insonga, oilaga va jamoada yashovchi bir guruh insonlarga qaratilgan hamshiralik jarayonini yuritish; – hamshira faoliyat olib boradigan joylarida, jamoada ish yurituvchi hamshirani faoliyatini o`rganish. – Akusher-ginekolog qabulida ishtirok etish. Ayollarda tekshiruv usullarini bilish. – Homiladorlikning dastlabki muddatlarini aniqlash. Patronaj ishlarini o`tkazish. – Venadan qon olish. SHifokor ko`rsatmalarini bajarish. – Qin vannasini o`tkazish, tampon qo`yish. – Tug`uvchi ayolni parvarish qilish. Dard kuchini, ular orasidagi pauzani, maromini aniqlash. – Homilaning yurak urishini sanash. SHifokor buyurgan muolajalarini o`z vaqtida bajarish. – Infuzion sistemani tayyorlash. Mushak orasi va vena ichiga in'ektsiya qilish. – Tug`uvchi ayolni tug`ruq xonasiga o`tkazish. – Me'yoriy ovqatlanish miqdorini tuzish. – Jinsiy a'zolarni o`z holiga kelishi holatini, loxiyalar xarakterini kuzatish. – Tug`ruqdan keyingi gimnastika mashqlarini o`tkazish. – CHaqaloqlarni parvarish qilish va ovqatlantirish. CHaqaloqni emizishga tayyorlash. – CHaqaloqlarni cho`miltirish. CHaqaloqlarga birlamchi va ikkilamchi ishlovlarini berish. Kasal chaqaloqni sog`lom chaqaloqlardan izolyatsiyalash. – Ayollarni ginekologik tekshiruvlarga tayyorlash. Tekshiruvlar uchun asbob-uskunalarni tayyorlash.

	– Ginekologik kasalliklarda shoshilinch yordam ko`rsatish. – Gistologik tekshirishlarga olingan materiallarni saqlash va laboratoriyaga jo`natish. – Hamshira rahbarligida bolalarni parvarish qilishda ishtirok etish. – Ona va oila a'zolari bilan muloqotda bo`lish. Bolalarning o`sish va rivojlanish jarayonini tahlil qilish. Profilaktik emlashda ishtirok etish va o`tkazish – CHaqaloqlarni ovqatlantirish va parvarishlash. CHala tug`ilgan chaqaloqlarni parvarishini tuzilgan reja asosida amalga oshirish va kundalik ko`rsatiladigan parvarishni baholash, unga o`zgartirish kiritish..
Ko`nikmalar	– SHifokor bemorni ko`zdan kechirishda qatnashish; – shifokor tomonidan parvarish va muolajalar bo`yicha ko`rsatmalarni olish; – kasallik tarixiga tekshirish natijalarini o`z vaqtida kiritish; – me'dani zondlash va yuvish – meda zondini zararsizlantirish; – hamma xo`qna turlarni o`tkazishni va ho`qna jihozlarni zararsizlantirish; – siydik qopiga yumshok kateter qo`yishni va kateterni zararsizlantirish; – xantalva kompress qo`yish; – shifokor ko`rsatmalari bo`yicha dori yuborish; – allergik holatlar, gipertermiya , gipertonik kriz,astma xurujida, stenokardiya xuruji, miokard infaktida, kardiogenshokda , yurak astmasida, o`pka shishida, hushdan ketishda, kollapsda, buyrak va jigar sanchiqlarida, me'da va ichak yarasidan qon ketish holatlari dashoshilinch yordam ko`rsatish; – funktsional sinamalarni o`tkazish; – laborator tahlil uchun og`iz va burun bo`shlig`idan surtma olish; – puls, nafas olish sonini va qon bosimini o`lchashni hamda kasallik tarixigaqaydqilish; – EKG tekshiruvini o`tkazish; – entsefalogramma, ultratovush tashxis o`tkazishda qatnashish; – qonni biokimyoviy va bakteriologik tekshiruvga olish; – bemorlarni kiyimi va o`rin – oqliklarining tozaligini kuzatish; – bemor terisini har kuni parvarish qilish va yotok yaralarnioldini olish; – og`ir yotgan bemorlarning og`iz bo`shlig`ini parvarish qilish; – bemorlarni ovqatlantirish; – kislorod yostig`ini to`ldirish va ishlatish; – bo`limdagi palatalar, kabinetlar, yuvinish va hojatxonalar ozodaligini nazorat qilish; – bo`limda san-epid.tartibinikuzatish; – shifokor ko`rsatmalarini to`g`ri bajarish; – yangi kelgan bemor bolaning onasini bo`lim tartibi bilan tanishtirish; – parhez hamshirasiga taomnoma tuzish va etkazish; – bemorda antropometriya o`tkazish; – tana haroratini o`lchashni va harorat varaqasiga belgilash;

	– pulsni o`lchashni va harorat varaqasiga belgilash; – nafas olish sonini o`lchashni va harorat varaqasiga belgilash; – bolalarni cho`miltirish va ovqatlantirish; – kiyim bosh va to`shaklarni almashtirish; – me'yoriy ovqatlantirish rejasini tuzish; – dori-darmonlarn itarqatishni va bemor bolalarga ichirish – t/o, t/o, m/o, v/i dori yuborish; – dori moddalarini yuborishdan avval allergik sinama qo`yish; – halqum va burundan surtma olish; – og`iz bo`shlig`ini artish; – bemor bolani rentgenologik va laborator tekshirishga tayyorlash; – go`dak bolalardan siydik olish; – shoshilinch hollarda (gipertermiya, talvasa, – laringospazm, o`tkir –qon tomir etishmovchiligi, qusganda, toksikozda va eksikozda) yordam ko`rsatish; – bemo rbolalarni sayr qildirish; – tug`uvchiayolniumumiytekshirish; – Tashqi akusherlik tekshiruvini o`tkazish; – qin orqali tekshirish; – qog`onoq pufagini yorish; – tug`ruq faoliyatini boshqarish; – tug`ruqni og`riqsizlantirish; – homila gipoksiyasi profilaktikasini o`tkazish; – tug`uvchi ayolni tug`ruqqa tayyorlash; – doyaga tug`ruqni qabul qilishda yordamlashish; – chaqaloqning dastlabki tualetini o`tkazish; – yo`qotilgan qon miqdorini aniqlash; – ko`krak uchi yorilganda va mastitda sut bezlarini parvarish qilish; – ginekologik bemorlarda qin muolajalarini o`tkazish; – gestozning og`ir hollarida shoshilinch yordam; – qon ketganda shoshilinch yordam; – tug`ruqqa zarur asbob-anjomlar to`plamini hozirlash va cterillashda ishtirok etish; – mastit holatiga hamshiralik jarayonini tuzishi va hamshira yozuviini to`ldirish
O`quv rejasiga muvofiq o`zaro bog`lik bo`lgan fanning nomi	Barcha klinik modullar
O`qitishning tashkiliy shakli	N – nazariy ta'lim A – amaliy ta'lim
Dasturga qo`yilgan talab	Majburiy
O`qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini baholash	YOzma, og`zaki, savol javob, munozara, test.

2. Dasturi mazmuni

№	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	Soatlar soni	Mustaqil ta'lim
		Bitiruv oldi amaliyoti	**432**	**288**	**144**
1	Davolash profilaktika muassasi feldsher-akusher yordamchisi	Davolash profilaktika muassasalarida amaliyot olib boriladi. Amaliyot bilan tanishuv: tibbiy xujjatlar, asbob-anjomlar, hamshiraning individual himoya kiyimi, tez yordam ko`rsatishda ishlatiladigan dori-darmonlar, bemorlarni kasalxonaga yotqizish va laborator analizlarni qayd qilish jurnallari, transportirovka qilish qoidalari bilan tanishish. **K**asallik tarixini pasport qismini to`ldirish.Ko`rsatmalar varaqasi bilan tanishuv; Hamshiralik yozuvlarini yuritishni; Yo`llanma varaqasini to`ldirishni (qon, siydik, axlat, balg`am).Bemorlar dispanserizatsiya varaqasi bilan tanishuv; SHoshilinch xabarnoma varaqasini to`ldirishni; Amaliy mashg`ulot oilaviy poliklinikalarda, ayollar maslahatxonalarida va klinika oldi amaliyot xonalarida o`tkaziladi. O`quvchilar bemorlarni va homiladorlarni qabul qilish hamda hisobga olish va kuzatishda ishtirok etadilar. Patronaj qilish va dispanser nazoratga olishni o`rganadilar. O`zb Res SSV 25. 12. 2017yil №777 sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan 025-raqamli tibbiy hujjat-ambulator tibbiy karta.O`zb Res SSV 25. 12. 2017yil №777 sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan 111-raqamli tibbiy hujjat- homilador va tuqqan ayolning shaxsiy varaqasi tibbiy hujjatlarni yuritishni o`rganadilar. .	**122**	**72**	**50**
2	Poliklinika, QVPlarda feldsher-akusher yordamchisi	O`quvchilar oilaviy poliklinika, yurgiziladigan hujjatlari bilan tanishtiriladi, punktdagi feldsher va doya bilan birgalikda bemorlarni, homilador ayollarni, sog`lom va bemor bolalarni qabul qiladilar, profilaktik ishlarni o`tkazadilar, yuqumli kasalliklar bilan og`rigan bemorlarni aniqlaydilar, infektsiya o`chog`ida zarur chora –tadbirlarni o`tkazadilar. Sanitariya maorif ishlarini olib boradilar. SHu profilaktik davolash muassasasida SSVning Bemolarda antropometrik ko`rsatkichlarni aniqlashda ishtirok etadilar. Bemorlarga kasallik tarixining pasport qismini to`ldirishni va qayd qilish daftariga belgilashni o`rganadilar, bemolarni vannada yoki dushda yuvintirishda ishtirok etadilar.Bitlagan bemorlarni sanitariya tozalovidan o`tkazishni o`rganadilar.	**86**	**56**	**30**

		Epidemiyaga qarshi qo`llaniladigan buyruqlar bilan tanishish. SANpin 03.42.17. va SANpin 03.72. 20.buyrugi bilan tanishish			
3	Tug`ruqning kechishi, klinikasi va uni boshqarishda feldsher-akusher yordamchisi	Amaliy mashg`ulot tug`ruq majmuaining tug`ruq blokida o`tkaziladi.Tug`ruq majmuaida o`quvchilar homilador va tug`uvchi ayolni qabul qilishni, tug`ruq tarixining pasport qismini to`ldirish va qabul qilinganligi haqida daftarga qayd etishni o`rganadilar. O`quvchilar tug`ruqning birinchi davrida arterial qon bosimini o`lchashadi, pulsni sanashadi, homilaning yurak urishi eshitib ko`rishadi va tug`ruq faoliyatiga baho beradilar. Tug`ruqning ikkinchi davrida tug`ruqni boshqarish va qabul qilishda akusherkalarga yordam berishadi. Issiqlik zanjirini saqlashda va bolani birlamchi artib-tozalashda ishtirok etishadi. YAngi tug`ilgan chaqaloqning umumiy holati Apgar shkalasi bo`yicha baholashni o`rganadilar. O`quvchilar tug`ruqning uchinchi davrida AQB o`lchash, pulsni sanash, platsenta ajralganligi belgilarini aniqlashda, tug`ilgan plantsentaning butunligini tekshirishda, tug`ruqda yo`qotilgan qon miqdorini aniqlashda qatnashadilar. Mashg`ulot tug`ruq majmuada chilla davri bo`limida o`tkaziladi: o`quvchilar chilla davri bo`limi, palatalarning tartib-qoidalari bilan tanishadilar. Tuqqan ayolarni parvarishlashda qatnashadilar. Ko`krakni ketma ket tutishni ahamiyati to`g`risida suhbatlar o`tkazishadi. SHifokor tomonidan o`tkaziladigan tekshiruvda ishtirok etishadi, ko`rsatmalarni yozib borishadi, tuqqan ayollarni ko`rikdan o`tkazishadi, shifokor ko`rsatmasini bo`lim akusheri bilan birgalikda bajarishadi. Sut bezlarini parvarish qilish, sutni sog`ib olishni o`rganishadi. Ko`krak uchi yoriqlarini va mastitni davolashda hamda chilla davri gimnastikasini o`tkazishda ishtirok etishadi. O`quvchilar chilla davri bo`limidagi tuqkan ayollar bilan «tug`ruqdan so`nggi davr gigienasi», «sut bezlarini parvarish qilish» mavzularida suhbatlar o`tkazishadi. Mashg`ulot septik kasalliklarini davolashga ixtisoslashtirilgan alohida maxsus palatalarida o`tkaziladi. O`qituvchi o`quvchilarga umumiy parvarish va maxsus bokslarning ish qoidalari bilan tanishtiradi. Bunda asosiy e'tiborni tug`ruq majmuai sharoitida chilla davri kasalliklari, profilaktikasi, tug`ruq majmuai sanitariya tartibini bajarishga qaratish lozimgini uqtiradi.	**112**	**80**	**32**
4	Tibbiy tez yordam muassasida feldsher-akusher yordamchisi.	Tez tibbiy yordam bo`limlarida feldsher –akusher yordamchisi bo`lib ishlashadi. Tez tibbiy yordam bo`limlarida yurgiziladigan hujjatlari bilan tanishtiriladi berkitilgan bosh hamshira tomonidan, punktdagi feldsher va shifokorlar bilan chakiriklarga borishadi va bemorlarga tez tibbiy yordam ko`rsatishda ishtirok etishadi...Tez yordam bo`limida chaqiriqlarni qabul qilishda ishtirok etishadi.Bemorlarni	**112**	**80**	**32**

		transportirovka qilishni bajarishadi. Hayotiy zarur ko`rsatkichlarni o`lchashni (puls, arterial bosim, tana xarorati, nafas harakatlari). Terminal xolatlarda o`pka –yurak reanimatsiyasi va suniy nafas o`tkazish.Oksiginoterapiyani o`tkazish. Nafas yo`llariga yot jism tushganda nafas yo`llarini tozalash va nafas o`tkazuvchanligini kaytarishda bevosita ishtirok etish. Asfiksiya, aspiratsiya va obstruktsiyada tez yordam ko`rsatish.Bemorlarni uydan statsionorgacha olib borishda ishtirok etish.			
	Jami		**432**	**288**	**144**

.

3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikma larini baholash

O‘quv dasturi davomida O‘quv chi lar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikma lar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib , ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini anglashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo’yilgan maqsadga hamohang bo‘lishi lozim.

4. Tavsiya etilgan adabiyotlar va internet saytlar ro`yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1.K.S.Inomov. «Hamshiralik ishi». Toshkent, «Abu Ali ibn Sino» nashriyoti, 2009 y.

2. F.G.Nazirov «Bemorlarni shifoxonada va uyda parvarish qilish » Toshkent 2007.

3.T .YU.Umarova «Hamshiralik ishi» , «Abu Ali ibn Sino» nashriyoti, 2004 y.

4. A.T.Nikbaev. «Jamiyat sog`lig`ini saqlash va tibbiy statistikasi». Toshkent, «Ilm Ziyo» nashriyoti, 2005 y.

5. «Hamshira» jurnali

6. «O`zbekiton Sog`liqni Saqlash» haftalik gazetasi

7. O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni Saqlash Vazirligi buyruqlari

8. YAponiyaning Hamshiralik ta’limini takomillashtirish “JICA” loyihasi seminari materiallari.

Internet saytlari:

1. ziyonet.uz,

2.med.uz,

3. minzdrav.uz,

4.tma.uz,

5.tashpmi.uz

6.www.bilm.uz

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG`LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TIBBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI

O`RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIMNING
5.71.01.01 - FELDSHER - AKUSHERLIK ISHI kasbi bo`yicha

ISHLAB CHIQARISH AMALIYOTI

NAMUNAVIY O`QUV DASTURI

Kvalifikatsiya raqami va nomi:	5.71.01.01. Umumiy amaliyot feldsher – akusheri.
O`quv rejadagi tartib raqami:	3.28
Ajratilgan auditoriya soat:	1080

Toshkent 2021yil

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil 18-noyabrdagi 8-son yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2021-yil 23-noyabrdagi 500-son buyrug'i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.



Tuzuvchilar:

N. A. Nurmatova — Yunusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi direktori

Z. X. Zakirova — Yunusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi texnikumi bosh o`qituvchisi

Taqrizchilar:

**O. A. Ro`ziboev** — Samarqand Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi o`quv ishlari bo`yicha direktor o`rinbosari

D. T. Mamadjanova — Andijon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi o`quv ishlari bo`yicha direktor o`rinbosari

1. O`quv dasturi umumiy talablari

Dastur nomi	**Ishlab chiqarish amaliyoti**
Ajratilgan soat	**1080**
Mavzular soni	**22**
Dasturning maqsadi	O`quv jarayoni davrida nazariy va amaliy darslardan olingan bilimlarni amaliyot negizidagi davolash profilaktika muassasalarida o`tkaziladigan malakaviy va bitiruv oldi amaliyotida mustaxkamlash va qo`llash ko`zda tutilgan. Amaliyot natijasida o`quvchilar mutaxassis sifatida ishlash ko`nikmasiga ega bo`ladilar. Davolash profilaktika muassasalarining tuzilishi va faoliyati bilan tanishish.
O`zlashtirish (o`qitish) natijalari	1. Professional ta'lim o`qitish bosqichlarida o`zlashtirgan amaliy ko`nikmalarini: bemor parvarishi, tashxisoti, davolash va yordam ko`rsatishni takomillashtiradi va viloyat, shahar, tuman miqyosidagi shifoxona, ambulatoriya – poliklinika, tug`ruq kompleksi shifokorlari xizmatining tashkiliy ishlari va sharoitlari bilan tanishadi 2. Amaliyot natijasida o`quvchilar mutaxassis sifatida ishlash ko`nikmasiga ega bo`lishadi. 3. Amaliyot natijasida o`quvchilar mutaxassis sifatida ishlash ko`nikmasiga ega bo`lishadi. 4. Turli muolajalarni bajarilish algoritmiini amalda qo`llashadi.
Bilimlar	– Feldsher faoliyati olib boriladigan joylar va uning vazifalarini tushunish. – SHoshilinch tibbiy yordam stantsiyalarining tuzilishi. SHTTYOS ishni tashkil etishda feldsherning roli. – Dispetcher xonasini tuzilishi va dispetcher feldsherning vazifalari. – Amaliyot bilan tanishuv: tibbiy hujjatlar, asbob-anjomlar, feldsherning individual himoya kiyimi, tez yordam ko`rsatishda ishlatiladigan dori-darmonlar, bemorlarni kasalxonaga yotqizish va laborator tahlillarni qayd qilish jurnallari, transportirovka qilish qoidalari bilan tanishish. – Davolash muassalarida zarur bo`lgan tayanch ko`nikmalarni amaliyotda qo`llash. – Amaldagi epidemiyaga qarshi sanitariya-oqartuv ishlari bilan tanishish. – Epidemiyaga qarshi qo`llaniladigan buyruqlar bilan tanishish; – Bemorning ehtiyojlarini inobatga olgan holda kerakli parvarishni olib borish uchun hamshiralik jarayonini yuritish. – Bemor bilan muloqot qilish va salomatlikni baholashni o`tkazish. Salomatlikni saqlab turish uchun hayot turmush tarzini baholash va parvarish ko`rsatish. Hayotiy zarur ko`rsatkichlarni baholash. Bemorni kuzatish va baholash natijalarini ro`yxatga olish. – Teri va limfa tizimini kuzatish va baholash uchun ko`rik va palpatsiya o`tkazish. – Qabul qilish va xarakatlanish tizimini baholash, kuzatish. – Nafas olish tizimi azolarini baholash, kuzatish.

	– Qona aylanish tizimini baholash, kuzatish. – Ovqat xazm qilish tizimini baholash, kuzatish. – YOtoq yaralarni baholash. Bemor ehtiyojlarini inobatga olgan xolda muammolarni aniqlash va parvarish rejasini tuzish. – Bemorga kerakli parvarishni amaliyotda qo`llash
Ko`nikmalar	– Feldsherlik faoliyati olib boriladigan ob'ektlarni, ularning tuzilishi, vazifalari va ularda hamshira faoliyatini bilish; – Tibbiy hujjatlar, asbob-anjomlar, hamshiraning individual himoya kiyimi tez yordam ko`rsatishda ishlatiladigan dori-darmonlar, bemorlarni kasalxonaga yotqizish va laborator tahlillarni qayd qilish jurnallari, transportirovka qilish qoidalari bilish. – Xashiralik parvarishi jarayoni va bosqichlarini bilish va jarayonni yuritish; – Bemor bilan muloqot qilish ko`nikmalari; – Xayotiy zarur ko`rsatkichlar va bemorni xolatini baholash ko`nikmalari; – Bemorni kuzatish va baholash natijalarini ro`yxatga olish. – Teri va limfa tizimini kuzatish va baholash uchun ko`rik va palpatsiyao`tkazish. – Qabul qilish va xarakatlanish tizimini baholash, kuzatish. – Nafas olish tizimi azolarini baholash, kuzatish. – Qon aylanish tizimini baholash, kuzatish. – Ovqat xazm qilish tizimini baholash, kuzatish. – Bemor ehtiyojlarini inobatga olgan xolda muammolarni aniqlash va parvarish rejasini tuzish
O`quv rejasiga muvofiq o`zaro bog`lik bo`lgan fanning nomi	Barcha klinik modullar
O`qitishning tashkiliy shakli	N – nazariy ta'lim A – amaliy ta'lim
Dasturga qo`yilgan talab	Majburiy
O`qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baholash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini baholash	Yozma, og`zaki, savol javob, munozara, test.

2. Dasturi mazmuni

№	Mavzular nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	jami	Soatlar soni	Mustaqil ta'lim
I semestr. Mutaxassislikga kirish					
1.	Davolash profilaktika muassasalarining tuzilishi va faoliyati bilan tanishish.	Hamshiralik faoliyati olib boriladigan joylar va hamshiraning rolini tushunish.Bo`limdagi palata turlari. Davolanish muxiti. Hamshiraning roli.Qabulxonada hamshiraning roli. Amaliyot bilan tanishuv: tibbiy xujjatlar, asbob-anjomlar, hamshiraning individual himoya kiyimi, tez yordam ko`rsatishda ishlatiladigan dori-darmonlar, bemorlarni kasalxonaga yotqizish va laborator analizlarni qayd qilish jurnallari, transportirovka qilish qoidalari bilan tanishish. -kasallik tarixini pasport qismini to`ldirishni; -tashxislash varaqasi bilan tanishuv; -ko`rsatmalar varaqasi bilan tanishuv; -arxiv daftarini yuritishni; -dori darmonlar hisoboti daftari bilan tanishuv; -hamshiralik yozuvlarini yuritishni; -shifokor-konsultant chaqiruvi varaqasini yuritishni; -yo`llanma varaqasini to`ldirishni (qon, siydik, axlat, balg`am); -statistik taloni bilan tanishuv; -bemorlar dispanserizatsiya varaqasi bilan tanishuv; -shoshilinch xabarnoma varaqasini to`ldirishni; -dorixonaga talabnoma to`ldirishni. Amaliy mashg`ulot oilaviy poliklinikalarda, ayollar maslahatxonalarida va klinika oldi amaliyot xonalarida o`tkaziladi. O`quvchilar bemorlarni va homiladorlarni qabul qilish hamda hisobga olish va kuzatishda ishtirok etadilar. Patronaj qilish va dispanser nazoratga olishni o`rganadilar. O`zb Res SSV 25. 12. 2017yil №777 sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan 025-raqamli tibbiy hujjat- ambulator tibbiy karta.O`zb Res SSV 25. 12. 2017yil №777 sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan 111-raqamli tibbiy hujjat- homilador va tuqqan ayolning shaxsiy varaqasi tibbiy hujjatlarni yuritishni o`rganadilar. .	**18**	**18**	**2**
2.	Davolash profilaktika muassasalarida epidemiyaga qarshi	Davolash muassalarida zarur bo`lgan tayanch ko`nikmalarni amaliyotda qo`llash. Amaldagi epidemiyaga qarshi sanitarich-oqartuv ishlarini amaliyotda qo`llash. Epidemiyaga qarshi	**18**	**18**	**6**

	olib boriladigan chora-tadbirlar bilan tanishish	qo`llaniladigan buyruqlar bilan tanishish. SANpin 03.42.17. va SANpin 03.72. 20.buyrugi bilan tanishish. **K**o`lni zararsizlantirishni; Terini, burun va ko`z shilliq pardalarini tozalashni; Zararsizlantiruvchi eritmalarni tayyorlashni; Bemorlarni parvarish qilish jihozlarini zararsizlantirishni; Xalat kiyish, himoyalovchi kiyimni zararsizlantirishni; Steril zonalarda hamshiraning ishlash qoidalarini;Steril qo`lqopni kiyish usullarini; Tibbiy qoldiqlarni zararsizlantirish turlari va yo`q qilishni. Qabulxonada labarator tekshirishlarga qon, siydik, axlat, qusuq massa, yuvindi suvlarni olishni va labaratoriyaga yuborish uchun hujjatlarni to`ldirishni o`rganadilar. Qabulxonaga kriminal bemorlar kelganda to`ldiriladigan hujjatlar bilan tanashadilar va ularning kiyim-boshlariga “AKT” tuzishni o`rganadilar. Qabulxonaning sanitariya-epidemik tartiblarni o`rganadalar. Bemolarda antropometrik ko`rsatkichlarni aniqlashda ishtirok etadilar. Bemorlarga kasallik tarixining pasport qismini to`ldirishni va qayd qilish daftariga belgilashni o`rganadilar, bemolarni vannada yoki dushda yuvintirishda ishtirok etadilar.Bitlagan bemorlarni sanitariya tozalovidan o`tkazishni o`rganadilar.			
3	Kasalxonaning qabulxona bo`limida hamshiraning vazifalari va roli xaqida tushunchaga ega bo`lish.	Bemorda sanitar gigienik ko`rik va antropometrik o`lchovlarni o`tkazish. Bemorlarni bo`limga tashish. Bemor bilan muloqot qilish va salomatligini baholash. Kasallik tarixini pasport qismini to`ldirishni. Tana haroratini o`lchash. Puls va nafas olishni sanash. Arterial bosimni o`lchash. Bemorni kuzatish va baholash natijalarini ro`yxatga olishni	**18**	**18**	**16**
4	Bo`limda hamshiralik parvarishiniolib borish	Bemorning ehtiyojlarini inobatga olgan holda kerakli parvarishni olib borish uchun hamshiralik jarayonini yuritish. Bemor bilan muloqot qilish va salomatlikni baholashni o`tkazish. Salomatlikni saqlab turish uchun hayot turmush tarzini baholash va parvarish ko`rsatish. Hayotiy zarur ko`rsatkichlarni baholash. Bemorni kuzatish va baholash natijalarini ro`yxatga olish. Teri va limfa tizimini kuzatish va baholash uchun ko`rik va palpatsiya o`tkazish. Qabul qilish va xarakatlanish tizimini baholash, kuzatish. Nafas olish tizimi azolarini baholash, kuzatish. Qon aylanish tizimini baholash, kuzatish. Ovqat xazm qilish tizimini baholash, kuzatish. YOtoq yaralarni baholash (Norton, Breyden va Vaterlou shkalalar yordamida).	**18**	**18**	**12**

		Bemor ehtiyojlarini inobatga olgan xolda muammolarni aniqlash va parvarish rejasini tuzish. Bemorga kerakli parvarishni amaliyotda qo`llash. Hayotiy zarur ko`rsatkichlarni o`lchashni (puls, arterial bosim, tana xarorati, nafas harakatlari). Bemorning tana holatini o`zgartirishni; YUrishda yordam berishni (xassa, nogironlar aravachasi, katalka, zambil); Tozalikni saqlashda ko`maklashishni (terini parvarish qilish, ko`z, quloq, burun, soch, qo`l va oyoq gigienasi); Kiyim va o`rin ko`rpa oqliklarini almashtirishni; Ovqat qabul qilishda bemorga yordam berishni;			
	Jami		**72**	**72**	**36**
II semestr. Kichik tibbiy xodim yordamchi hamshirasi tez tibbiy yordam stantsiyalari dispecheri					
1	Terapiya bo`limida kichik tibbiy xodim va bemor yordamchisi	Qabul bo`limi tuzilishi va hamshira vazifalari to`g`risida tushunchaga ega bo`lish. Qabul bo`limida yuritiladigan xujjat va oxirgi buyruqlar bilan tanishish. Qabulxonaga kelgan bemorlardan anamnez yig`ish. Bemor va kuzatuvchilar bilan muloqotda bo`lish. Bemorga ko`rsatiladigan shoshilinch yordam usullari bilan tanishish. Hamshira tashxisini qo`yish va parvarishlash. Bemorni sanitariya tozalovidan o`tkazish va pedikulyozga tekshirishni;Bemorlarga shoshilinch tibbiy yordam ko`rsatishni; Bemorlarni transportirovka qilishni. O`quvchilarga shifokor ko`rsatmalarini o`z vaqtida to`g`ri bajarishni,.O`quvchilar bo`limlarda mustaqil ishlayotganlarida xamshiralar nazorati ostida bemorlarni qon bosimini o`lchashada va pulsni aniqlashadi. Dori moddalarni yuborishdan oldin bemorlarni tayyorlash va ularga tushuntirish. Muolaja xonaga ta’luqli buyruq va ko`rsatmalar bilan tanishish, o`rganish. Ishlatilgan asbob-anjomlarni sterillash uchun biksga joylash. Ishlatilgan bog`lov materiallarini, bir marta ishlatiladigan shprits va sistemalarni utilizatsiya qilish mustaqil bajarish. Muolaja xonani joriy va yakuniy tozalashda ishtirok etish. Dori moddalarni hisoblash va saqlashni; Antibiotiklarni eritishni; Dori moddalarni shpritsga tortib olishni; Bemorlarni muolajaga psixologik tayyorlashni; Ishlatilgan asbob va jihozlarni zararsizlantirishni; Venadan qon olish va qon guruhini aniqlashni; Dorini tomchi usulda yuborish uchun sistema tayyorlashni;	**36**	**36**	**18**

		Bemorga tomchilab dori yuborish va kuzatishni; In’ektsiyalardan keyingi asoratlarda va anafilaktik shokda shoshilinch yordam ko`rsatishni.			
2	Xirurgiya kichik tibbiyot xodimi yordamchisi**.**	Xirurgiya qabul bo`limi tuzilishi va hamshira vazifalari to`g`risida tushunchaga ega bo`lish. Qabul bo`limida yuritiladigan hujjat va oxirgi buyruqlar bilan tanishish.Qabulxonaga kelgan bemorlardan anamnez yig`ish. Bemor va kuzatuvchilar bilan muloqotda bo`lish. Bemorga ko`rsatiladigan shoshilinch yordam usullari bilan tanishish. Hamshira tashxisini qo`yish va parvarishlash.Steril stol tayyorlash. Bog`lov ashyolarini steril biksdan steril stolga joylashtirishni; Jarohatlarga ishlov berishni; Bintli va gipsli bog`lam qo`yishni.o`lni zararsizlantirishni;Bajarilgan muolajalarni muolaja varag`iga qayd qilishni;Steril biksdan foydalanish va sterilligini tekshirishni;Steril stolni tayyorlashni; Operatsiya zali tuzilishi va vazifalari bilan tanishish, ko`rsatmalar olish. Oddiy xirurgik operatsiyalarni kuzatish va operatsion hamshira vazifalarini va ish jarayonini o`rganish. Operatsiyaga tayyorgarlik tartibini o`rganish. Operatsiyadan so`ng bemorlarni bo`limga ko`chirish va parvarish qilish	**36**	**36**	**18**
3	Pediatriya bo`limida kichik tibbiyot xodimi yordamchisi**.**	Qabul bo`limiga tushgan bola sog`lig`i, extiyoj muammolari va uning oilasi bilan tanishish. Bemorning onasi va oilasi a’zolari bilan muloqotda bo`lish, anamnez yig`ish, bemorlarni sanitariya tozaligidan o`tkazish. Qabul bo`limida hamshiralik parvarishining axamiyatini tushunish, amaliy ko`nikmalarni bajarish va tanishish.Qabul bo`limidagi tibbiy hujjatlar bilan tanishish. Kasallik tarixi varaqasini to`ldirish. Bemorni arterial bosimini, pulsini, nafas harakatlarini, tana haroratini o`lchash va qayd etish. Bolani bo`limga olib borish.Bola va uning oilasi bilan muloqot qilishni.Tibbiy hujjatlarni yuritishni. Bemorlarni bo`limga joylashtirish.Bolalarda antropometriya o`lchovlarini o`tkazishni;Bemorlarni o`rindan-o`ringa ko`chirish. YOtoq yaralarni oldini olish. Isituvchi kompress, grelka, muzli xalta, xantallar qo`yish. Tuvak va siydikdon tutish. Xonani joriy va yakuniy yuvib tozalashni nazorat qilish. Bemorlarni klinik tekshiruvlar uchun tayyorlash, analiz yig`ish va laboratoriyaga jo`natish.Hamshira tashxisini qo`yish va hamshira jarayoni rejasini tuzish, natijalarini taxlil qilish.Muolaja daftarini yuritish.. Antibiotiklarni eritish. Venadan qon olish, dori yuborish. Tomoq, burun va halqumdan surtma olish. Vena ichiga dori moddasini tomchilab yuborish va bemor ahvolini	**36**	**36**	**18**

		kuzatish. Ishlatilgan shprits, igna va sistemalarni yuqumsizlantirish. Anafilaktik shok va allergik holatlarda shoshilinch yordam ko`rsatish.			
4	Tez tibbiy yordam dispecheri yordamchisi	Tez tibbiy yordam bo`limlarida dispecheri yordamchisi bo`lib ishlashadi. Tez tibbiy yordam bo`limlarida yurgiziladigan hujjatlari bilan tanishtiriladi berkitilgan bosh hamshira tomonidan, punktdagi feldsher va shifokorlar bilan chakiriklarga borishadi va bemorlarga tez tibbiy yordam ko`rsatishda ishtirok etishadi.. Dorini mushak orasi va vena ichiga oqim ostida yuborishda ishtirok etish.Tez yordam bo`limida chaqiriqlarni qabul qilishda ishtirok etishadi. Bemorlarni transportirovka qilishda ishtirok etishadi.	**36**	**36**	**18**
	Jami		**144**	**144**	**72**
	III semestr. Birlamchi ambulator poliklinika davolash muassasalari hamshirasi yordamchisi				
1.	Oilaviy poliklinika, qishloq vrachlik punktida yoki ishlab chiqarish korxonalariningsal omatlik bo`limi (zdravpukt)da ishlash, shaxar vrachlik punktida ishlash.	O`quvchilar oilaviy poliklinika, OSHP va korxonalarning salomatlik punkti tuzilishi, vazifalari, ishni tashkil qilishni, yurgiziladigan hujjatlari bilan tanishtiriladi, punktdagi feldsher va doya bilan birgalikda bemorlarni, homilador ayollarni, sog`lom va bemor bolalarni qabul qiladilar, profilaktik ishlarni o`tkazadilar, yuqumli kasalliklar bilan og`rigan bemorlarni aniqlaydilar, infektsiya o`chog`ida zarur chora –tadbirlarni o`tkazadilar. Sanitariya maorif ishlarini olib boradilar. SHu profilaktik davolash muassasasida feldsherning tutgan o`rni va vazifalariga katta e'tibor beriladi. O`quvchilar oilaviy poliklinikaning tuzilishi, ishlash tartibi, vazifalari bilan tanishadilar. Uchastka shifokori va hamshirasi bilan birgalikda bemorlarni qabul qiladilar. Patronaj, dispanser nazorati, statistika hisoboti bilan shug`ullanadilar; Kunduzgi shifoxona bo`limida ishlaydilar. Sanitariya maorif ishlarida faol qatnashadilar. Zarur bo`lganda laboratoriyaga siydik va qonni tekshirish uchun yo`llanmalar va boshqa tibbiy hujjatlar yozib berishadi, tug`ruqqa tayyorlashning psixoprofilaktik usullari bilan tanishadi, oilaviy poliklinikaning uchastkasidagi homilador ayollarni patronaj qilishadi va patronaj varaqalarini to`ldirishadi. Homilador ayollarni, laktatsiya davriga tayyorlashga ko`maklashadilar. "Onalar maktabi" ishi bilan tanishadilar. Amaliy mashg`ulot tug`ruq majmuaining tug`ruq blokida o`tkaziladi. Tug`ruq majmuaida o`quvchilar homilador va tug`uvchi ayolni qabul qilishni, tug`ruq	**36**	**36**	**18**

		tarixining pasport qismini to`ldirish va qabul qilinganligi haqida daftarga qayd etishni o`rganadilar. Tug`ruqning ikkinchi davrida tug`ruqni boshqarish va qabul qilishda akusherkalarga yordam berishadi. Issiqlik zanjirini saqlashda va bolani birlamchi artib-tozalashda ishtirok etishadi. YAngi tug`ilgan chaqaloqning umumiy holati Apgar shkalasi bo`yicha baholashni o`rganadilar. O`quvchilar tug`ruqning uchinchi davrida AQB o`lchash, pulsni sanash, platsenta ajralganligi belgilarini aniqlashda, tug`ilgan plantsentaning butunligini tekshirishda, tug`ruqda yo`qotilgan qon miqdorini aniqlashda qatnashadilar. O`quvchilar chilla davri bo`limidagi tuqkan ayollar bilan «tug`ruqdan so`nggi davr gigienasi», «sut bezlarini parvarish qilish» mavzularida suhbatlar o`tkazishadi. Bunda asosiy e'tiborni tug`ruq majmuai sharoitida chilla davri kasalliklari, profilaktikasi, tug`ruq majmuai sanitariya tartibini bajarishga qaratish lozimgini uqtiradi. O`quvchilar chilla davri yuqumli kasalliklariga chalingan ayollar va ularning tug`ruq tarixini taxlil qilishda, ularni parvarish qilish va davolashni tashkil etishda qatnashadilar.			
2	Xotin-qizlar maslaxatxonasi	Akusher-ginekolog qabulida ishtirok etish. Ko`zgular yordamida qinni tekshirish va surtma olish. CHanoq o`lchamlarini o`lchash. Homiladorlikning dastlabki muddatlarini aniqlash. Patronaj ishlarini o`tkazish. Venadan qon olish. SHifokor ko`rsatmalarini bajarish. Qin vannasini o`tkazish, tapmon qo`yish. Homiladorlik varaqasini to`ldirishni qin va bachadon bo`ynini qin ko`zgulari yordamida ko`rish uchun jixozlar tayyorlashni; qinning tozalik darajasini aniqlash uchun surtma olishni;patronaj ishlarini o`tkazishni;Ayollarni tibbiy ko`rikdan o`tkazishda qatnashish;Tug`uvchi ayolni qabul qilish va qabul daftariga qayd qilishni, tug`uvchi ayoldan anamnez yig`ishni.Tug`ruq varaqasining pasport qismini to`ldirishni, chanoqni tashqi o`lchamlarini o`lchashni, bachadon tubi balandligini o`lchashni homilaning tahminiy vazini aniqlashni;	**36**	**36**	**18**
3.	Ginekologik bemorlarni tekshirish usullarida feldsherning vazifasi	O`quvchilar homilador ayollarni tekshirish jarayonida ishtirok etish yoki etakchi akusher raxbarligida tekshiruvni mustaqil bajarish Akusher-ginekolog qabulida ishtirok etish. Ko`zgular yordamida qinni tekshirish va surtma olish. CHanoq o`lchamlarini o`lchash. Homiladorlikning dastlabki muddatlarini aniqlash. Patronaj ishlarini o`tkazish. Venadan qon olish. SHifokor ko`rsatmalarini bajarish. Qin vannasini o`tkazish, tapmon qo`yish. Homiladorlik varaqasini to`ldirishni; in va bachadon bo`ynini qin ko`zgulari yordamida	**36**	**36**	**18**

		ko`rish uchun jixozlar tayyorlashni; Qinning tozalik darajasini aniqlash uchun surtma olishni; Almashinuv kartasini to`ldirishni; Patronaj ishlarini o`tkazishni; Ayollarni tibbiy ko`rikdan o`tkazishda qatnashish; Tug`uvchi ayolni qabul qilish va qabul daftariga qayd qilishni; Tug`uvchi ayoldan anamnez yig`ishni; Tug`ruq varaqasining pasport qismini to`ldirishni; CHanoqni tashqi o`lchamlarini o`lchashni; Bachadon tubi balandligini o`lchashni; Tug`uvchi ayolni parvarish qilish. Dard kuchini, ular orasidagi pauzani, maromini aniqlash. Homilaning yurak urishini sanash.SHifokor buyurgan muolajalarini o`z vaqtida bajarish. Infuzion sistemani tayyorlash. Mushak orasi va vena ichiga in'ektsiya qilish. Tug`uvchi ayolni tug`ruq xonasiga o`tkazish.CHaqaloqni emizishga tayyorlash. CHaqaloqlarni cho`miltirish. CHaqaloqlarga birlamchi va ikkilamchi ishlovlarini berish. Kasal chaqaloqni sog`lom chaqaloqlardan izolyatsiyalash.Ayollarni ginekologik tekshiruvlarga tayyorlash. Tekshiruvlar uchun asbob-uskunalarni tayyorlash. Ginekologik kasalliklarda shoshilinch yordam ko`rsatish. Gistologik tekshirishlarga olingan materiallarni saqlash va laboratoriyaga jo`natish.			
	Jami		**108**	**108**	**54**
IV semestr. OSH, QOP ambulatoriya poliklinika bo`g`in, tez yordam hamshirasi yordamchisi					
1.	Ayollar jinsiy a'zolarining yallig`lanish kasalliklarida feldsher akusherning vazifalari	Amaliy mashg`ulot OSHda va ginekologiya bo`limida o`tkaziladi. O`qituvchi o`quvchilarga septik yallig`lanish kasalliklariga chalingan bemorlarni parvarishlash qilishda feldsherning vazifalari bilan tanishtiradi. O`quvchilar ginekologiya bo`limida navbatchi hamshiralarga bemorlarni parvarish qilishda, surtma olish, qin muolajalarini o`tkazishda ko`maklashadilar.	**43**	**43**	**22**
2.	Ayollar jinsiy a'zolari o`sma kasalliklarida feldsher akusherning vazifalari, onkologiya bo`limidagi ish	Amaliy mashg`ulot OPning mahalla akusher-ginekolog xonasida va akusherlik majmualarining ginekologiya bo`limida o`tkaziladi. O`quvchilar xavfsiz va xavfli o`smalarga chalingan ayollarning kasallik tarixini klinik tahlil qilishadi. Bemorlarni parvarishlashda navbatchi hamshiralarga ko`maklashadilar.	**43**	**43**	**22**
3	Kontratseptsiya ning zamonaviy usullarini qo`llash	O`qituvchi o`quvchilarga kontratseptiv usullarni turlarini va ularni to`g`ri tanlashda ayollarga maslahatlar berishni o`rgatadi. O`qituvchi nazorati	**43**	**43**	**22**

		ostida o`quvchilar bemorlardan surtma oladilar, laboratoriyaga tekshirish uchun yo`llanma to`ldiradilar. Bo`yida bo`lishdan saqlovchi vositalarni ayolga qo`llanilganda vrachga assistentlik qiladilar, zarur asbob-anjomlarni tayyorlaydilar, kerakli tibbiy hujjatlarning tegishli qismini to`ldiradilar. Tug`ish yoshidagi ayollarni sog`lomlashtirish tadbirlarida faol katnashadilar: abortning zararli oqibatlari va bo`yida bo`lishning zamonaviy usullari haqida suhbatlar uyushtiradilar.			
4	Tez tibbiy yordam dispecheri yordamchisi	Tez tibbiy yordam bo`limlarida dispecheri yordamchisi bo`lib ishlashadi. Tez tibbiy yordam bo`limlarida yurgiziladigan hujjatlari bilan tanishtiriladi berkitilgan bosh hamshira tomonidan, punktdagi feldsher va shifokorlar bilan chakiriklarga borishadi va bemorlarga tez tibbiy yordam ko`rsatishda ishtirok etishadi.. Dorini mushak orasi va vena ichiga oqim ostida yuborishda ishtirok etish.Tez yordam bo`limida chaqiriqlarni qabul qilishda ishtirok etishadi. Bemorlarni transportirovka qilishda ishtirok etishadi..	**43**	**43**	**22**
5	Tez tibbiy yordam feldsheri yordamchisi	Tez tibbiy yordam bo`limlarida feldsher yordamchisi bo`lib ishlashadi. Tez tibbiy yordam bo`limlarida yurgiziladigan hujjatlari bilan tanishtiriladi berkitilgan bosh hamshira tomonidan, punktdagi feldsher va shifokorlar bilan chakiriklarga borishadi va bemorlarga tez tibbiy yordam ko`rsatishda ishtirok etishadi.. Dorini mushak orasi va vena ichiga oqim ostida yuborishda ishtirok etish.Tez yordam bo`limida chaqiriqlarni qabul qilishda ishtirok etishadi. Bemorlarni transportirovka qilishda ishtirok etishadi. Hayotiy zarur ko`rsatkichlarni o`lchashni (puls, arterial bosim, tana xarorati, nafas harakatlari). Terminal xolatlarda o`pka –yurak reanimatsiyasi va suniy nafas o`tkazish.Oksiginoterapiyani o`tkazish. Nafas yo`llariga yot jism tushganda nafas yo`llarini tozalash va nafas o`tkazuvchanligini kaytarishda bevosita ishtirok etish. Asfiksiya, aspiratsiya va obstruktsiyada tez yordam ko`rsatish.	**44**	**44**	**20**
	Jami		**216**	**216**	**108**
V semestr. OSHP, KOP ambulatoriya poliklinika bo`g`inda feldsher- akusher va tez yordam hamshirasi yordamchisi					
1	Hayz faoliyatining buzilishida feldsher akusherning vazifalari	Amaliy mashg`ulot oilaviy poliklinikaning mahalla akusher-ginekologik xonasida va akusherlik majmualarining ginekologiya bo`limida o`tkaziladi. O`quvchilar vrach qabuliga kelgan ayollarni va	**42**	**42**	**21**

		ginekologiya bo`limida hayz ko`rish faoliyatining buzilishi tufayli davolanayotgan ayollarning kasallik tarixini klinik tahlil qiladilar, jumboqli masalalar echadilar. O`qituvchi o`quvchilarga hayz ko`rish faoliyatining buzilishi, ularning ko`rinishlari, aniqlash va diagnostikasi uchun ko`llaniladigan usullar bilan tanishtiradi. Bo`limlarda hamshiralarga bemorlarda funktsional-diagnostik testlarni o`tkazishga va davolashga yordam beradilar. Xotin-qizlar maslahatxonalar va tug`ruq majmuasi ginekologiya bo`limlarda shoshilinch xolatlarda tez tibbiy yordam ko`rsatishni o`rganadi.			
2	Homiladorlik ning birinchi va ikkinchi yarmida parvarish qilish, qon ketishida feldsherning vazifalari va shoshilinch yordami**.**	Amaliy mashg`ulot akusherlik majmualarining tug`ruq bo`limlarida, ginekologiya bo`limlarida o`tkaziladi O`quvchilar homiladorlik patologiyasi bo`limida homila tushish xavfi bo`lgan ayollarni kuzatishadi va uni saqlash rejasi bilan tanishadilar. CHala tug`ilgan bolalarni kyuvezda parvarish qilish qoidalari bilan tanishadilar va parvarish qilishda hamshiralarga yordam beradilar. Akusherlik postida ishlaydi, «Abortning zarari», «Alkogol, tamaki va dori-darmonlarning homiladorlikka ta’siri» mavzularida suhbatlar o`tkazadi. Homilador ayolni ko`rikdan o`tkazadi, homiladorlik muddatini aniqlaydi, muddatidan o`tgan homiladorlik belgilarini aniqlaydi O`qituvchi bola tashlashda ayolga shoshilinch yordam berishda, abortga qarshi chora-tadbirlar o`tkazish ishlarida feldsherning vazifalari bilan o`quvchilarni tanishtiradi. Xotin-qizlar maslahatxonalari, tug`ruq majmualarining homiladorlik patologiyasi bo`limlarida mustaqil ishlash, muolajalarni mustaqil bajarish, bo`lim hujjatlarini rasmiylashtirishni o`rganish, shoshilinch xolatlarda tez tibbiy yordam ko`rsatishni o`rganadi Amaliy mashg`ulot tug`ruq bo`limlarida o`tkaziladi. O`quvchilar tug`ruq yo`llarining turli xil shikastlanishlariga sabab bo`lgan tug`ruq tarixi bilan tanishadilar va muammoli vaziyatdan masalalarni echadilar. Yo`ldoshning oldinda joylashganligini va barvaqt ko`chishi asorati bilan kechgan tug`ruq tarixlarini klinik taxlil qiladilar. Homilador ayollardan qon ketganda shoshilinch yordam berishda va ularni parvarishlashda ishtirok etadilar. Oilaviy poliklinikalarida qon ketishga xavfi yuqori bo`lgan guruhlar bilan ishlab, profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va patronaj ishlari bilan shug`ullanishadi.	**42**	**4 2**	**21**
3.	Neonatal intensiv terapiya bo`limidachaqaloql arning	Neonatal intensiv terapiya bo`limiga gospitalizatsiya qilingan bolalar xususiyatlarini tushunish. Bola va uning oilasiga ko`rsatiladigan hamshiralik parvarishini tushunish. Betob chaqaloqni qabul qilish.	**42**	**42**	**21**

	parvarishi	CHaqaloq onasidan anamnez yig`ish. Hamshira tashxisini qo`yish. Betob chaqaloqqa tibbiy yordam ko`rsatish va parvarish qilish. Oksigenoterapiya (tanishish); Elektroootsosni ishga tayyorlashni; Endotraxeal intubatsiya uchun jihoz yig`ishni; Muzli xaltani qo`llashini; Kon quyishni o`tkazishda qatnashish; Kindik yarasi va terini parvarishi qilishni; CHaqaloqlarni tana haroratini o`lchash va qayd qilishni; CHaqaloq va chala tug`ilgan chaqaloqlarda antropometriya o`lchovlarini o`tkazishni; CHaqaloq va chala tug`ilgan bolalarda nazoratli emizishni nazorat qilishni; Klinik tekshiruvlarga analiz yig`ishni; CHaqaloq va chala tug`ilgan bola terisiga va kindik qoldig`iga ishlov berishni.			
4	Tug`ruq kompleksidagi ishlar	O`quvchilar bo`limning katta hamshirasi rahbarligida ishlaydilar. Bo`limning tartibi, ishlash va san-epid tartibi bilan tanishadilar. SHu bo`limga taaluqli bo`lgan ko`rsatmalar va buyruqlarga amal qiladilar. “Tez yordam” markazining akusherlik-ginekologiya bo`limida, muolaja xonasida, hamshira postida mustaqil ishlash, muolajalarni mustaqil bajarish, bo`lim hujjatlarini rasmiylashtirishni o`rganish	**42**	**42**	**21**
5	Ginekologiyada o`tkir qorin sindromida shifokorgacha bo`lgan tez tibbiy yordam ko`rsatish	Amaliy mashg`ulot ginekologiya bo`limi va klinika oldi amaliyot xonasida o`tiladi. O`qituvchi orqa gumbaz punktsiyasiga ko`rsatmalar va bajarish texnikasini o`quvchilarga o`rgatadi. Bo`limlarda o`quvchilar bemor ko`rigida, orqa gumbaz punktsiya qilish uchun ishlatiladigan asboblarni tayyorlashda ishtirok etishadi. Bo`limlarda o`quvchilar vrach ko`rsatmalarini bajarishda hamshiraga ko`maklashadilar, bemorlarni davolashda va operatsiyaga tayyorlashda ishtirok etadilar. Operatsiyadan keyin bemorlarni parvarish qilishda qatnashadilar. “Tez yordam” markazining ginekologiya bo`limida, muolaja xonasida, hamshira postida mustaqil ishlash, muolajalarni mustaqil bajarish, bo`lim hujjatlarini rasmiylashtirishni o`rganish.	**42**	**42**	**21**
6	Tez yordam feldsheri yordamchisi	Tez tibbiy yordam bo`limlarida feldsher yordamchisi bo`lib ishlashadi. Tez tibbiy yordam bo`limlarida yurgiziladigan hujjatlari bilan tanishtiriladi berkitilgan bosh hamshira tomonidan, punktdagi feldsher va shifokorlar bilan chakiriklarga borishadi va bemorlarga tez tibbiy yordam ko`rsatishda ishtirok etishadi.. Dorini mushak orasi va vena ichiga oqim ostida yuborishda ishtirok etish.Tez yordam bulimida chaqiriqlarni qabul qilishda ishtirok etishadi.	**42**	**42**	**21**

		Bemorlarni transportirovka qilishda ishtirok etishadi. Hayotiy zarur ko`rsatkichlarni o`lchashni (puls, arterial bosim, tana xarorati, nafas harakatlari). “Tez yordam” markazining akusherlik-ginekologiya bo`limida, muolaja xonasida, hamshira postida mustaqil ishlash, muolajalarni mustaqil bajarish, bo`lim hujjatlarini rasmiylashtirishni o`rganish Terminal xolatlarda o`pka –yurak reanimatsiyasi va suniy nafas o`tkazish.Oksiginoterapiyani o`tkazish. Nafas yo`llariga yot jism tushganda nafas yo`llarini tozalash va nafas o`tkazuvchanligini kaytarishda bevosita ishtirok etish. Asfiksiya, aspiratsiya va obstruktsiyada tez yordam ko`rsatish.			
	Jami		**252**	**252**	**126**

3. O`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini baholash

O`kuvchilarni uslubiy raxbar tomondan amaliy kundalik daftarlari nazarot kilib boriladi

O`kuvchilarni b**o**`limda bemorlarni parvarish kilish b**o**`yicha k**o**`nikmalarni uslubiy va bevosita uslubiy raxbar tomonidan nazorat kilib boriladi.

Kundaliklar vaktida tekshirilib baholab boriladi.

4.Tavsiya etiladigan adabiyotlar va internet saytlar:

Prezident asarlari

1. SHavkat Mirziyoev “Milliy taraqqiyot yo`limizni qat’iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko`taramiz” Toshkent – “O`zbekiston”-2018.
2. SHavkat Mirziyoev “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy baxodir” Toshkent – “O`zbekiston”-2018.
3. SHavkat Mirziyoev “Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”Toshkent – “O`zbekiston”-2016.
4. SHavkat Mirziyoev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak”Toshkent – “O`zbekiston

Asosiy adabiyotlar

1.K.S.Inomov. «Hamshiralik ishi». Toshkent, «Abu Ali ibn Sino» nashriyoti, 2009 y.

2. F.G.Nazirov «Bemorlarni shifoxonada va uyda parvarish qilish » Toshkent 2007.

3.T .YU.Umarova «Hamshiralik ishi» , «Abu Ali ibn Sino» nashriyoti, 2004 y.

4. A.T.Nikbaev. «Jamiyat sog`lig`ini saqlash va tibbiy statistikasi». Toshkent, «Ilm Ziyo» riyoti, 2005 y.

5. «Hamshira» jurnali

6. «O`zbekiton Sog`liqni Saqlash» haftalik gazetasi

7. O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni Saqlash Vazirligi buyruqlari

8. YAponiyaning Hamshiralik ta’limini takomillashtirish “JICA” loyihasi seminari materiallari.

Internet saytlari:

1. ziyonet.uz,
2.med.uz,
3. minzdrav.uz,
4.tma.uz,
5.tashpmi.uz

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG`LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TIBBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI

O`RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIMNING 5.71.01.00 - FELDSHER - AKUSHERLIK ISHI kasbi bo`yicha

JISMONIY TARBIYA VA SPORT modulidan

NAMUNAVIY O`QUV DASTURI

Kvalifikatsiya raqami va nomi:	5.71.01.01. Umumiy amaliyot feldsher – akusheri.
O`quv rejadagi tartib raqami:	Elektiv modul
Ajratilgan auditoriya soat:	36

Toshkent 2021 yil

O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy, o’rta maxsus va professional ta’lim yo’nalishlari bo’yicha o’quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil 18-noyabrdagi 8-son yig’ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2021-yil 23-noyabrdagi 500-son buyrug’i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.



Tuzuvchilar:

Raxmanqulov I. A. — Samarqand Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi Jismoniy tarbiya fani o`qituvchisi.

Sulaymanov O. A. — Samarqand Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi mudiri.

Taqrizchi:

Qipchoqov B. — SamDU Jismoniy- tarbiya va madaniyat fakulteti dekani, dotsent.

1. O`quv dasturiga qo`yiladigan talablar

Dastur nomi	**Jismoniy tarbiya**
Ajratilgan soat	**36**
Mavzular soni	**18**
Dasturning maqsadi	O`quvchilarni jismonan baquvvat, epchil, sog`lom qilib tarbiyalash, inson salomatligi to`g`risidagi bilimlarni rivojlantirish, jismoniy tarbiya fanidan egallangan bilimlarni hayotda qo`llay olish layoqatini shakllantirish orqali jismoniy madaniyat va sport sohasidagi asosiy tushunchalar, maxsus nazariy bilimlar, jismoniy rivojlanish, tayyorgarlikni o`stirishga oid bilim ko`nikma va malakalarni oshirishga yordam beruvchi vosita va metodlarni, o`z-o`zini jismoniy mukammallashtirish, ommaviy sog`lomlashtirish tadbirlarini tashkil qilish va ulardan mustaqil foydalanishga o`rgatish.
O`zlashtirish (o`qitish) natijalari	– o`quvchilar sog`lomlashtirish mashqlarni bajarishni tushunish va qo`llay olishni o`rganadilar; – jismoniy mashqlarni ketma-ketlikda to`g`ri bajarish orqali jismoniy sifatlarini rivojlantiradilar; – **jismoniy mashqlarni bajarishda o`quv mashg`uloti uchun qulay sharoitlarni yarata oladilar;** – **jismoniy mashqlar yordamida organizmning barcha guruhlarining funktsiya tizimlarini to`g`ri va o`z vaqtida rivojlantira oladilar;** – **jismoniy mashqlar yordamida asab tizimini mustahkamlaydi, modda almashuv jarayonini faollashtira oladilar;** – **gimnastika anjomlaridan to`g`ri va xavfsiz foydalana oladilar;** – **engil atletikaning inson salomatligida tutgan o`rni va ta'sirini biladi; shaxmat, shashka, basketbol, voleybol, qo`l to`pi, futbol, suzish, badminton, stol tennisi va boshqa sport o`yinlarining himoya va hujum usullarini biladi;** – **kurash turlari, elementlari hamda usullarini bajara oladilar;** – **buyum va buyumsiz bajariladigan umumrivojlantiruvchi mashqlarning bo`g`inlar va mushak guruhlariga ijobiy ta'siri va uni ketma-ketligi, osilish, tirmashish, muvozanat saqlash, tayanib va tayanmay sakrash, tortilish, akrobatika elementlari va ritmik gimnastika qoidalariga rioya qiladi;** – **fazoviy harakatlar va uning bajarilish ketma-ketligiga amal qiladi;** – **sport turlarining kelib chiqishi va uning rivojlanish tarixini biladi;** – **sog`lom turmush tarzini keng jamoatchilik o`rtasida targ`ib etishda tayanch va jismoniy tarbiya faniga oid kompetentsiyalarni shakllantirish** nuqtai nazaridan bilim va ko`nikmalarga ega bo`ladilar.
Bilimlar	– o`quvchilarda shaxsini har tomonlama rivojlantirishda jismoniy tarbiyaning roli haqida zamonaviy qarashlar va ishonch shakllantirish; – o`zini jismoniy takomillashtirishga ehtiyojni tarbiyalash va sog`lom turmush tarzi motivasiyalarini rivojlantirish;

	– asosiy jismoniy sifatlarini va psixomotor qobiliyatlarini rivojlantirish; – kasbiy (professional) kasalliklarning oldini olish uchun jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishga o`rgatish; – inson shaxsining har tomonlama rivojlantirish uchun o`quvchilarini jismoniy tarbiya va sport faoliyatiga jalb etish; – o`quvchilarning bilimlari, malaka va ko`nikmalariga qo`yiladigan talablar: – qo`yish jadvalida ko`rsatilgan kunlar va soatlarda muntazam ravishda jismoniy tarbiya bo`yicha mashg`ulotlarda qatnashish; – o`zining jismoniy tayyorgarligini oshirib borish; – nazorat mashqlari va normativlarini bajarish, ko`rsatilgan muddatlarda jismoniy tarbiya bo`yicha reyting-nazoratini topshirish; – o`qish, dam olish va ovqatlanish ratsional rejimiga amal qilish; – doimiy ravishda gigienik va ishlab chiqarish gimnastikasi bilan shug`ullanish, o`qituvchilarining muhim maslahatlaridan foydalanib, mustaqil ravishda jismoniy mashqlar va sport bilan shug`ullanish; – o`quv guruhlarida, kursda, fakultetda, oliy ta'lim muassasalarida va boshqa ommaviy sog`lomlashtirish jismoniy tarbiya va sport tadbirlarida faol ishtirok etish; – belgilangan muddatlarda tibbiy ko`rikdan o`tish, sog`ligi va jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarligi holatini o`zi nazorat qilib borish; – o`qish jadvalida kiritilgan jismoniy tarbiya bo`yicha mashg`ulotlarni o`quv vazifalari sifatida emas, balki faol dam olish va boshqa fanlar bo`yicha og`ir aqliy ishlardan so`ng kuchlarini tiklash va bolajak mashg`ulotlariga tayyorgarlik vositasi sifati qabul qilish (tushunish) xususiyatlariga ega bo`ladilar.
Ko`nikmalar	– o`quvchilarda odamning jismoniy kamoloti, bunga muayyan iqlim va boshqa sharoitlarda erishish haqidagi maxsus bilimlar tizimini hosil qilish, o`quvchilarda gigiyenik malakalarni shakllantirish, ularni gavdani to`g`ri tutishga, jismoniy madaniyat va sport bilan muntazam shug`ullanishga odatlantirish; – harakatning asosiy jismoniy sifatlari (tezkorlik, kuch-quvvat, chidamlilik, chaqqonlik, epchillik) ni har tomonlama rivojlantirish; – maqsadga intilish, mustaqillik va ijodiy qobiliyat, mardlik, sabot va intizom, mas'uliyat, vatanparvarlik, jamoaviylik, do`stlik hamda o`rtoqlikni chuqur his eta bilish; mehnatga va jamiyat mulkiga ongli munosabatda bo`lish, madaniy xulq-atvor malakalarini tarbiyalash; – o`quvchilarning "Alpomish" va "Barchinoy" test talablarini bajarish uchun jismoniy tayyorgarligini oshirish; – o`quvchilarda jismoniy tarbiya va sport mashg`ulotlari bilan muntazam shug`ullanish ehtiyojini shakllantirish. – sog`lom turmush tarzini targ`ib qilish; – milliy o`yinlar, sport musobaqalari va ularning turlarini o`quvchilarning jismoniy tarbiya tizimiga joriy etishda muvofiqlashtirilgan jismoniy tarbiyani rivojlantirish; – o`quv-mashg`ulot jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiya va

	uslublarni joriy etish; – sport zahiralarini tayyorlash shahobchalarini kengaytirish; – o`quvchilarning O`zbekiston Davlat Sport qo`mitasiga qarashli Olimpiya SHon-shuhrati muzeyi to`g`risidagi nazariy bilimlarini takomillashtirish, jismoniy mukammallikka bo`lgan ongli ehtiyojini shakllantirish; – o`quvchi-sportchilarni Universiada, Olimpiada, Osiyo o`yinlari, Butun jahon o`quvchilar Universiadasi, Markaziy Osiyo va Butun jahon Yigitlar o`yinlariga tayyorlash va ularning mazkur o`yinlarda muvaffaqiyatli qatnashishlarini ta'minlash; – jismoniy tarbiya mashg`ulotlari orqali kasallikning oldini olish, sog`lig`ni mustahkamlash, mashqlar bajarganda o`z-o`zini nazoratga o`rgatish; – o`quvchilarni sport turlari bilan faol shug`ullanishga jalb qilish, jismoniy tarbiyaning mohiyatini va o`quvchining har tomonlama barkamol shaxs bo`lib etishiga ko`maklashish, qo`lga kiritilgan yutuqlarni targ`ib qilish. – **-Sport o`yinlari, jihoz va anjomlarning nomlari, tuzilishi va o`lchamlari haqida ma'lumotlarni biladi;** – **sport o`yinlariga oid jihoz va anjomlar, basketbol shchiti, halqa, to`p, futbol darvozasi, to`r, to`p, bayroqlar, voleybol ustuni, hakamlar o`tirish uchun maxsus joy, to`ldirma to`p, turli to`siqlardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga amal qila oladi;** – **kurashda xavfsizlik texnikasiga rioya qila oladi;** – **mashg`ulotlar vaqtida shikastlanganda birinchi tibbiy yordam** ko`nikmalarini egallaydilar.
O`quv rejasnga muvofik o`zaro bog`liq bo`lgan fanlarning nomi	Anatomiya, Fiziologiya, Patologiya, Tibbiyot psixologiyasi, Valeologiya, Umumiy gigiena va ekologiya, Hamshiralik ishi, Sport tibbiyoti, Kasb kasalliklari
O`qitishning tashkiliy shakli	A – amaliy ta'lim; MX – maxsus xonalarda mashg`ulot.
Dasturga qo`yilgan talab	Majburiy
O`qitish tili	Guruhga tayinlangan dars tili asosida
Baxolash tartibi	Joriy baholash tartibiga asoslanib
O`quvchilarning bilim va ko`nikmalarini baholash	YOzma, og`zaki, savol-javob, munozara, test, amaliy topshiriq

2. O`quv dasturi mazmuni

№	Mavzuning nomi	Mavzuning qisqacha mazmuni	Jami	O`qitishni tashkiliy shakli	Mustakil ta'lim
1	**Gimnastika**	O`zbekistonda gimnastikaning rivojlanish tarixi. Gimnastika mashqlarini tana rivojlanishdagi o`rni. Gimnastik mashqlarni amalga oshirishda jarohatlanish va jarohatlanishning oldini olish chora tadbirlari. Saflanish va qayta saflanish mashqlari. Bir, ikki, uch, to`rt qatorga saflanishni takrorlash. Safda va alohida-alohida yurish jarayonida "CHap-Ga", "O`ng-Ga", Orqa-Ga" buyruqlarga binoan burilish harbiy xizmat Nizomida qo`llaniladigan mashqlarini bajarishni takomillashtirish. Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar. Gantellar, to`ldirma to`p, gimnastik tayoqchalar juft- juft bo`lib mashq bajarish; bir-biriga qarama-qarshi turib, bir-biriga orqa turib har xil harakat mashqlarini bajarish, juft holda har tomonga yurish va yugurish, bir oyoqda " to`pponcha" usulida o`tirib turish. Osilish va tayanishlar. Yigitlar: baland turnikda qo`llarga osilib oldinga va orqasiga siltanishlar, kuch bilan tortilib, to`ntarilib qo`llarga tayanib turish. Oldinga siltanib chiqib o`ng (chap) oyoqni oldinga o`tkazish. Orqaga to`ntarilib siltanishlar bilan orqaga tushish. Qizlar: baland-past bruslarda qo`llar bilan xodada osilgan holatda siltanish, osilib o`tirish, ko`tarilib baland xodada tik osilish, qo`l ustidan oshirib chalkashtirib ushlab, chap tomonga 90 gradus burilish va chap oyoq soniga o`tirish, o`ng qo`l yonida chap qo`l bilan orqadan (xodani) past tomonidan ushlab o`ngga burilib orqada aylanib sakrab tushish. Tirmashib chiqish: Yigitlar ikki, qizlar uch urinishda arqonga tirmashib chiqish. Akrobatika: Yigitlar chalqancha yotgan holatda g`ujanak bo`lib o`tirishga o`tish. Oldinga va orqaga g`ujanak bo`lib umboloq oshish. SHerigi yordamida qo`lda tik turib va shu holatda sherigi yordamida oldinga umboloq osishni takrorlash, boshda va qo`llarda uchburchak hosil qilib tik turish. Oldinga va orqaga umboloq osishlarni murakkablashtirilgan usullarda bajarish. Qizlar: "Ko`prik" hosil qilish, ko`prik holatida burilib	4	A	2

		bir tizzaga tayanib turib qolish, oldinga va orqaga umboloq oshish. Orqaga umboloq oshib oyoqlarni yarim holatidan turish. Tayanib sakrash. Yigitlar balanddan 115 sm bo`lgan eni bilan qo`yilgan “Eshak” va balandligi 115 sm uzunasiga qo`yilgan “Ot” ustidan oyoqlarni kerib sakrab o`tish. Qizlar: balandligi 110 sm bo`lgan eni bilan qo`yilgan “Ot” ustidan yugurib kelib, tayanib yon tomon bilan sakrash. O`zlashtirish mezonlari. Osilish va tayanish: Yigitlar: baland turnikda kuch bilan tortilib, to`ntarilib qo`llarga tayanishni bilish. Qizlar: Past-baland brusslarda mashqlar majmuasini to`liq bajara olishga erishish. YAkka cho`p ustida muvozanat saqlash. Qizlar: YAkka cho`p ustida muvozanat saqlab yurishlar, bir oyoqda o`tirgan holda 180 gradus burilishlarni bajarish. Sakrab burilish, o`tirib qo`lllarda tayanib oyoqlarni kerib o`tirish va tik turish. Qo`llarda tayanib oyoqlarni orqaga siltab sakrab tushish. O`zlashtirish mezonlari Akrobatika: Yigitlar: SHerigi yordamida qo`llarda tik turib va shu holatdan sherigi yordamida oldinga umboloq osha bilish. Qizlar: YOtgan holda mustaqil “ko`prik” yasash. Tayanib sakrash: Yigitlar uzunasiga qo`yilgan “ot” da, qizlar “eshak”dan oyoqlarni kerib sakray olish. Tirmashib chiqish: Yigitlar ikki, qizlar uch urinishda arqonga tirmashib chiqa olish.			
2	**Engil atletika**	O`zbekiston engil atletikaning rivojlanish tarixi. Engil atletikaning o`quvchilarda harakat sifatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati to`g`risida tushuncha berish. Kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, egiluvchanlik sifatlarini tarbiyalash. YUrish va yugurishlar. YUgurish mashqlari. Tizzalarni oldinga baland ko`tarib, oyoqlarni orqaga siltab, sakrab- sakrab yugurishlar. Past startdan chiqish va start tezligi 2.20 - 2.30 m.ga tezkor yugurishlar. 60 m. yoki 100 m.ga yugurish. Takroriy yugurishlar: 5-6 marta 60-100 m.ga. Tezlikni o`zgartirib yugurishlar. Baland startdan 3-4 mart 500 va 800 m.ga yugurish. Estafetali yugurish, 2-3 km.ga kross yugurish. Sakrashlar. YUgurib kelib balandlikka “Qaychisimon” - “Xatlab o`tish” usulida sakrash. YUgurib kelib uzunlikka “Oyoqlarni bukib” sakrash mahoratini takomillashtirish. Uloqtirish. Yigitlar 700 gr.li, qizlar 500 gr.li granatani uloqtirish. Yigitlar: 5 kg.li yadroni, qizlar 4 kg.li yadroni uloqtirish. YUgurish startida turishi, startdan chiqishi, tezlanishi va masofa bo`ylab yugurish qoidalariga rioya qilgan holda mashqni mustaqil bajarishga erishish.	4	A	2

		Granatani uloqtirish, yadroni uloqtirish ko`nikma malakalarini hosil qildirish.			
3	**Sport o`yinlari (basketbol, voleybol, futbol, qo`l to`pi, badminton)**	O`zbekistonda **basketbol, voleybol, futbol, qo`l to`pi, badminton**ning rivojlanish tarixi. Basketbol: Basketbolchining maydondagi harakatlari: yurish, yugurish, yo`nalishni o`zgartirib yurish va yugurish; maydonda joy tanlash, to`xtashlar va burilishlar, sakrashlar. To`pni bir yoki ikki qo`llab ilish. YUqorilab ketayotgan to`pni ilish. Pastlab ketayotgan to`pni ilish, maydondan sapchigan to`pni ilish. To`pni ikki qo`llab ko`krakdan uzatish elkadan bir qo`llab pastdan uzatish usullarini o`rgatish. To`pni erga urib olib yurish. To`pni bir qo`l bilan ketma-ket erga urib olib yurish texnikasini mustahkamlash. To`pni yo`nalish balandligini o`zgartirib erga urib olib yurishngi o`rgatish. Joyida turgan holda elkadan bir qo`llab to`pni savatga tashlashni mustahkamlash. Harakat jarayonida to`pni bir qo`llab savatga tashlashni o`rgatish. Jarima to`plarni tashlash. Zona bo`ylab turli himoya guruhlarini o`rgatish. Ikki tomonlama o`quv o`yini. Voleybol: Voleybol o`yinining jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirishdagi ahamiyati. Voleybol o`yinining musobaqa qoidalari. Voleybol maydonida o`yinchilarning harakatlari: oldinga, orqaga uzatish. To`pni ikki qo`llab ko`p marta bosh ustida yuqoriga uzatib o`ynash. To`pni pastdan to`g`ri o`yinga kiritish va kiritilgan to`pni qabul qilib ikkinchi, uchinchi zonaga to`g`ri uzatib berish. To`pni yon tomondan o`yinga kiritish. To`pni ikki qo`llab pastdan qabul qilish. To`rdan qaytgan to`pni qabul qilish usulini o`rgatish. To`pni pastdan bir va ikki qo`llab uzatish. Hujum zarbi berish va to`siq qo`yish bilan tanishish. Ikki tomonlama o`quv-mashg`ulot o`yini. Taym-brek” usulida hisobni sanashni o`rgatish. Qo`l to`pi: Qo`l to`pi bilan shug`ullanuvchilar uchun xavfsizlik qoidalari. Qo`l to`pi o`yinchisining harakatlari: yurish, yo`nalishni o`zgartirib yugurish, maydonda joyni tanlash, sakrash. To`pni ikki qo`llab ko`krakda ilish, har xil balandlikda uchib o`tayotgan to`plarni ilish. To`pni elka balandligida tirsakni bukib uzatish. To`pni yondan, pastdan uzatish. To`pni erga urib olib yurish, juft bo`lib harakat jarayonida to`pni uzatib olib yurish. To`pni tayanch holatda	6	A	4

		darvozaga tashlashni o`rgatish. Zona himoyalaridan 6*0,5*1 sistemalarini o`rgatish. O`quv mashg`ulot o`yini. Futbol (minifutbol): Musobaqa qoidalari. O`quvchilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishda futbolning ahamiyati. Futbolchining maydon bo`ylab harakatlari. YUrish yo`nalishini o`zgartirib yurish va yugurish, maydonda joyni tanlash. Dumalab kelayotgan va tushib kelayotgan to`plarni oyoqning panja qismining ichki va tashqi tomonlari bilan to`xtatishni o`rgatish. To`pni oyoqni panja qismining ichki va tashqi tomonlari bilan tepib olib yurish. Dumalab kelayotgan to`pni oyoqning panja qismining ichki, tashqi va yuqori tomonlari bilan tepishini o`rgatish. Dumalab kelayotgan to`pni darvozabon tomonidan ilib olish. Har xil balandlikda uchib kelayotgan to`plarni musht bilan urib yuborish. To`pni yon tomonidan ikki qo`llab bosh ustidan o`yinga kiritish. To`pni uzatish, chalg`itish usullarini o`rgatish. Guruhli taktik o`yin bilan tanishtirish. O`quv mashg`ulot o`yini. Badminton: Badminton o`yinida havfsizlik qoidalari, o`tkazish joyi va jihozlarga qo`yilgan gigienik talablar. Badminton o`yini orqali jismoniy sifatlarni tarbiyalash. Badminton o`yini qoidasi va atamalari. Badmintonchining maydondagi turish holati va harakatlari, raketka bilan ishlash va raketka, bilan ishlash usullari. Badminton o`yinida ko`nikma va malakalarni shakllantirish, maydonda turish holati, harakatlanish usullari, yurush, yugurish, sakrash, zarba berish. Badmintonchining raketka va volan bilan ishlash usullari. Badminton o`yinada qo`llaniladigan atama va tushunchalarni hamda badminton o`yin qoidasini o`rganish. Badminton o`yinida maxsus mashqlarni o`rgatish. YAkka va juftlik o`yinlarida volanni o`yinga kiritish va uzatish usullari.			
4	**O`zbek kurashi (o`smirlar uchun)** **Raqs element-lari va ritmik gimnastika (qizlar uchun)**	O`zbek kurashi (belbog`li va xalqaro milliy kurash) O`zbekistonda o`zbek kurashining rivojlanish tarixi. Jarohatni oldini olish chora tadbirlari to`g`risida tushuncha berish. O`quvchilarni barkamolikka erishishida kurashning ahamiyati. Raqib yaktagining belbog`idan, ikki qo`lidan, engidan, yoqasidan, qo`llarni tirsagidan ushlagan holda to`shakda siljishlar. Yiqilishdan saqlanish usullarini o`rgatish. Orqaga yiqilayotganda qo`llarni yonga tizzadan 45-50 sm uzoqlikda	4	A	2

		tutib to`shakka qarsak chalgandek urib tushishni o`rgatish. Orqadan va oldindan chalish usulini bajarayotganda himoyalanish va qarshi harakatni bilish. Oyoqlarni yondan va orqadan oyoq bilan qoqish usulini o`rgatish, shu usulllarga qarshi harakat ko`nikmasini hosil qilish. O`quv mashg`ulot bellashuvi. Belbog`li kurash. Tik turgan holda belbog`dan ushlash usullarini va to`shakda siljish harakat faoliyatlarini o`rgatish. Siljish, tizzada cho`kkalatish, kaft urish (kiftlash) usullarini o`rgatish va qarshi hujum qila olish. Qoqib tashlash (qoqma) usulini va qarshi harakat usullarini o`rgatish. Ilib tashlash usulini o`rgatish va qarshi harakatlarni mustahkamlash. Raqs elementlari va ritmik gimnastika —YAlla", —Andijon polkasi" dagi oyoq va qo`Uammg harakatlarini o`rganish. " CHittigul", "Asp bo`laman" o`yinlari. —Voxay bola", — SHuginami-yo" o`yinlarni harakat faoliyatlarini o`rganish.			
5	**Suzish**	Respublikamizda suzish turini rivojlanish tarixi. Suzishning o`quvchilar tanasini rivojlanishda va nafas olish ahzolari faoliyatini yaxshilashdagi ahamiyati. Quruqlikda qo`l va oyoq harakatlarini o`rgatish. Krol usulida suzishda suv yuzasida sirpanishni o`rgatish. YOg`ochni oyoqlari bilan qisib olgan holda qo`l harakatini o`rgatish. Suzishda to`g`ri nafas olish. Suzishda burilishni o`rgatish. CHalqancha yotib suzish. CHo`kayotgan kishiga birinchi yordam ko`rsatish. Krol usulida suzishda yog`och taxtadan foydalanib va yog`och taxtasiz suza olish, cho`kayotgan kishini qutqarish ko`nikma va malakalarini hosil qilish	4	A	2
6	**Kross tayyorgar-ligi**	Kross tayyorganligining xususiyatlari va uning organizmga tahsiri. Past-baland joylarda yugurish. CHidamlilikni rivojlantirish. Kross yugurishida to`g`ri nafas olish, kuchni to`g`ri taqsimlash, yugurish texnika va taktikasini o`rgatish. Kross yugurishida to`g`ri nafas olish, kuchni to`g`ri taqsimlash, burilish va masofaga yugurishga erishish.	4	A	2

7	Harakatli milliy o`yinlar va estafetalar	Milliy harakatli o`yinlar: “Qubba”, “Otib qochar”, “Olib qochar”, “Otishma”, “Qirq tosh”, “Qisqa kelar”, “CHavondoz”, “Bo`ron”, “Eshak mindi”, “Tepki”, “To`p uchun kurash”, “Tepa kurash”, “Kuchli va chaqqonlar”, “Futbolchilar estafetasi”, “Qo`l to`pi estafetasi”, “Beysbol”, “Basketbol estafetasi”, “Ommaviy to`p”, “Olimpiya globusi”, “Mashqni eslab qol”, “Matematik estafeta”, “Sehrli kataklar”, “Kim bir oyoq bilan sakraydi”, “Arg`umchoq bilan juft bo`lib sakrash”. O`qituvchi harakat o`yinlarini tanlashda ularning kasblariga mosligini e’tiborga olish kerak.	4	A	2
8	**Amaliy kasbiy jismoniy tayyorgarlik**	Kasbga quyiladigan talablar: - elka, gavda muskullarini, gavda va oyoq bo`g`inlarini rivojlantirish: -tik vaziyatda muvozanat saqlashni takomillashtirish; oyoqlar chidamliligini, statik va umumiy chidamliligini rivojlantirish, qo`l harakatlarini aniq muvofiqlashtirish. AKJT vositalari: -har xil turdagi yurishlar, chap va o`ng oyoqlarda sakrashlar, og`irlik ko`tarish va buyumlar bilan mashqlar; gimnastika tayoqchasi, gardish, to`ldirma to`plar va gantellar bilan mashqlar; -umboloq oshishlar, boshda tik turish va arqonga har xil tirmashib chiqishlar; to`pni ushlab olish, uzatish va mo`ljalga aniq uloqtirishlar; -yuqori va qiya balandliklardan yugurib tushishlar va boshqalar. Engil atletika(sportcha yurish, o`rta masofaga yugurish), gimnastika, basketbol, qo`l to`pi, tennis, stol tennisi kabi sport turlari bilan shug`ullanish tavsiya etiladi.	2	A	2
9	**Tanlab olingan sport turlari**	O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Madaniyat va sport ishlari vazirligining qo`shma qarorlari asosida tayanch ta’lim muassasasining belgilangan sport turi bo`yicha mashg`ulotlar tashkil etilishi tavsiya etiladi. Katta tennis Respublikamizda katta tennis sport turini rivojlanish tarixi. Katta tennisning o`quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati. Katta tennis sport turi qoidalarini o`rgatish. Katta tennis sport turi qoidalarini bilish. Raketka bilan to`pga to`g`ri zarba berish. To`pni o`yinga kirita olish Stol tennisi. Respublikamizda stol tennis sport turini rivojlanish tarixi. Stol tennisning o`quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati. Stol tennis sport turi qoidalarini o`rgatish. Stol tennis sport turi qoidalarini bilish. Raketka bilan to`pga to`g`ri	4	A	2

		zarba berish. To`pni o`yinga kirita olish Erkin kurash. Respublikamizda erkin kurash sport turini rivojlanish tarixi. Erkin kurashning o`quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati. Erkin kurash sport turi qoidalarini o`rgatish. YUnon-rum kurashi. yunon-rum kurash sport turini rivojlanish tarixi. yunon-rum kurashning o`quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati. YUnon-rum kurash sport turi qoidalarini o`rgatish. YUnon-rum kurash sport turi qoidalarini bilish. CHidamlilik va egiluvchanlikni mustaxkamlash. yunon-rum kurashning oddiy usullarini bilish Dzyudo. Dzyudo kurash sport turini rivojlanish tarixi. Dzyudo kurashning o`quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati. Dzyudo kurash sport turi qoidalarini o`rgatish. Dzyudo kurash sport turi qoidalarini bilish. CHidamlilik va egiluvchanlikni mustaxkamlash. Dzyudo kurashning oddiy usullarini bilish. Taekvondo. Taekvondo kurash sport turini rivojlanish tarixi. Taekvondo kurashning o`quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati. Taekvondo kurash sport turi qoidalarini o`rgatish. Taekvondo kurash sport turi qoidalarini bilish. CHidamlilik va egiluvchanlikni mustaxkamlash. Taekvondo kurashning oddiy usullarini bilish. Badiiy gimnastika. Respublikamizda badiiy gimnastika sport turini rivojlanish tarixi. Badiiy gimnastikaning o`quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati. Badiiy gimnastika sport turi qoidalarini o`rgatish. Badiiy gimnastika sport turi qoidalarini bilish. CHaqqonlik, epchillik, chidamlilik va egiluvchanlikni mustaxkamlash. Badiiy gimnastikaning oddiy usullarini bilish Sport gimnastikasi. Respublikamizda sport gimnastika sport turini rivojlanish tarixi. Sport gimnastikaning o`quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati. Sport gimnastika sport turi qoidalarini o`rgatish. Sport gimnastika sport turi qoidalarini bilish. CHaqqonlik, epchillik, chidamlilik va egiluvchanlikni mustaxkamlash. Sport gimnastikaning oddiy usullarini bilish Og`ir atletika. Respublikamizda Og`ir atletika sport turini rivojlanish tarixi. Og`ir atletikaning o`quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati. Og`ir			

		atletika sport turi qoidalarini o`rgatish. Og`ir atletika sport turi qoidalarini bilish. CHidamlilik va kuchlilikni mustaxkamlash. Og`ir atletikaning tosh ko`tarish usullarini bilish Boks Respublikamizda Boks sport turini rivojlanish tarixi. Og`ir atletikaning o`quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati. Boks sport turi qoidalarini o`rgatish. Velosport Velosportning o`quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati. Velosport sport turi qoidalarini o`rgatish. Karate. Karatening o`quvchilarni rivojlanishdagi ahamiyati. Ko`nikma va malakalar. Karate sport turi qoidalarini o`rgatish. SHaxmat/shashka. SHaxmat/shashkaning o`quvchilar aqliy rivojlanishdagi ahamiyati. SHaxmat/shashka sport turi qoidalarini o`rgatish. Sport raqsi. Sport raqsi sport turini rivojlanish tarixi. Sport raqsining o`quvchilar jismoniy rivojlanishdagi ahamiyati. Sport raqsi elementlarini o`rgatish. Sport raqsi sport turi qoidalarini bilish. YUrish, yugurish, sakrash mashqlarini o`rgatish. Sport raqsining oddiy usullarini bilish			
Jami:			**36**		**18**

3. O‘quv chi larning bilim va ko‘nikma larini baholash

O‘quv dasturi davomida O‘quv chi lar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikma lar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib , ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini anglashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo’yilgan maqsadga hamohang bo‘lishi lozim.

4. Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro`yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Usmonxo`jaev T., va boshqalar. Jismoniy tarbiya nazariyasi - T.:”O`qituvchi”, 2004.
2. Usmonxo`jaev T. Jismoniy tarbiya va sport mashg`ulotlari. - T.:”O`qituvchi”, 2005.
3. Usmonxo`jaev T. Jismoniy tarbiya - T.:”O`qituvchi”, 2007, 2009, 2010, 2011, 2012.
4. Normurodov A.N Engil atletika 2005
5. Nigmanov B Sport o`yinlari 2005
6. Normirodov A.N. Morgunova I.I Milliy va Harakatli o`yinlar 2005

Qo`shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. T. 1. - Toshkent: O`zbekiston.. 2017.

2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O`zbekiston. 2017.

3. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson ma'nfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yiligiga bag`ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. - Toshkent: O`zbekiston. 2017.

4. Mirziyoev SH.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak. Toshkent -"Uzbekiston"-2017.

5. Mirziyoev SH.M. "Niyati ulug xalqning ishi xam ulug`, xayoti yorug` va kelajagi farovon bo`ladi" Toshkent - "Uzbekiston"-. 2019

6. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O`zbekiston. 2017.

7. Karimov I.A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. - Toshkent: O`zbekiston, 1996.

8. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o`z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog`liq. T. 12. - Toshkent: O`zbekiston, 2004.

Internet manbalari:

www.ziyonet.uz.
www.edu.uz.
www.google.uz.
www.gov.uz.